


BOOKMANY
PRINT



MEDIATA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF
O'QITUVCHILARIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH



A.J.Atajonova

MEDIATA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna

MEDIATA’LIM ASOSIDA
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF
O‘QITUVCHILARIDA KOGNITIV
FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Monografiya

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 371.134
KBK: 74.58я73
A-83

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna.

Mediata’lim asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kognitiv faoliyatni rivojlantirish [Matn]: monografiya / A.J.Atajonova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 202 b.

Ushbu monografiyada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, jumladan, mediata’lim va kognitiv faoliyat kategoriyalarining kontekstual tahlili, mediata’limning xorijiy ilmiy tadqiqotlarda pedagogik muammo sifatida o‘rganilishi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, omillari, komponentlari hamda mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan yoritib berilgan.

Mas’ul muharrir:

F.R.Ruzimbayevna – p.f.d., professor

Taqrizchilar:

E.Y.Davletov – p.f.b.f.d. (PhD)

D.Sh.Nafasov – p.f.b.f.d. (PhD)

Ushbu monografiya Urganch davlat pedagogika institutining 2025-yil 26-maydagi 5-sonli ilmiy-texnik Kengashi qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-06-671-9

© Atajonova A.J., 2025.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida, jumladan oliy ta'lim rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri—axborotlashgan jamiyat sharoitida mediakompetent mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasi tomonidan ilgari surilgan tavsiyalarga ko'ra, turli dasturiy mahsulotlarning yaratilishi yoshlar va kattalarda mediakompetentlikni shakllantirishga yordam beradi hamda zamonaviy jamiyatning mediamadaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan axborotlashgan jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari – bu media, til va madaniyatdir. Insonning mediakompetentligini aynan shu til va madaniyat belgilaydi. Mediata'limning butun dunyo miqyosidagi ahamiyati UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda pedagoglarning mazkur sohadagi bilimlarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. Bugungi kunda Finlandiya, Angliya, Kanada, Koreya, Yaponiya, Xitoy va Rossiya singari ilg'or davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning samarali mexanizmlari ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tekshirish markazlari va ta'lim muassasalarida talabalarning mediata'lim asosida kognitiv faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, talabalarning mediakontentni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli muhitda axborotni izlash va baholash, media vositalarning talabalar kreativ fikrlashini rag'batlantirishdagi rolga doir ilmiy-tadqiqot ishlari talabalarni bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmunini metodik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan. O'quv jarayonida zamonaviy media texnologiyarning qo'llanilishi, axborot texnologiyalari (optik effektlar, 3D-ta'lim zallari) asosida talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash, kiberpedagogika, masofaviy ta'lim shakllarini keng tatbiq etish, ochiq ta'lim resurslari, aralash ta'lim (online/offline) texnologiyalarining qo'llanilishi va bu orqali ta'lim samaradorligini muntazam rivojlantirib borish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini ta'minlashning jahon amaliyotiga asoslangan sifat koeffitsiyentini oshirish, talabalarning mediata'lim asosida kognitiv

faoliyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur jarayon talabalar mediamadaniyati darajasini oshirish, media, ta’lim va hayotni o‘zaro uyg‘unlashtirishga doir tadqiqot olib borish zarurati mavjudligini ko‘rsatdi. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”¹ yo‘nalishida, “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” maqsadlarida, “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” bandlarida oliy ta’limga oid qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu esa mediata’lim texnologiyalarining pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etish, xorijiy tajribalar asosida mediamadaniyatni rivojlantirish, medianing pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish orqali mediata’limni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-son “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2022. –B.11.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MEDIATA'LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

I.1. Mediata'lim va kognitiv faoliyat kategoriyalarining kontekstual tahlili

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga – ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'rganuvchining individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv-metodik ta'minotni yaratish va rivojlantirishning konseptual tamoyillarini aniqlashtirish, fanlar bo'yicha integrallashgan o'quv-ilmiy resurslarni yaratishga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, fanlarning o'quv-metodik resurslarini optimal taqdim etish, raqamli texnologiyalarga asoslangan o'quv-metodik ta'minotdan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining 637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni talablaridan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta'lim tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatildi.

Respublikamizda mazkur vazifalarni izchillik bilan ijobiy hal etishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda talabalarning kognitiv faoliyatini, mediamadaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirish, uning maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalarning tizimli va izchil xarakterga ega bo‘lishiga katta e’tibor qaratilmoqda. “Bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata’lim bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish, ularning axborot va OAV bilan ishlash sohasidagi huquqiy savodxonliklarini tarkib toptirish, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimining integrallashgan mazmuniga media yondashuvlarni singdirishni taqozo qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi paydo bo‘ldi. **“Media”** atamasi lotin tilidan (**media, medium** so‘zidan) olinib, **“qo‘llanma, vositachi”** ma’nolarini anglatadi.²

“Media” – lotincha “media” so‘zidan olingan bo‘lib, “vosita”, “vositachi” yanada aniqrog‘i, “ommaviy axborot vositalari” degan ma’noni anglatadi. Media vositalar onlayn ta’lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o‘tilishi va talabalar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, internet bilan do‘stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. “Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir. Afsuski, bugungi kunda asossiz ma’lumotlarga qiziqadigan yoshlar, reklamalarda berilayotgan

² Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.

barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham yo'q emas.

Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makondir. "Media" atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan³.

Mediamadaniyat – turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi⁴.

Mediakompetentlik – bu shaxsning turli format, janr va ko'rinishdagi mediamatnlarni saralash, undan samarali foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va tarqatish qobiliyatini, shuningdek, jamiyatda medianing faoliyatiga oid murakkab jarayonlarni anglash va tahlil etishga tayyorligini ifodalovchi kompleks (integrativ) xususiyat sifatida tushuniladi.

Mediakompetensiya – axborot hamjamiyati bilan o'zaro munosabat bo'lib, shaxs media madaniyatining ajralmas qismi sifatida o'zida mujassamlangan, qimmatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy komponentlarni o'z ichiga oladi va o'zaro ta'sir (hamkorlik) subyektlarining rivojlanishiga olib keladi.

Mediasavodxonlik – bu insonning media vositalarining funksiyalarini anglash, ularning amalga oshirilish samaradorligini baholash, o'z fikrini erkin va mazmunli ifoda etish, hamda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish maqsadida media bilan ongli va ratsional hamkorlikni yo'lga qo'ya olish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu ko'nikmalar majmuasi, o'z navbatida, mediata'lim jarayonining asosiy natijasi hisoblanadi.

Mediasavodxonlik bu avvalo o'zimiz qabul qilayotgan axborotni xabarlarni tushunish va tahlil qila olish qobiliyatidir. Mediasavodxonlik

³ Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. —Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. 223 б.

⁴ Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. – 162 б.

bir qator kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: turli ommaviy axborot vositalariga kirish, tahlil qilish, baholash, aks ettirish, yaratish va ishlab chiqarish.

Noto'g'ri axborot (misinformation) – bu noto'g'ri ma'lumot – bu yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumot – faktlarni noto'g'ri qabul qilish.

Dezinformatsiya – bu ataylab chalg'itishga qaratilgan yolg'on ma'lumot – faktlarni qasddan noto'g'ri ko'rsatish.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni mediasavodxonlik, mediata'lim, mediani o'rganish va boshqalar bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinishmoqda.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bog'liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko'rinishlari ko'paymoqda. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata'lim, mediani o'rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo'llanmoqda.

Mediata'lim – bu mediani o'qitish jarayoniga integratsiya qilish va uni fanlararo yondashuv asosida o'rganishni nazarda tutadi.

Masalan:

- mediamavzuni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;
- amaliy ish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;
- uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini;
- media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini;
- talabaning OAV bilan ishlashini;
- tadqiqot faoliyatini;
- medianing til va san'at orqali auditoriyaga ta'sirini o'rganadi.

Mediani o'rganish esa o'z navbatida:

- mediani nazariy jihatdan o'rganishni;
- mediani qiyosiy jihatdan tahlil etishni;
- uning konseptual tarkibini;
- media matnni tahlil etish va uning yaratilish metodikasini;
- ommaviy kommunikatsiya, kino san'ati va madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro bog'liqligini;
- OAVning ta'sirini o'rganadi.

Mediasavodxonlik mediani o'rganish bo'lib, mediata'limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o'z oldiga:

- medianing shaxs va jamiyatga ta'sirini tushunish;
- ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;
- mediamatnlarni tushunish va tahlil eta olish;
- media kontekstini tushunish;
- mediamatnlarni yaratish va ularni tahlil etish;
- mediamatnlarni baholash va ularni saralash vazifalarini qo'yadi.

Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga boshlang'ich ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.

Mediata'lim atamasi tor mazmunda ta'limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. U umumiy ta'limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata'lim bilan bir qatorda pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so'zlari ham qo'llaniladi. Ta'limning yangi yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta'limdir.

Multimedia – (lotincha–ko'p, vositachi bo'lmoq) kompyuterning matn, grafik, tovushli va video ma'lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o'rnatilgan kompyuter multimedia kompyuter deyiladi. Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimediali qurilmalar bilan ta'minlangan.⁵ Bizning fikrimizcha,

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Multimedia>

multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarining fazodagi harakati) effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchi va talabalarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko‘rinishi

Multimedia vositalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ta‘lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan. Multimedia tushunchasi XX asrning 90-yillari boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o‘zi nima degan savol tug‘iladi. Ko‘pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning bu usuli hozirgi kunda ta‘lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tatbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz hordiq chiqarmaydigan bo‘lib qoldi. Multimedia vositalarining 1981-yildagi yalpi aylanmasi 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 1994-yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Kompyuterlarni XX asrning 70-yillarida ta‘lim sohasida keng qo‘llash yo‘lida urinishlar zoya ketganligi, avvalambor, ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog‘liq edi.

Dunyoda boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirishda pedagogik kadrlar mediata‘limini shakllantirishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual o‘zini rivojlantirish trayektoriyasini loyihalash, ularda media va axborot savodxonligini o‘zlashtirish ehtiyojini tarkib toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta‘limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata‘limini rivojlantirish jarayonini axborot ta‘lim muhiti bilan integrativligini ta‘minlash, pedagoglarda mustaqil media bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini, kreativlik, yangi mediavositarni o‘zlashtirishga qobiliyatlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata‘lim bo‘yicha rivojlanganlik darajasini tashxislashga qaratilgan metodikalarni yaratish, mediata‘limni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashni talab etmoqda.

Ma'lumki, global miqyosda medianing roli shiddatli ravishda yildan-yilga ortib bormoqda. Media kirib bormagan soha qolmadi. Kundalik hayotni ham mediasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Media haqiqiy ma'noda insonlar orasidagi "vositachi"ga aylanib ulgurdi. Shuningdek, media barcha kasbiy faoliyat turlariga to'laqonli integratsiya bo'lib bormoqda.

Globallashuv jarayonlarining har bir jamiyat a'zosining shaxsiy rivojlanishiga axborot nuqtayi nazaridan ta'siri katta va kuchli bo'lib bormoqda. Talabalarning axborot manbalarini baholash, ulardan foydalanish, axborotni tarqatishda xolislik, aniqlik, mas'uliyatlilik, halollik kabi tamoyillarga asoslanganligini tahlil qila olishi – ulardagi media bilimdonlik rivojlanganligini belgilab beradi.

Ma'lumki, aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy onlayn ta'lim tizimiga yana bir muhim vazifa – yoshlarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda.

Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, foydalisini tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, internet, televideniya, kino, radio, video, mobil aloqasi, turli ma'lumotlar aks etgan slaydlar va suratlar kabi aloqa hamda ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlashdek muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur jarayonda mediata'lim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatish, talabalarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot madaniyati asosida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi: (I.1.1-rasmga qarang).




I.1.1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot madaniyati ko'nikmalari

Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga egadir. Har bir inson aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Biroq, bugungi kun talabiga ko'ra, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsizlaridan, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlik madaniyatiga ega bo'lish zarurati yuzaga kelmoqda. Avvalo, mediasavodxonlik madaniyatining o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollarga javob topish lozim. Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlik madaniyatiga ega bo'lish zaruriyatini oshirmoqda. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik madaniyati bu shaxsning asarlarni tahlil eta olishi va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan.

Bugungi axborot muhitini tushunishda mediasavodxonlik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilmoqda, unda kimning manfaatlarini aks ettirmoqda, degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir.

Media kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi uzviylikka, bir-birini to'ldiruvchi umumiy mazmunga ega. Bu uzviylik oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quv jarayoni, jumladan, ona tili va o'qish savodxonligi darslari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Mediata'lim quyidagi muhim tarkibiy qismlarga ajratiladi: (I.1.2-rasmga qarang).



I.1.2-rasm. Mediata'limning tarkibiy qismlari

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun media ta'limning asosiy vazifasi – o'zini mustaqil rivojlantira oladigan va shaxsan mustaqil harakat qiladigan shaxs sifatida ularning mediaketentligini rivojlantirishga imkoniyat yaratishdir. Mediata'lim maqsadlari quyidagi ko'rinishda ifoda etiladi: (I.1.3-rasmga qarang.)

№	Maqsad nomi	Qisqacha tavsif
1	Mediasavodxonlikni rivojlantirish	Media xabarlarini tushunish, tahlil qilish va baholash ko'nikmasi.
2	Tanqidiy media tafakkurni shakllantirish	Manipulyatsiya, feyk va stereotiplarni anglash va tanqidiy tahlil qilish.
3	Axborot xavfsizligini oshirish	Onlayn xavflardan himoya, shaxsiy ma'lumotni muhofaza qilish.
4	Media mahsulot yaratish ko'nikmasi	Matn, foto, video va audio kontent tayyorlash qobiliyati.
5	Media texnologiyalaridan samarali foydalanish	Zamonaviy IT va media vositalar bilan ishlash ko'nikmalari.
6	Mediaetika va mas'uliyatni shakllantirish	Axloqiy me'yorlarga rioya qilish, javobgarlik bilan kontent tarqatish.
7	Mediamadaniyatni rivojlantirish	Media orqali madaniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarni anglash.

I.1.3-rasm. Mediata'lim maqsadlari

Bugungi kunda esa oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish zaruratini beradi. Jamiyatning barcha jabhalarini keng ko'lamda egallagan kommunikatsiya vositalari insoniyat rivojlanishining yangi davrini boshlab berdi. O'zbekistonda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab 10-11-sinf o'quvchilarining "Tarbiya" darsligiga "Mediasavodxonlik" bo'limi kiritildi. Respublikaning O'zJOKU, TDSHU, O'zMU, O'zDJTU, QDU, SamDChTI kabi oliygohlarining jurnalistika fakultet va yo'nalishlarida mediasavodxonlik darslari o'tila boshlandi.

O'z qadriyat va an'analariga ega bo'lgan Osiyo mamlakatlarida mediata'lim va uning ta'limga kirib kelishi jarayoni G'arb mamlakatlarinikidan biroz farq qiladi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sharqiy Osiyoda mediata'lim tomon siljish kuzatildi. So'nggi

yillarda Osiyoda mediata'lim darajasi o'sib bormoqda. Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makondir. (I.1.4-rasmga qarang.)

№	Vazifa nomi	Qisqacha tavsif
1	Mediasavodxonlikni shakllantirish	Axborotni qabul qilish, tahlil qilish va baholash ko'nikmasini rivojlantirish.
2	Tanqidiy mediatafakkurni rivojlantirish	Manipulyatsiya, feyk xabar va stereotiplarni anglash va tanqidiy tahlil qilish.
3	Mediamahsulot yaratish ko'nikmasi	Matn, foto, video, audio va grafik kontent yaratishni o'rgatish.
4	Mediatexnologiyalaridan foydalanish	Zamonaviy media vositalari va IT platformalarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.
5	Mediaaxborot xavfsizligini ta'minlash	Kiberxavflardan himoya, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, feyklarni aniqlash.
6	Mediaetika va mas'uliyatni shakllantirish	Media axloqi, mualliflik huquqi va mas'uliyatli kontent tarqatishni o'rgatish.
7	Mediamadaniyatni rivojlantirish	Madaniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarni media orqali anglash va qabul qilish.
8	Ongli media iste'molchisini tarbiyalash	Aqlli, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli fuqaroni shakllantirish.

I.1.4-rasm. Mediata'limning asosiy vazifalari

Har bir shaxs ijtimoiy tarmoqdan o'zi hohlagan sharoitda foydalanish huquqiga ega. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har bir isnonning axborotdan

foydalanish erkinligi quyidagicha himoyalangani keltirilgan: “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o‘z e’tiqodiga to‘siqsiz tarzda sodiq bo‘lish hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat’iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘zida mujassam etadi.”⁶ Biroq, bu erkinlik ayrim burch va mas’uliyatlarni ham keltirib chiqaradi. Ya’ni axborot erkinligi undan foydalanuvchidan axborot madaniyati va mediamadaniyatni yuksak darajada bo‘lishini talab etadi. Chunki axborot huquqi va undan foydalanish ijtimoiy tahdidga aylanishi mumkin.

Jamiyat va davlat rivojida ta’lim va mediata’limning roli kattadir. Mediata’lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta’lim sohasining ustuvorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta’limga erishish uchun ta’limni axborotlashtirish va o‘qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta’lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur.

Mediata’lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to‘g‘ri foydalanib, o‘zining rivojlanishi uchun kerakli bo‘lgan axborotlarni o‘rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media resurslarini tahlil qilish muhim rol o‘ynaydi.

Jahon media pedagogikasida media vositalaridan tarbiyaviy va ijodiy maqsadlarda foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Media ta’lim jarayoni, odatda, quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘linadi:

- media nazariyasi bo‘yicha bilim berish – bu bosqichda mediaga oid tushunchalar, uning tarixi, tuzilishi va media tili haqida ma’lumot beriladi (o‘qitishda media texnologiyalaridan foydalanish orqali);

- mediamatnlarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish – ya’ni matnni o‘qish, tushunish, tasavvurni faollashtirish, xotirani kuchaytirish va fikrlashning turli shakllarini (tanqidiy, ijodiy, intuitiv va obraz yaratish) takomillashtirish.

Mediata’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi quyidagi professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur:

- mediata’lim sohasiga doir maxsus nazariy bilimlar hamda eng so‘nggi axborotlarga egalik darajasi;

⁶ Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64

-yuqori darajadagi shaxsiy qiziqish va motivatsiya.

Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Demak, axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish jarayonida vujudga keladigan salbiy ta'sirlar, tajovuzlarga qarshi tura oladigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun uchun juda muhim hisoblanadi.

“Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo'ljallangan ko'ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo'naltirilgan ko'psonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya vositasidir”. Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o'zagida aynan ushbu tavsifni ko'radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi.⁷

Fikrimizcha, media ta'sirida oladigan ma'lumotni qayta ishlay olish, mantiqiy va analitik tahlil qilib ko'rish, uning yashirin aks ta'sirini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish sifatida mediamadaniyat nafaqat jurnalistlar, OAV xodimlari balki, oliy ta'limda ham juda kerakli sifat hisoblanadi. Chunki ular ham OTMda mediata'limdan foydalanishni o'rganuvchi va o'rgatuvchi sifatida xorijiy axborotni o'zlashtirish, uni o'rgatish bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan birga oliy ta'limda ommaviy axborot vositalarining xolis va haqqoniy axborot yetkazuvchilik faoliyatida ularning unumli yoki ko'r-ko'rona yondashuvining ta'sirini talabalarda ko'rish mumkin bo'ladi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ham mediasavodxonlikni oshirish, mediata'lim orqali medianing salbiy ta'sirlarini ilg'ay olish

⁷ Азимова С.Х. “Нутқ акллари ва коммуникатив компетенция: рад жавобини билдирувчи иллокатцион ҳаракатни прагматик таҳлил қилиш”. Международный журнал искусство слова 3.5 (2020). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor = 1.7 November 2022 www.oriens.uz 903-b

ko'nikmalarini shakllantirish, bu orqali o'quvchilarni ham g'oyaviy aldanishdan saqlash iqtidoriga ega bo'ladi.

Mediamadaniyatni shakllantirish zaruratini tadqiq etishdan avval axborot savodxonligi, axborot madaniyati, mediata'lim va mediamadaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati, lug'atlarda ta'riflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e'tirof etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamoatchilik tomonidan mediasavodxonlik tushunchasi axboriy savodxonlik, axborot madaniyati hamda axboriy immunitet tushunchalari bilan bir ma'noda ishlatiladi. Xo'sh, aslida ham bu tushunchalar bir ma'noni anglatadimi?

Axborot savodxonligi – turli xil ma'lumotlar manbalarini qidirish, sharhlash, baholash, o'quv, biznes va ilmiy-ommabop matn turlari bilan ishlash.

Axborot madaniyati – axborot sohasidagi moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui.

Axborot immuniteti – bu shaxsning axborot tahdidlarini aniqlash, ularning xavflilik darajasini aniqlash va ularga mohirona qarshilik ko'rsatish qobiliyatida ifodalangan axborot muhitining salbiy ta'sirini aks ettirish qobiliyati.⁸ (I.1.1-jadvalga qarang).

№	Axborot savodxonligi	Mediasavodxonlik
1	Axborotni izlash, topish va qayta ishlashga qaratilgan	Mediaxabarlarni tahlil qilish, baholash va tushunishga qaratilgan
2	Axborotning ishonchliligini tekshirish	Mediakontentdagi manipulyatsiya, stereotip va feyklarni aniqlash
3	Ma'lumotlar bazasi, kataloglar, elektron resurslar bilan ishlash	Televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar va OAV bilan ishlash

⁸ "Framework for Information Literacy" (PDF). Association of College & Research Librariyes. 2016. p. 8. Retriyevd May 1, 2022.

4	Axborotni tanlash va saralash ko'nikmalari	Media matnlarni sharhlash, tahlil qilish va talqin qilish ko'nikmalari
5	Axborot texnologiyalaridan foydalanish	Media texnologiyalaridan foydalangan holda kontent yaratish
6	Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ulardan ongli foydalanish	Mediaetika, axloqiy me'yorlar va mas'uliyatli kontent iste'moli
7	Asosan ilmiy va amaliy axborotga yo'naltirilgan	Asosan ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitga yo'naltirilgan

I.1.5-rasm. Axborot savodxonligi va mediasavodxonlikning qiyosiy tahlili

Mediasavodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Kognitiv faoliyat – bu idrok, fikrlash, xotira, e'tibor, nutq kabi aqliy jarayonlar yordamida atrofdagi voqelikni bilishga qaratilgan ongli faoliyat. Kognitiv faoliyat – bu o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarini hal qilish jarayonida bilim va harakat usullarini o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati. U nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki subyektning (talabaning) o'zi uchun ham ijtimoiy tajribani (axloqiy, madaniy, amaliy, ijodiy va boshqalar) maqsadli o'zlashtirish tufayli uning shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish, rivojlantirishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, o'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv faoliyati uchta o'zaro bog'liq bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqichda o'rganilayotgan materialni idrok etish, tushunish va yodlash yoki nazariy bilimlarni o'zlashtirish sodir bo'ladi.

2. Ikkinchi bosqichda ushbu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikma va ko'nikmalar ishlab chiqiladi, bu maxsus o'quv mashqlarini tashkil qilishni talab qiladi.

3. Uchinchi bosqichda o'rganilayotgan material bo'yicha bilimlarni yanada mustahkamlash va chuqurlashtirish, ularni birlashtirish va amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish amalga oshiriladi.

Kognitiv faoliyatining maqsadi ushbu bilimlarni va usullarni o'zlashtirishdir, bu jarayonda talabaning o'zi ham rivojlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quv faoliyatining maqsadi o'qitish maqsadi bilan chambarchas bog'liqdir. Kognitiv faoliyatining motivlari talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilligi, qiymat yo'nalishlari bilan bog'liq.

Kognitiv faoliyatining predmeti – bu o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialining mazmuni hisoblanadi. Bunga o'rganilayotgan fanlar bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan tushunchalar, nazariyalar, qonunlar, prinsiplar, vazifalar, algoritmlar, jarayonlar, harakat usullari va boshqalar kiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu harakatdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv faoliyati ta'limning maqsadi va mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish shakli, o'quv materialini o'rganish va o'zlashtirish mantig'i va o'qitish usullari bilan bog'liq ko'plab harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bunga o'qituvchi yoki talabalardan biri tomonidan o'quv materialining og'zaki taqdimotini tinglash, o'quv adabiyotlarini yoki xulosalarini o'qish, ko'rgazmali qurollar to'g'risidagi ma'lumotlarni idrok etish, kompyuter bilan ishlash, laboratoriya ishlarini bajarish va boshqalar kiradi.

Kognitiv faoliyati vositalariga talabaning asosiy bilimlari va ko'nikmalari, og'zaki va yozma nutq, o'quv adabiyoti, eslatmalar, vizual va uslubiy qo'llanmalar, o'quv maqsadlari uchun kompyuterlar va elektron nashrlar, laboratoriya uskunalari, o'quv televideniyesi va boshqalar kiradi.

Ta'lim faoliyati usullari – bu bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun vositalardan foydalanish usullari. Ular o'qituvchi tomonidan ma'lum bir darsda qo'llaniladigan o'qitish usullariga bog'liq. Ta'lim faoliyati usullari, masalan, adabiyotlarni o'rganish va o'quv materialining qisqacha mazmuni, muammolarni hal qilishda matematik operatsiyalar, laboratoriya ishlarini bajarish va hisobot tuzish usullari, muammolarni individual yoki guruhli hal qilish usullari, o'rganilayotgan hodisalarni, jarayonlarni o'rganish usullari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim faoliyati mahsuli – o'quvchilar tomonidan o'rganish natijasida olingan yangi bilim va ko'nikmalardir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv faoliyati tarkibidagi

asosiy tarkibiy qism o'quv vazifasidir. Ta'lim vazifasi va boshqa vazifalar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, uning maqsadi va natijasi u o'zaro ta'sir qiladigan obyektlarni o'zgartirishdan ko'ra, subyektning (talabaning) o'zini o'zgartirishdir. O'quv vazifalari bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Ular tushunish va yo'naltirish, ma'lum qoidalarga asosan identifikatsiya qilish, o'zgartirish, amaliyotda qo'llash, yangi vaziyatlarga moslash, vazifalarni mustaqil ravishda shakllantirish hamda o'z-o'zini boshqarish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bajarilgan funksiyaga qarab harakatlar uch turga ajratiladi:

1. Yo'naltirish (yoki rejalashtirish);
2. Ijro;
3. Nazorat.

Yo'naltiruvchi harakatlar (indikativ asos). Bu – talabalar o'zlashtirgan harakatlarni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan ko'rsatmalar va qoidalar tizimi. Ular yaqinlashib kelayotgan faoliyatni rejalashtirishda asosiy ahamiyatga ega. Muammoni hal qilish jarayonidagi taxminiy asoslar quyidagicha:

- muammoni va uning mohiyatini aniqlash;
- muammolar o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni belgilash;
- turli yechimlar variantlarini taklif etish;
- mos usulni tanlash va yechim rejasini tuzish;
- yechimni amalga oshirish;
- natijani tekshirish.

Ijro harakatlari – bu yo'naltiruvchi ko'rsatmalar asosida to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan harakatlardir. Ya'ni, talabalar oldin rejalashtirilgan va o'rganilgan ko'nikmalar asosida vazifani bajaradi.

Ijro harakatlari odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aniq harakatni boshlash (initsiatsiya);
- to'g'ri qadamlar ketma-ketligini amalga oshirish;
- o'rganilgan usulni turli sharoitlarda qo'llash;
- maqsadga erishish uchun harakatni to'liq bajarish.

Ijro jarayoni – o'quvchi yoki talaba o'z bilimlarini amaliyotda tatbiq etayotgan bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin, lekin aynan shu xatolar keyinchalik nazorat va tahlil orqali to'g'irlanadi.

Nazorat harakatlari (yoki o'z-o'zini nazorat qilish). Bu jarayon – bajarilgan ishlarning to'g'ri va to'liq ekanligini baholashga qaratilgan. Nazorat harakatlari orqali talabalar: Operatsiyalar to'g'ri bajarilganmi?, Hech qanday element unutilib qolmaganmi?, Natija kutilganidek chiqdimi? degan savollarga javob izlaydi.

Talaba muammoni hal etish uchun tashqi manbalarga tayanadi. Ularning turlari:

- moddiy: asboblari, qurilmalar va boshqalar;
- bosma: matnlar, formulalar, diagrammalar, modellar;
- ideal: bilimlar, fikrlash usullari, aqliy modellar.

Shunday qilib, kognitiv faoliyatning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: mavzu, maqsad, motivlar, vositalar, o'quv harakatlari va ularni amalga oshirish usullari, mahsulot (natija). Kognitiv faoliyatni o'quv muammolarini hal qilish faoliyati deb hisoblash mumkin.

Fikrlash darajasiga ko'ra, kognitiv faoliyatning ikki asosiy turi mavjud:

1. Tanqidiy fikrlash (kritik fikrlash) – ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, asosli xulosa chiqarish va muammolarni hal etish qobiliyatini anglatadi. Bu turda inson ma'lumotni shubha ostiga olib, mantiqiy fikrlash asosida qaror qabul qiladi.

2. Ijodiy fikrlash (ijodiy fikrlash) – yangi g'oyalar yaratish, muammoga noan'anaviy yondashish va yangi yechimlar topish qobiliyatini qamrab oladi. Bu turda erkin tasavvur va original yondashuv asosiy o'rin tutadi.

Agar o'qituvchi aynan shu davrda talabaning qobiliyatlarini rivojlantirmasa, talabalar o'rganilayotgan materialni faqat yarim mexanik ravishda yodlab oladilar, bu esa ularning bilimlarini oshiradi, lekin aqliy va ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat talabalar taqqoslash, tasniflash, aniqlash kabi intellektual operatsiyalarning rivojlanish darajasiga ega emaslar. Shu bilan birga, ijodiy qobiliyatlar, odatda, original va standart bo'lmagan muammolarni hal etishda, yangi g'oya yoki yechimlarni kashf qilishda, mavjud bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo'llashda, shuningdek, mustaqil tanlov imkoni bo'lgan holatlarda shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Talaba institutda egallashi kerak bo'lgan eng muhim qobiliyat, aslida uning kasbiy shakllanishiga tubdan ta'sir ko'rsatadigan bilish qobiliyatidir, chunki uzluksiz ta'limda uning imkoniyatlarini belgilaydi. Vaqt o'tishi bilan eskirgan bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, yangisini o'rganish muhimroqdir. Bundan ham muhimi, ijodiy fikrlashga asoslangan mustaqil bilim olish qobiliyatidir.

Televideniyeining rivojlanishi yoshlarning nazoratsiz holda katta miqdordagi axborotlardan himoya qilishni ko'zda tutardi. Bu bosqichda mediata'lim madaniy yo'nalishdagi himoyalovchi nazariyaga mos holda faoliyat yuritadi. Shuningdek, zangori ekranning "tajovuzi"dan himoya qiladi. Televizion dasturda bir tomonda kinoga oid, ya'ni yoshlarbop yo'nalish uchrasa, ikkinchi tomonda jurnalistik va estetik yo'nalish bor edi. Uzoq rivojlanish davrida madaniy yondashuv ommaviy axborot va kommunikatsiyaning rivojiga bog'liq holda ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, siyosiy aspektda boyidi. Uning bosh konseptual yondashuvi tanqidiy tafakkur nazariyasiga aylandi.

Bugungi kunda internet axborot tarqatuvchi manba sifatida nazoratsiz holdagi axborotlarni uzatmoqda. Media mahsulotlar ham tovarga o'xshaydi. Boshqacha aytganda, nomoddiy mahsulot. Ma'naviy ozuqa iste'mol jarayonida undan-da ko'proq e'tibor talab qiladi. Nobop ovqat oshqozonni buzadi, egasini zaharlaydi. Media mahsulotni qanday bo'lsa, shunday "yutish" esa yoshlar ma'naviyatida shu paytgacha shakllangan ma'naviy qadriyatlar tizimini larzaga soladi.

Muammo shundaki, bu holatda dori-darmon bilan tuzatish imkoni bo'lmaydi. Yoshlar – media mahsulotlarni eng ko'p "qabul qiladigan" segment.⁹ Demak, har bir zamonaviy yigit-qiz media bozorning "ich"ini bilib o'sishi kerak. Bu intellektual axborot asrining talabi, zamonaviylikning sharti. Shuning uchun ham YUNESKO mediata'limni XXI asrda madaniy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan edi.

Demak, yoshlar mediamatnlarni o'qiyotgan, mediamahsulotni tomosha qilayotganda ularni qabul etish, tahlil qilish, baholash va yaratish, zamonaviy jamiyatda mediamahsulotlarning ijtimoiy,

⁹ G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq, 2000. 46-b.

ma'naviy, mafkuraviy, madaniy kontekstini tushunishlari kerak. Bu esa talabaning mediamadaniyati qandayligiga bog'liq.

Mediamadaniyat – shaxs madaniyati uchun zarur qism bo'lib, ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni kasbiy, kundalik, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo'llay olish qobiliyatlarining yig'indisi. Mohiyatiga ko'ra shaxs tomonidan mediamadaniyatning o'zlashtirilishi stixiyali jarayon bo'lmay, bir necha bosqichda evolyutsion rivojlanishga asoslanadi. Shaxsda mediamadaniyatni shakllanish jarayonining umumiy mohiyati mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat va mediakompetentlikda o'zining to'liq ifodasini topadi. Hozirgi global dunyoda yagona media makoni shakllandi. Shu makondan munosib o'rin egallash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta'sir kuchiga ega bo'lishni eng maqbul yo'li sifatida, mablag' qancha ketishidan qat'iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallash ekanligi hozirda sir bo'lmay qoldi. Jahonda informatsion urush ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol uchun biron mamlakat hududida ma'lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, san'at asarlari, kinofilmlar, axborotlar va hokazolar tarqatilmoqda. Bunday media ta'sir vositalari jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikrni shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, mediata'limni rivojlantirish – ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediata'lim pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o'rin tutadi.

I.2. Mediata'lim xorijiy ilmiy tadqiqotlarda – pedagogik muammo sifatida

Jahon miqyosida mass-media va axborot texnologiyalari ta'sirining o'sib borishi munosabati bilan xalqaro hamjamiyat insonni

axborot muhitida yashashga tayyorlash, ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'lim asosida bilimlarini rivojlantirish muammolari o'z yechimini topishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda zamonaviy o'qituvchida o'z pedagogik faoliyatini medianing o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va hisobga olish asosida axborot olamidagi zamonaviy o'zgarishlarga mos, aniq va to'g'ri tashkil etish ehtiyojini tarkib toptirish, mediasavodxonlikni oshirish borasidagi muammolarga amaliy yechim topish dolzarbligicha qolmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasa-da, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida axborotlashgan jamiyatga o'tish muhim vazifa, ya'ni jamiyatning barcha jabhalarida media vositalarining ta'siri dolzarb muammo sanaladi. Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining qonunchilik yig'ilishi tavsiyasiga binoan dasturiy vositalarning ishlab chiqarilishi yoshlar va kattalarning mediakompetentligi shakllanishiga turtki bo'ladi, shuningdek, zamonaviy jamiyatning media madaniyatiga ta'sir etadigan ajralmas omil sifatida qaraladi.

Mediata'lim tarixidagi umumiy o'zgarishni YUNESKO va Yevropa Ittifoqining OAV tilini o'rganish muammolari bo'yicha maslahatchisi L.Masterman¹⁰ tomonidan kiritilgan. U o'z tadqiqot ishlari natijasida mediata'limning quyidagi tamoyillarini ishlab chiqqan:

1. Mediata'lim – demokratik jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq jiddiy va muhim soha.

2. Mediata'limning markaziy konsepsiyasi – reprezentatsiya (“reprezentatsiya” lotincha “repraesentatio” so'zidan olingan bo'lib) namoyish etmoq ma'nosini bildiradi. Falsafa, psixologiya, sotsiologiya fanlarida qo'llaniladigan atama OAV sohasida olamni obraz yordamida ko'rsatish hisoblanadi. Reallik va reprezentatsiyaning mosligi yoki qarama-qarshiligi haqida ko'p marta so'z boradi.

¹⁰ Masterman L. Teaching the Media. London: Comedia Publishing Group, 1985. 341p.

Mediata'lim insonning butun hayotida davom etuvchi jarayon. Shunga qaramay ayni kunda o'qiyotganlar uchun ustun auditoriya hisoblanadi. Mediata'lim maqsadi tanqidiy tafakkurni shakllantirish bilangina bog'liq bo'lmasdan, balki, shu bilan birga tanqidiy mustaqillik bilan ham bog'liq. Mediata'lim bu tadqiqiy jarayon bo'lib hisoblanadi.

Mediata'lim – bu butun hayot konsepsiyasi deyiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda. Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:

- yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;

- media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;

- internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;

- mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar.

Bu borada, Germaniyada ushbu masalalar yoshlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun, inson qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risidagi hamda teleradioeshittirish va telemediaxizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to'g'risidagi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan.

Germaniyada 70-80-yillarda mediasavodxonlik bo'yicha nazariy nashrlar ishlab chiqila boshlangan. 80-90-yillarda ta'lim tizimida mediata'limga nisbatan qiziqishlar ortdi. Rossiyada mediata'lim tarixi 1820-yillarga borib taqaladi, ammo birinchi jahon urushi natijasida to'xtatilgan bo'lib, 1970-1990-yillarda Jozef Stalin mediata'lim bo'yicha birinchi rasmiy dasturlar yaratdi. O.Baranov va S.Penzin tomonidan mediata'lim yo'nalishida nazariy hamda empirik tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning ishlari ushbu sohaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan. Bugungi kunga kelib, ularning

sa'y-harakatlari natijasida mediata'lim bo'yicha mamlakat yetakchi davlatlar qatoriga kirdi.

Jumladan, xalqaro amaliyotda quyidagi hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin: "Kiber jinoyatlar to'g'risida"gi konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy etish to'g'risida"gi hujjatlar, Yevropa Ittifoqi Parlament Assambleyasining tavsiyalari, BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi, Germaniyada qabul qilingan "Yoshlarni himoyalash to'g'risida"gi qonun, Litvaning "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi qonuni, hamda Rossiyaning "Bolalar salomatligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi qonuni.

Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi. Jahon media pedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Mediabozorda to'rtta asosiy ishtirokchi bor: tayyorlovchi, axborot (mahsulot), yetkazuvchi va iste'molchi.

Tayyorlovchi – bu g'oya muallifi bo'lib, u ma'lumotlarni yig'adi, tahlil qiladi, media materiallar tayyorlaydi va ularni tarqatadi.

Axborot yoki mahsulot – bu matn, belgi, rasm yoki ramzlar orqali ifodalangan ma'lumotdir.

Yetkazuvchi – bu axborotni ommaga uzatadigan vosita, ya'ni media kanal hisoblanadi (gazeta, televideniye, internet va h.k.).

Iste'molchi – bu axborotni qabul qiluvchi, uni o'rganuvchi va tushunishga harakat qiluvchi shaxsdir.

Shu jarayonda axborotni qabul qilayotgan inson, ya'ni iste'molchi, zarar ko'rmasligi juda muhim. Axborot xolis va ishonchli bo'lishi kerak, aks holda u odamlarni noto'g'ri xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Oliy ta'lim tizimi bo'lajak pedagog kadrlarining mediakompetenligini rivojlantirishda Edvard Deming tomonidan amaliyotga joriy etilgan va "**Deming sikli**" deb nomlangan sikldan samarali foydalanilgan¹¹. Deming sikli (reja, bajarish, natija,

¹¹ <https://uz.techconfronts.com/17326179-shewhart-deming-cycle-stages-of-production-management>

hamkorlik) to'rtta bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos harakatlarni o'z ichiga oladi. Deming sikli ta'lim jarayonini boshqarishda sifatni doimiy ravishda yaxshilashni ko'zda tutadi. Tadqiqot doirasida Edvard Deming sifati doimiy ravishda takomillashtirish boshqaruv siklining variantlari taklif qilindi:

Reja bosqichida – vazifalarni tahlil qilish, Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari mediakompetentligiga qo'yiladigan malaka talablarini aniqlash, mediakompetentlikni raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish rejalashtiriladi. Bajarish bosqichi – bu bosqichda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan dasturiy vositalar, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha o'quv rejasi va fan dasturlari takomillashtiriladi, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar vositalari joriy etiladi, nazariy va amaliy dars ishlanmalari loyihalashtiriladi va ta'lim jarayoni tashkil etiladi.

Nazorat bosqichida – Questinlearning texnologiyasi asosida ta'lim metodikasi, takomillashtirilgan o'quv rejalari va fan dasturlarini qo'llagan holda malaka oshirish tizimida darslarni tashkil etish jarayoni nazorat qilinadi. Bunda tinglovchilarning faolligi, ta'lim jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi, kamchiliklar aniqlanadi. Harakat bosqichida – ishlab chiqilgan metodika asosida ta'lim jarayoni tashkil qilinadi va aniqlangan kamchiliklar bartaraf qilinadi. Ta'lim jarayonida kutilayotgan natijaga erishilgunga qadar, bosqichlar sikli davom ettiriladi.

Media va axborot savodxonligi 2007-yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushunchadir. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog'liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan, raqamli yoki texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Har bir dars bola qobiliyatining uchqunlarini alangalata oladigan kichik ixtiroday o'tishi zarur. Atrofdagi olam va o'zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o'quv faoliyatini g'aroyib va maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. Ijodiy fikrlash bir qancha tomonlari bilan tanqidiy fikrlashga yaqin. Shunga ko'ra Devid

Klusterning tanqidiy fikrlash haqida bildirgan qimmatli mulohazalaridan foydalanish mumkin.¹²

Birinchi bosqich (ongli ish) – tayyorgarlik, yangi g‘oyaning yalt etib paydo bo‘lishidan oldin bajariladigan alohida faoliyat holati.

Ikkinchi bosqich (anglab yetilmagan ish) – pishib yetilish, muammoni yechish ustida bajariladigan anglanmagan ish, yo‘naltiruvchi g‘oyaning inkubatsion davri.

Uchinchi bosqich (anglanmagan holatni anglangan holatga aylantirish) – ilhomlanish, anglanmagan ish natijasida ong doirasiga kashfiyot g‘oyasining dastlabki – gipotetik holda tushunilishi.

To‘rtinchi bosqich (ongli ish) – g‘oyani rivojlantirish, uni oxirgi ko‘rinishda rasmiylashtirish va tekshirish.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Dunyoda mediakompetentlikning ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO tavsiyalarida alohida ta’kidlanib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirish g‘oyasi qo‘llab-quvvatlangan. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda mediata’limni targ‘ib qilish madaniy-ma’rifiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etildi hamda aynan shu yo‘l bilan mediasavodxonlikni oshirish mumkinligi ta’kidlandi.

UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va mediasavodxonlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tashkilot, ayniqsa, siyosatchilar, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari, yoshlar tashkilotlari va ushbu sohadagi nochor aholi qatlamlarining salohiyatini oshirishga intiladi, a’zo davlatlarga milliy ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi siyosati va strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

Mediasavodxonlikni o‘rganadigan eng qadimgi tashkilot bu National Telemedia Council (Milliy Telemedia Kengashi) Viskonsin shtatining Madison shahrida joylashgan va Marieli Rou 50 yildan

¹² Клустер Д. Что такое критическое мышление? [Электронный ресурс] / Режим доступа: <http://testolog.narod.ru/Other15.html>

ortiq rahbarlik qilgan. Tashkilot dastlab “Telemedium” deb nomlanuvchi mediasavodxonlik jurnalini nashr ettirgan.

Bugungi kunda mediasavodxonlik bo'yicha butun dunyo mamlakatlarida keng targ'ibot va tashqivot olib borilmoqda. O'z qadriyat va an'alariga ega bo'lgan Osiyo mamlakatlarida mediasavodxonlik va uning ta'limga kirib kelishi jarayoni G'arb mamlakatlarinikidan biroz farq qiladi.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, “Media savodxonlik” (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Mediasavodxonlik indeksiga ko'ra, Finlandiya “yolg'on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat” sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o'rinni egallagan. Fransuz media-pedagoglari yoshlarning mediata'lim jarayonini rivojlantirishning faol tarafdorlari hisoblanadi.

CLEMI tashkilotchisi J.Gonnet fikricha, mediata'limning asosiy mazmuni, birinchi navbatda, fuqarolik ta'limi, demokratiyani o'rgatish bo'lishi kerak. J.Gonnet mediata'lim “shaxs bo'lish” muhim funksiyasini bajaradi, topshirilgan vazifa uchun mas'uliyatni, eksperimental izlanishni, erkin fikr bildirishni tarbiyalashga hissa qo'shadi, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlashni ochib beradi, deb hisoblaydi. CLEMI ijrochi direktori E.Bevorning fikricha, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi ommaviy axborot vositalari orqali sodir bo'ladi, buning uchun talabaga aloqa vositalari nima ekanligini, ular shaxsga qanday ta'sir qilishi, ular qanday ishlashini, media xabarlari qanday yaratilishi va tarqatilishini tushuntirish kerak.

Ayrim mamlakatlarda mediata'limni o'quv dasturlariga amaliy va me'yoriy tarzda qo'shimcha fan sifatida joriy etishga qaror qilingan. Bu fan ba'zi darslarning o'rnida yoki ularni to'ldiruvchi fan sifatida o'qitiladi. Shuningdek, darsdan tashqari vaqtlarda maktab gazetalari va jurnallari, radio eshittirishlari hamda audiovizual mahsulotlar yaratilgan. Bu jarayonda o'quvchilar mediadan foydalanishning turli

yo'llari bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishish imkoniyatiga ega bo'lganlar va o'zlarining amaliy tajribalarini oshirishgan.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko'ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to'g'ri savol bera olishdir. Bugungi kunda internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo'shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto'g'ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko'ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko'payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur, degan fikrlar ko'paymoqda.

Dunyoga mashhur "Oksford" lug'atida¹³ ushbu tushunchaga quyidagi 3 ta yo'nalishda ta'rif beriladi:

1. Turli media shakllarini bilish, tushunish va tajriba.
2. Turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kompetensiyasi va ular haqida tanqidiy fikr yurita olish.
3. Media qurilmalaridan foydalanish malakasi va malaka darajalari.

Aspen Media Literacy Leadership Institute tomonidan ushbu tushuncha turli shakllarda mediani yarata olish, tahlil qilish, baholash qobiliyati sifatida ta'riflanadi.

Shuningdek, AQSHning Media-savodxonligini oshirish milliy assotsiatsiyasi tomonidan media-savodxonlikka "Muloqotning barcha shakllaridan foydalanish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir. Bu odamlarga tanqidiy fikrlovchi va ijodkor, samarali muloqotchi va faol fuqarolar bo'lish imkoniyatini beradi" deya ta'rif beriladi.

Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda mamlakatda "mediasavodxonlik" tushunchasi "mediata'lim" tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab

¹³ "Oksford" lug'ati https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-uz.ru.1f363486-68834e9b-56872cb4-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Oxford_English_Dictionary

ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil UNESCO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Mediasavodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsa-da, respublikamiz umumta'lim maktablarida ham mediata'lim elementlari "Ona tili", "Adabiyot", "Tarix", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Informatika" va "Musika" fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda.

Fresno Tinch okeani universiteti ma'lumotiga ko'ra, "Mediasavodxonlik talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste'molchilari, shuningdek, o'z ommaviy axborot vositalarining mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishiga yordam beradi. Xuddi shu yo'nalishda mediasavodxonlikni o'rgatish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash turi oxir oqibat insonning ikkinchi tabiatiga aylanishi mumkin, bu ularga ulg'aygan sari ko'p sohalarda yordam beradi

Auditoriyada talabalarning media va yangiliklar savodxonligi ustida ishlashi o'z hayotining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo'lishiga yordam beradi. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallasada, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda. UNESCO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Umuman olganda mediata'limning shakllanishi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimiga kiritilishi, ommalashib borishi va pedagogikaning bir yo'nalishiga aylanishi evolyutsiyasini tadqiq

etish ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mamlakatimizda mediamadaniyatni rivojlantirishda mediata'limning o'rni va xorij tajribasini amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini bilib olish mumkin bo'ladi.

AQShda o'tgan asrning 20-yillarida mediata'limning ba'zi yo'nalishlari qaysidir darajada bor edi. Bir necha universitetlarda ixtisoslashgan fakultetlar tashkil etildi. AQShda mediata'lim bo'yicha bir necha katta assotsiatsiyalar bor. Vashington, Nyu-Meksikodagi Mediata'lim markazi (Center for Media Education), Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi (Center for Media Literacy), Shimoliy Karolinadagi "Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro" harakati, Nyu-Yorkdagi Ta'lim videomarkazi (Educational Video Center), San-Fransiskodagi "Mediasavodxonlik bo'yicha strategiya" (Strategies for Media Literacy) assotsiatsiyasi va Milliy alyans mediasan'ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalar.

Virjiniya universitetida tarix professori Jennings Vagoner AQSh tarixini o'rganadigan turli joylardan bir nechta boshlang'ich maktab sinflariga elektron pochta orqali Tomas Jeffersonga aylanadi. Nebraska shtati ta'lim departamenti va Omaxadagi Nebraska universiteti homiylik qilgan loyihada bakalavrlarga Sharqiy Nebraska boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchilari bilan o'qigan kitoblardagi bosh qahramonlar rolini o'ynash uchun elektron pochta orqali yuborildi. Mediata'limni AQShda "Mediasavodxonlik", "Axboriy savodxonlik", "Vizual savodxonlik" deb ham nomlashadi. Har bir terminning qo'llanilish o'rni ham mavjud. Masalan, "axboriy savodxonlik" ko'proq kutubxona, kompyuter va medianing raqamli turlari bilan bog'liq holda qo'llaniladi.

Fikrimizcha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediamadaniyatni shakllantirishda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish – mediata'limning asosiy mazmunini tashkil etishi lozim. Bunda auditoriya faqatgina passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Mediata'lim rivojlanishining asosiy bosqichi 1980–1990-yillarga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda internet va mobil telefonlar yangi kommunikatsiya kanallari sifatida jadal rivojlandi. Demokratik jarayonlar, ommaviy kommunikatsiyaning qulayliklari, axborot oqimini davlat yoki boshqa tashkilotlar

tomonidan nazorat qilishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, ularning keng omma orasida mashhurligi insonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Mediata'lim nafaqat tahdidlarga javob berish va medianing imkoniyatlaridan foydalanish vositasi hisoblanadi, balki undan turli, masalan, kiberbulling, uzoqlashish, irqchilik va tanholik kabi mavzularga diqqatni qaratishga ko'mak beradi. Bundan tashqari, mediata'lim media vositasida yoshlarning ushbu tahdidlarga qarshi kurashdagi ishtirokini kengaytirishga ko'maklashadi. Axborot resurs markazlari esa bunday mavzudagi munozara va bahslar uchun qulay makon bo'lib xizmat qiladi, chunki ular, an'anaga ko'ra, zarur mediavositalar, xususan, internetga ulangan kompyuterlar va o'yin konsollari bilan jihozlangan.

Jamiyatda mediasavodxonlik darajasi yuqori bo'lgan va mediasavodxonlikni targ'ib qilish bo'yicha yetakchi bo'lgan eng ilg'or mamlakatlardan biri Finlandiyadir. Jahon matbuoti erkinligi indeksi 2020 ma'lumotlariga ko'ra, Finlandiya 178 mamlakat ichida 2-o'rinni egallaydi. Finlandiya eng erkin ommaviy axborot vositalariga ega davlat ekanligidan tashqari, mamlakatda so'z erkinligi va turli tuzilmalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha qulay vaziyat mavjud.

Ma'lumki, Finlandiya barcha sohalarda rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Xususan, uning ta'lim tizimi jahonning ko'plab mamlakatlari bilan solishtirilganda ancha yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, mediata'lim va mediasavodxonlik masalalari bu davlatda yuqori ahamiyat kasb etgan. Finlandiyada mediata'limni targ'ib qiluvchi maxsus veb-sayt faoliyat yuritadi va ushbu sayt orqali keng jamoatchilikka maqsadli axborot yetkaziladi.

Bundan tashqari, mediata'lim maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim tizimida darsliklar va o'quv dasturlari tarkibiga kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Finlandiyada har bir fuqaro uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari yaratilgan va bu "Mediasavodxonlik hamma uchun" shiori ostida amalga oshirilmoqda.

Mediasavodxonlik – shaxsning mazmunli va ma'naviy boy hayot kechirishiga hissa qo'shuvchi muhim fuqarolik ko'nikmasi sifatida qaraladi. Finlandiyada mediata'lim faqat rasmiy ta'lim tizimida emas,

balki norasmiy ta'lim muassasalarida ham keng qo'llaniladi. Jumladan, mediata'lim maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, kutubxonalar, yoshlar tashkilotlari, muzeylar, davlat va jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, hamda milliy, hududiy va mahalliy darajadagi kompaniyalar faoliyatida ham o'z o'rniga ega.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlarda Finlandiya ta'lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. "Ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi tadqiqotida Yevropada Daniya va Finlandiya eng ilg'or mamlakatlar sifatida qayd etilgan bo'lib, bu mamlakatlarda mediasavodxonlik milliy siyosat bilan chambarchas va inson huquqlari hamda faol fuqarolik tushunchasi bilan puxta bog'langan.

Fin o'quvchilari hozirgacha ta'lim sifati bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Finlandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998-yil) Finlandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:

1. *O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish;*
2. *Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish;*
3. *Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.*

2017-yildan boshlab Finlyandiyada barcha maktablarda dars vaqtida ruchkadan foydalanish to'xtatilib, o'quv jarayoni to'liq kompyuter va planshetlar orqali amalga oshirilmoqda. Aynan shu omil ham mamlakatda media savodxonlikning yuqori, tizimli va keng qamrovli media ta'lim orqali rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Keng qamrovli media ta'lim deganda Finlandiyadagi mediata'limning mazmuni, maqsadli guruhlar, uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari hamda turli hududlar bo'yicha taqsimoti nazarda tutiladi.

Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri – yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlarga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

Mediatalim (Media Education) yetakchi ilmiy markazlar hamda ta'lim muassasalaridan xalqaro ta'lim, fan va madaniyat tashkilotlari

UNESKO, aloqalar va ma'lumotlar almashinuvi markazi (Centre de liaison de l'enseignement et des médias d'information, Fransiya), The University Southampton (Buyuk Britaniya), Institute für Film und Bild in Wissenschaft (Germaniya) hamda maxsus mediamarkazlar (Center for Media Education)da amalga oshirilmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qitishni mediatilim asosida tashkil etish va takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Xalqaro ilg'or tajribalarga ko'ra, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'limi mediatilim asosida ta'lim jarayonini amalga oshirishga doir pedagogik modellarni ishlab chiqish, o'qitishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ta'lim jarayonida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish alohida e'tirof etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish borasida xorijiy olimlardan Zhang, Qingyu, Mark A. Vonderembse, Mei Cao,¹⁴ Bell, Martin, Keith Pavitt¹⁵, Roco, C.Mihail va William Sims Bainbridge¹⁶ lar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Dunyo miqyosida mediata'limga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Jumladan, UNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar o'z rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'limning muhimligini alohida ta'kidlagan holda, uning rivojlanishini qo'llab-quvvatlamokda. Mediata'lim nafaqat elektron, bosma, grafik va boshqa turdagi ommaviy axborot vositalarini qamrab oladi, balki turli zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi.

Mediata'lim insonlarni quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishga yo'naltiradi:

1. Turli media-matnlarni tahlil qilish, ularni tanqidiy anglash va yangi materiallar yaratish qobiliyatini shakllantirish.

¹⁴ Zhang, Qingyu, Mark A. Vonderembse, and Mei Cao. "Achieving flexible manufacturing competence: the roles of advanced manufacturing technology and operations improvement practices". *International Journal of Operations & Production Management* 26.6 (2006): 580-599.

¹⁵ Bell, Martin, and Keith Pavitt. "The development of technological capabilities." *Trade, technology and international competitiveness* 22.4831 (1995): 69-101.

¹⁶ Roco, Mihail C., and William Sims Bainbridge. "Converging technologies for improving human performance: Integrating from the nanoscale." *Journal of nanoparticle research* 4 (2002): 281-295.

2. Mediamahsulotlar (matnlar, video va audio) manbalarini topish hamda ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy xususiyatlarini aniqlab, chuqur mazmunini tushunish.

3. Mediamahsulotlarni puxta tushunish va tahlil qilish.

4. Shaxsiy mediamahsulotlarni yaratish, ularni ommaga taqdim etish va maqsadli auditoriyaga ega bo'lish.

5. Olingan bilim va yaratilgan materiallar asosida hayot tarzini anglash va takomillashtirish.

Yevropa Ittifoqi hujjatlariga ko'ra, mediata'lim — bu ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar asosida o'z fikrini erkin va mas'uliyatli ifodalay oladigan fuqarolarni tarbiyalashga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Ushbu ta'lim turi mediaga nisbatan tanqidiy va ma'naviy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi hamda mediakompetentlikni rivojlantirishni maqsad qiladi.

Mediata'lim orqali fuqarolar zarur axborotdan samarali foydalanish, uni tahlil qilish hamda axborotga bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni aniqlash qobiliyatini egallaydilar.

Ilmiy ma'lumotlarni o'rganib, tahlil qilib, medialoglar media va mediatexnologiyalarni o'rganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga bo'lganlar: (I.2.1-rasmga qarang)

Dastlabki media — yozuv;

Bosma media — bosma nashrlar, litografiya, fotografiya;

Elektrik media — telegraf, telefon, ovoqli yozuv;

Mass-media — kinematograf, televideniye;

Raqamli media — kompyuter, internet.

I.2.1-rasm. Media va mediatexnologiyalarning turlari

Xorijiy mamlakatlarda o'n minglab maktablar, shuningdek, yurtimizda yuzlab maktablar zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya vositalarining imkoniyatlaridan bevosita ta'lim

jarayonida, ayniqsa, o'qitishda foydalanishni boshladi. Xalqaro konferensiyalarda turli mamlakatlarning nufuzli diplomatlari ishtirok etgan holda talabalar tomonidan ularning faoliyati va harakatlari modellashirilgan IDEALS loyihasi to'g'risida so'z yuritiladi. Masalan, ushbu loyiha okean resurslaridan foydalanish bo'yicha shartnoma matnini tayyorlash vazifasini o'z ichiga oladi.

Afsuski, AQShda ishlab chiqilgan va internet orqali faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim kompyuterlarining aksariyati Rossiyada noma'lum. Bunday loyihalarning asosiy kamchiligi shundaki, ular AQSh ta'limi an'analari – pragmatizm, amaliylik, yuzakilik va tizimning yo'qligiga moslashgan. Shu bois, ular Rossiya ta'lim tizimi va fan tarmoqlariga deyarli mos kelmaydi.

ISLU Amerika tadqiqotlari kafedrası professorlari amerikalik hamkasblari bilan birgalikda Amerikaning bir qancha universitetlari bilan masofaviy aloqa dasturini yaratish ustida ishlamoqda. Dasturning mohiyati rossiyalik va amerikalik talabalar o'rtasida ma'lumot almashishdir. Har ikki davlat uchun dolzarb va qiziqarli mavzular ro'yxati tanlab olingan. Talabalar internet orqali ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumot almashadilar, tahlil qiladilar, muhokama qiladilar va bir qator mashqlarni bajaradilar. Bularning barchasi talabalarning mustaqil ishi shaklida amalga oshiriladi. O'qituvchi saytga kirish va topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish imkoniyatiga ega.

Rossiyada ommalashgan multimediyaga oid monografiya muallifi I.Verner ham bu tushunchaga ta'rif bermaydi, faqat axborotni qayta ishlash va axborot jamiyatida inson va kompyuterning interaktiv o'zaro ta'sirida multimedia texnologiyalarining ahamiyatini qayd etadi.

“Kiril va Metyus” universal ensiklopediyasida multimedia kompyuter texnologiyasi sifatida ta'riflangan bo'lib, u bir-biriga bog'liq bo'lgan bir necha turdagi ma'lumotlarni (matn, tovush, fotosurat, chizma, animatsiya, video va hokazo) bir birlikka ulashni ta'minlaydi.

Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, “Mediasavodxonlik” (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va

baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat¹⁷.

Ingliz siyosatshunosi R.Kubey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi¹⁸. R.Kubey fikricha, mediakompetentlik- mediasavodxonlik (media competence/media literacy – turli shakllardagi xabarlarini (messages) qo'llash, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati¹⁹. M.Guetterz esa multimedia savodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi²⁰, deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir.

Keng ma'nodagi "media" tushunchasiga Maklyanning "Mediani tushunish" kitobida ta'riflab o'tgan. Kitobda "media vositalariga birgina axborot texnologiyalari emas, balki elektr nuri, nutq, yozuv, yo'llar, raqamlar, kiyim-kechak, uy-joy, shahar, pul, soatlar, matbaa, komikslar, kitoblar, reklama, g'ildiraklar, transport vositalari (velosiped, mashina, samolyot), avtomatik uskunalar, fotosuratlar, o'yinlar, matbuot, telegraf, yozuv mashinasi, telefon, fonograf, kino,

¹⁷ S.Fayrstoun. *The Women's Rights Movement in the U.S. : A New View*, an article first appearing in *Notes from the First Year* (New York: The New York Radical Women, 1968) https://www.cliohistory.org/fileadmin/files/click/Classroom/Jeanette_Rankin_Brigade/Notes_from_the_First_Year.pdf

¹⁸ Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) *Media Literacy in the Information Age*. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2

¹⁹ Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) *Media Literacy in the Information Age*. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.

²⁰ <https://muhaz.org/mavzu--media-muhitda-axloqiy-tamoyillar.html?page=4>

radio, televizor, qurol-yarog‘ va boshqa ko‘p narsalar’’²¹ni keltirib o‘tgan.

S.J.Baran tadqiqotlarida shunday qarashlar mavjud: “Mediamadaniyat tushunchasi – bu axborot jamiyati madaniyatining alohida turini aniqlash uchun kiritilgan zamonaviy madaniyatshunoslik nazariyasi mahsulidir, biroq yaqin vaqtgacha mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy va amaliy asarlarida “ommaviy axborot vositalari” (OAV) va “ommaviy kommunikatsiya vositalari” (OKV) kabi tushunchalar juda keng tarqalgan bo‘lib, G‘arb olimlarining tadqiqotlarida esa “mass media” atamasi tez-tez ishlatiladi’’²².

Bugungi kunda O‘zbekiston G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan ta’lim sohasida konstruktiv dialog olib bormoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha Buyuk Britaniyaning ilg‘or tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu avvalambor Buyuk Britaniyada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining Yevropada eng qadimiyligi bilan izohlanadi. Buyuk Britaniyada ko‘p yillar davomida oliy ta’lim tizimini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligini e’tirof etish mumkin. Bundan tashqari ushbu sohadagi nazariy va amaliy yondashuv hamda konsepsiyalarning rivojlanishi turli xil xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish orqali ta’minlanmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda rasmiy ta’lim tizimi bilan birgalikda respublikaning barcha hududlarida norasmiy va noformal axborot texnologiyalarini o‘qitish, ularda yoshlarni mediata’lim bo‘yicha testlar topshirishga tayyorlash yoki axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini o‘stirish markazlari ko‘plab ochildi va ular keng faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ko‘pchilik xorijiy davlatlarning elchixonalari qoshida ham mediata’lim o‘qitish markazlari ochilgan bo‘lib, ular istak bildirganlarni o‘z mamlakati tiliga o‘qita boshladi. Mana shunday til markazlari Germaniyaning DAAD, Koreyaning KOIKA, Yaponiyaning JICA, Isroilning MASHAW, Hindiston madaniyat markazi, AQShning EDUCATIONAL EXCHANGE

²¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/mediamadaniyat-tushunchasi-va-uning-xxi-asrda-tutgan-orni/viewer>

²² Baran S. J. (2002). Introduction to Mass Communication. – Boston-New York: McGraw Hill. – 535p.

PROGRAM, Buyuk Britaniyaning BRITISH COUNCIL kabi tashkilotlari, ularda tashkil qilingan resurs markazlar, madaniyat markazlari, kutubxonalar, internet materiallari, tyutorlik xizmatlari, stajirovkalar va xorijiy ellarga tanlov asosida o'qishga yuborish xizmatlari, shuningdek Xitoy, Fransiya va boshqa davlatlar elchixonalarida tashkil qilingan mediata'lim markazlari faoliyat olib bormoqda.

Stavroulakis Peter, Stamp Marklarning qarashlarida shunday fikrlar mavjud. "Media – ma'naviy mahsulotlarning virtual bozori. Bu bozorda hech kim molim yomon demaydi. Buzg'unchi, jinoyatchi, johillar ham o'z g'oya-mahsulotini "eng yaxshi buyum", deydi. Virtual olamda bunyodkorlik, taraqqiyot uchun zarur manbalar ham ko'p. Gap odamning ana shu bozor taklif etayotgan mahsulotlarni xarid qilishda adashmasligiga borib taqaladi. Bugungi tilda aytganda, gap mediamadaniyatni to'g'ri egallashida"²³ va undan oqilona foydalanishda ekanligi kelib chiqmoqda.

Tadqiqotchilar Manuel Peres Tornero va Tapio Varisning fikriga ko'ra, "kommunikatsion qadriyatlar global miqyosdagi media savodxonlikka integratsiya qilinishi lozim. Kommunikatsiya uchun xos bo'lgan yangi muvozanatni, global mas'uliyatning yangi axloqini va bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan qadriyatlarni chuqurroq anglash zarurati yuzaga kelgan".²⁴ Ular global media va axborot savodxonligi uchun quyidagi tizimni o'z ichiga oladi.

E.Y.Nikitina, A.A.Milyutinalarning qarashlarida shunday fikrlar mavjud:

Mediakompetentlik yuqori darajasiga ega bo'lgan shaxs uchun quyidagi xususiyatlar xarakterlidir:

- yangi ma'lumotlarni olish uchun harakat qilish (intilish);
- hayotining turli sohalarida o'z shaxsiy kompetentligini va har turdagi mediamadaniyat dunyosiga intilish;
- o'qish uchun zaruriy ilmiy materiallar izlap topish;
- media mahsulotlar bilan doimiy muloqotda bo'lish;

²³ Stavroulakis Peter, Stamp Mark. Handbook of Information and Communication Security. – 2010. – 178 p

²⁴ Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64

-media olamida mustaqil ravishda mediamatnlarni shakllantirish va tarqatish (mustaqil yoki guruh bilan birgalikda tayyorlash) malakasiga ega bo'lish;

-mediaga bog'liq bo'lgan (o'yinbop, badiiy, tadqiqot va. h.k) yorqin faoliyat yurita olish²⁵.

1982-yilda YUNESKO mediata'lim deklaratsiyasini qabul qilgan. Unga ko'ra, "mediata'lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovoqli, ekranli va boshqalar) va turli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan. U insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish kabi bilimlarni beradi.

YUNESKOning ta'rifiga ko'ra: "Mediata'lim zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo'yicha bilimning nazariya va amaliyotini o'rganishdir". Demak, mediadan qanday foydalanish dunyoqarashi va tafakkuri mediata'limning asosi hisoblanadi. Shu bois yoshlarda ham ta'lim jarayonida mediadan qanday oqilona foydalanish masalalarini tizimli tahlil etish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Oksford ensiklopediyasiga ko'ra, mediata'lim mediani o'rganishdir. Mediata'lim yaratilayotgan va tarqatilayotgan mediamatnlar bilan bog'langan. Ta'lim oluvchilarda mediamatnlarning mazmun-mohiyatiga izoh va baho berish uchun tahlil qila olish qobiliyatini shakllantiradi. Mediani o'rganish odatda amaliy tarzda, ya'ni mediamatnlar yaratish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Mediata'lim mediani o'rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Axborot (Informatsiya) termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nosini anglatadi²⁶.

Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o'rtasida og'zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma'lumot almashinish tushunilgan. "Informatsiya" tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Norbert Viner shunday yozadi: "Informatsiya

²⁵ Никитина Е.Ю., Милютин А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. Монография. – М., 2016 –С.202 .
https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_RU_NLR_BIBL_A_011163216/

²⁶ Nesterenko F.P., Irnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug'at-ma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. - T., Zar qalam, 2003. 48-b

bu tashqi olamdan olingan ma'lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning his-tuyg'ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi"²⁷. Ikkinchi tomondan "informatsiya" tushunchasi "ma'lumot bilan ta'minlangan, ya'ni axborot uzatish va uni ommaviylashtirish" ma'nosini ham anglatadi. Axborot – inson va jamiyat hayotidagi o'ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini ta'minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig'ish vositasi bo'lib, ular asosida inson va jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to'g'ri keladigan harakat yo'nalishini tanlashadi. Masalan, "ko'chada yomg'ir yog'yapti" degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, axborot bu – insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatlarini haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi.

I.3.Mediata'lim asosida talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish zamon talabi.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globallashtirish vaqtida o'z oldiga hamma bolalarni ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimni baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmoqda.

Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lim-tarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining

²⁷ Норберт Винер. Принципы международной журналистики и международный обмен информацией. –М., 1999. С.5

sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Hozirda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar, milliy ong, shuningdek, diniy qadriyatlar hamda turmush tarzining izdan chiqayotganligiga ko'z yumib bo'lmaydi. Eng yomoni bunday harakatlar natijasida yoshlar vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularidan yiroqlashib loqayd va manqurtga aylanib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

Ma'lumki, milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"²⁸gi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishidagi islohotlar, O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga kirishi, dunyo mamlakatlari bilan xalqaro aloqalarni kengaytirishi, Oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qitish tarmoqlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston sharoitida internetning shiddat bilan rivojlanishi, integratsiya jarayonlarining kuchayishi, axborot makonining globallasuvi madaniyatlararo aloqalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan kadrغا ehtiyoj tug'iladi. Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotganligi, ayni shu axborot xurujlariga qarshi yetarli immunitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli insonlarni

²⁸ O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son <https://lex.uz/docs/-3026246>

maydonga chiqarish, zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy funksiyasi ekanligi olimlarimiz tomonidan asoslab berilmoqda.²⁹

Oliy ta'lim talabalari millatlar va madaniyatlararo muloqotda to'liq ishtirok etish imkoniyatiga egadirlar. Bevosita oliy ta'lim talabalari ommaviy axborot vositalarining asosiy iste'molchilari hisoblanadilar. Ular axborot texnologiyalarini o'rganishlari jarayonida ijtimoiy tarmoq, media vositalariga eng ko'p murojaat qiladigan soha vakillaridir. Zamonaviy telekommunikatsiya tarmog'i bo'lgan internet o'rganuvchilarida madaniyatlararo muloqot qilish imkonini beradi. Bu oliy ta'limda AKT dan foydalangan holda ma'lumotni internet tarmog'idagi turli ilovalar orqali tez va qulay topish, o'zi egallayotgan sohaga tegishli yo'nalishda do'st topish, ular bilan doimiy virtual aloqada bo'lish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida talabadan mediata'lim, mediakompetentlik, mediasavodxonlik tamoyillari asosidagi bilimni talab etadi. Talabalar til o'rganish jarayonida turli mediamahsulotlar, reklamalar, yashirin motivatsiyalarga duch kelishadi. Lekin ular mediaxabarning yashirin ma'nosi, uning yaratilish motivlari va mexanizmlarini har doim ham tushunmaydilar.

Mediata'limdan ko'zlangan asosiy maqsad mediasavodxonlikni shakllantirishdir. Boisi, savodxonlikning aynan shu turi insonga axboriy maydonda televideniya, radio, video, kinematograf, matbuot, internet, umuman olganda, mediamadaniyatning tilini tushunishga, axborotlarni tahlil etish yo'li bilan qabul etishga, axborotlardan faol foydalanishga yordam beradi. Mediasavodxon odam sotsiomadaniy, siyosiy kontekstdagi medianing faoliyatini tahlil etish, baho berish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga elektron ta'lim vositalarining joriy etilishi, ulardan o'qish va bilim olishda foydalana olsa, kasbga qiziqish va fazilatlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Faxriddin Soliyevning "Internetdan foydalanish madaniyati" maqolasida shunday deyiladi: Global axborot makoniga real ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, hozirda keng jamoatchilikni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida "nosog'lom" manfaatlar, ziddiyat

²⁹ Muxammadiyev J.O'. Axborot xavfsizligi: muammo va yechimlar. – T., 2011. – B.167

va qarama-qarshiliklar ta'siridagi axborotlarning (o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 ming, axloqsiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar, kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik, o'ta jangari ruhdagi (beshafqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar va hokazo) Internet saytlari mavjudligi), milliy axborot makonimizga kirib kelishidir. Xalqaro elektr aloqa ittifoqining Jenevada 2015-yilning may oyi yakunida BMT Xalqaro uchrashuvining axborot jamiyati masalalari bo'yicha Forumda bergan hisobotiga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3,2 mlrd. odam internet xizmatlaridan foydalanadi, ulardan 2 mlrd. nafari rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Foydalanuvchilarning asosini esa yoshlar tashkil etadi. Internet world stats — nashrining ma'lum qilishicha, O'zbekiston Respublikasida mazkur ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 2015-yilning 15-noyabr holatida 450 ming nafarni tashkil etadi. Eng e'tiborli tomoni bu tarmoqdagi sahifalarning 8,7 foizi soxtadir.³⁰

Mediata'limni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad — yosh avlodda ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarni tanqidiy baholash qobiliyatini shakllantirishdir. Bu ta'lim turi yoshlarga turli manbalardan olingan axborotlar asosida mustaqil fikr yuritish, ko'rilgan film va teledasturlar yuzasidan o'z qarashlarini ifoda etish salohiyatini rivojlantirishni maqsad qiladi.

Aytish joizki, 2000-yil kuzidan boshlab Shvesiyada mediata'lim rasman milliy o'quv dasturiga kiritilgan. Ayrim davlatlarda mediata'lim amaliyotga qo'shimcha ravishda joriy etilgan bo'lib, u ba'zi fanlarning o'rnida yoki ular orasidagi mustahkamlovchi fan sifatida o'qitilishiga qaror qilingan. Ya'ni, bu darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi va o'quvchilar ishtirokida maktab gazetalari va jurnallari tayyorlanadi, radio eshittirishlar hamda audiovizual mahsulotlar yaratiladi.

Ushbu jarayonda qatnashuvchilar mediadan foydalanishning turli shakl va usullari bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'lishadi. Zamonaviy tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ta'lim faoliyati samaradorligi talabalarda shakllangan mediaga oid bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga bog'liq. Shu bois, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini

³⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

rivojlantirish muammosi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida mediata'lim muammolari S.Beknazarova,³¹ Y.Mamatova, S.Sulaymanova³² va boshqa bir qancha olimlar tomonidan o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi olimlar Y.Mamatova va S.Sulaymanovanning "O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida" nomli o'quv qo'llanmasida keltirilishicha, "media va axborot savodxonligi – "soyabon", ya'ni, bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YUNESKO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur.

B.Omonov ta'kidlaganidek: "Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi oqibatida tezkor sur'atlarda kengaygan globallashuv va mintaqalararo integratsiya davlatlar qurilishida yangi davrni boshlab berdi. Aslida globallashuv modernizatsiyalashuv jarayonini tezlashtirdi, desak xato bo'lmaydi. Negaki, globallashuv–umumiy, to'g'rirog'i, g'arbona umumiy g'oya atrofida birlashishdir"³³.

S.S.Babadjanov fikricha, mediata'lim yoshlarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma'naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada — mediata'lim tushunchasining paydo bo'lishi, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.³⁴

³¹ Бекназарова С.С. Моделирование основных характеристик экспертной медиаобразовательной системы // Институты развития человеческого потенциала в условиях современных вызовов: сборник статей XI Уральского демографического форума: в 2-х томах. — Том II. — Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2020. — С. 17-27.

³² Маматова Я., Сулайманова С., Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма.—Т.: «Extremum-press», 2015. — 94 б

³³ Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. — Т.: Университет, 1997. — 48

³⁴ Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. — Б. 24-25.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston o'zining maqbul yo'lini tanlab olgan, deya ta'kidlashar ekan. B.Umarov va Sh.Jabborovlar, bu yo'l odamlarni fikrini boshqarishni emas, balki ularda yuksak ma'naviylik tamoyillarini uyg'otish kerakligiga e'tibor qaratadi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa, deb bilishiga urg'u beradilar.³⁵ Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Biz uni kompyuter virusiga o'xshatamiz.

S.S.G'ulomov fikricha, mediasavodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi.³⁶ Demak, mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan unumli hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

F.R.Madraximova o'z tadqiqotlarida mediata'lim va mediasavodxonlik atamalarini quyidagicha sharhlaydi³⁷. Mediata'lim – bu maxsus pedagogik yo'nalish bo'lib, u ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishga o'rgatadi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi va axborot ortidagi yashirin ma'nolarni anglash salohiyatini rivojlantiradi. Bu ta'lim turi insonni axborot muhitida ongli harakat qilishga yo'naltiradi. Mediasavodxonlik esa insonning jamiyatdagi madaniy, ijtimoiy va demokratik jarayonlarda faol va mas'uliyatli ishtirokini ta'minlaydigan muhim omildir. Ushbu ko'nikma shaxsni axborot manbalari ta'siridan himoyalaydi, to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikka erishishga xizmat qiladi, shuningdek, milliy xavfsizlikning muhim poydevori hisoblanadi.

B.Umarov, Sh.Jabborov ilmiy tadqiqotlarida shunday qarashlar mavjud: "Umumyevropa hamda jahon tendensiyalarini o'zida

³⁵ Qosimova Z.Q. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2004. – 26 b

³⁶ G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq, 2000. 46 b

³⁷ Madraximova F.R. Mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari. Monografiya. – T.: ILM ZIYO ZAKOVAT, 2022. – 156 b.

mujassam etish orqali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha Angliya modeli milliy manfaatlarni saqlagan holda rivojlanib bormoqda³⁸

Shu bilan bog'liq ravishda, Sh.Sharipov shunday izohlaydi: Angliya tajribasini o'rganish nafaqat jahon miqyosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish borasidagi umumiy tendensiyalar haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo'lish, balki mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bilan tanishish hamda ushbu sohada qabul qilinayotgan milliy qarorlarni boshqa mamlakatlar amaliyoti bilan taqqoslash, ularning maqsadga muvofiqligini yaxshiroq baholash imkoniyatini beradi".³⁹

Pedagogika fan sifatida madaniyatshunoslik bilan tobora chambarchas birlashib bormoqda, yangi pedagogik tushunchalar paydo bo'lmoqda: mediata'lim, mediamadaniyat, mediakompetentlik, media savodxonlik, mediapedagogika, media texnologiyalar, media matnlar, mediaidrok va h.k. Talabalar mediamadaniyatini rivojlantirish muammosiga qaratilgan tadqiqotimiz asosini zamonaviy pedagogik ta'limning madaniy paradigmasi tashkil etadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda madaniyatshunoslikka oid yondashuv talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish zarurligini belgilaydi. Bu, birinchi navbatda, bugungi kunda jamiyatda sodir bo'layotgan zamonaviy axborotlashtirish jarayonlari nafaqat shaxsiy kommunikatsiyada ko'rinadigan o'zgarishlarga, balki butun madaniyat tizimida tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishi bilan bog'liq. Bu, umuman, tez o'zgarib borayotgan dunyo manzarasiga ta'sir qiladi, chunki zamonaviy ta'limga axborot texnologiyalari, bilimlarni o'zlashtirishning masofaviy shakllari, loyiha faoliyati, san'at asarlarining elektron variantlari va boshqalar yopirilib kirmoqda.

Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan o'quvchilar kognitiv faoliyatni tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda kognitiv

³⁸ Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari. -T.: "Akademiya", 2011. 156-b

³⁹ Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. -T., 2012. - 46 b

faoliyatning turli qirralari yoritilgan bo'lsa-da, ularda kognitiv faoliyatni motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos.

Chunonchi, R.Safarova o'quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o'zlashtirish ehtiyojiga ko'ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o'quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta'kidlagan⁴⁰.

A.Hamroyev boshlang'ich sinf ona tili ta'limi sharoitida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini kuzatib, uni an'anaviy ta'lim metodikasidan farqli o'laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga rag'bat, layoqati va qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab berdi⁴¹.

G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning kognitiv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv materiali va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab berildi⁴².

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida kognitiv faoliyatga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'lim samaradorligi 92% kognitiv faoliyatni motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsa-da tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi.

Motivlashtirish – (lotincha moveo – harakatlantiraman, siljitaman degan ma'nolarni anglatadi) bu o'quvchilarni samarali kognitiv faoliyatiga, o'quv materiali mazmunini faol o'zlashtirishga yo'naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiy nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o'qituvchi ham,

⁴⁰ Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. - Toshkent: "Science and innovation, 2023 B. 190

⁴¹ Hamroyev. A.R., Po'latov Y.A. Onatili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent- 2021. B-385

⁴² Najmiddinova.G. Trends in the development of visual literature and graphic journalism in Uzbekistan-journal of media and communications IN ..., 2024 2024 yil iyun MARKAZIY OSIYODA MEDIA VA ALOQA XALQARO ILMIY JURNALDOI: 10.62499/ijmcc.vi6.46 https://www.researchgate.net/publication/381656970_TRENDS_IN_THE_DEVELOPMENT_OF_VISUAL_LITERATURE_AND_GRAPHIC_JOURNALISM_IN_UZBEKISTAN

o'quvchilar ham o'z qo'llarida tutib turadilar. O'qitish faoliyati nuqtayi nazaridan qarasak, ta'limni motivlashtirish, o'qish faoliyati nuqtayi nazaridan qarasak, kognitiv faoliyatni motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o'zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda, shaxsni u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi. Hozirgi vaqtda "Mediamadaniyat" tushunchasiga juda ko'p sonli ta'riflar mavjud. Shaxsning mediamadaniyati bir qator tarkibiy qismlarga ega: (I.3.1-rasmga qarang)



I.3.1-rasm. Shaxsning mediamadaniyati tarkibiy qismlari

Mediamadaniyatning barcha ushbu tarkibiy qismlari insonning shaxsiy fazilatlari yig'indisiga asoslanadi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- motivatsion (axborot faolligi yo'nalishini belgilovchi maqsad va motivlarni tavsiflaydi);

- intellektual va kognitiv (atrofdagi voqelikni idrok etish, baholash, tahlil qilish imkonini beradi);
- kommunikativ (axborot almashinuvi va muloqot normalarini tavsiflaydi);
- hissiy-irodaviy (shaxsning axborot faoliyati natijadorligini aniqlaydi).

Bizning fikrimizcha, insonning mediamadaniyatiga kelajakdagi mediajamiyatda samarali rivojlanish imkonini beruvchi g'oyalar, qobiliyatlar, bilimlar yig'indisi sifatida qarash kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz “mediamadaniyat” tushunchasiga quyidagi ta'rifni berdik: **mediamadaniyat** – axborot jamiyati madaniyatining alohida turi bo'lib, u turli manbalardan (radio, televideniya, gazeta, telefon, internet, og'zaki va yozma kommunikatsiyalar, mish-mishlar) olinadigan ma'lumotlarni idrok etish va ular bilan o'zaro munosabat qilish jarayonida shaxsning media vositalari orqali olingan ma'lumotlarni qidirish, tadqiq qilish va tahlil qilish, uni tanqidiy baholash, turli janrdagi media matnlarini yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladigan bilimlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari va xulq-atvor reaksiyalari to'plamidan iboratdir.

Zamonaviy yoshlar, ayniqsa, talabalarning axborot madaniyati axborotni tayyorlash jarayonida qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalariga asoslangan axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda zamonaviy mediata'limning ajralmas qismi bo'lgan mediasavodxonlikning rivojlanishi axborot texnologiyalarini takomillashishi bilan emas, balki yangi ilmiy ta'limiy axborot manbalarining ko'payishi bilan belgilanmoqda. Yoshlarning bilim olishlarida MySQL, EBSCO, eLibrary, JSTOR, ProQues, Emerald kabi ilmiy ta'limiy resurslardan oqilona foydalana olishlarini axborot almashinuvining ijobiy tomonlari sirasiga qo'shishimiz mumkin⁴³.

Shunday qilib, biz xulosa qilishimiz mumkinki, axborot madaniyati umumiy madaniyatning emas, balki ko'proq darajada kasbiy madaniyatning ko'rsatkichidir, ammo vaqt o'tishi bilan u har bir shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanishi mumkin, shuningdek “axborot madaniyati” tushunchasi insonlar

⁴³ Раҳимова Ш. Ёшларда ахборот алмашинуви маданиятини ривожлантириш истиқболлари// INFOLIB, №1, 2020. № 1. – Б. 29-33. Ахборот-кутубхона журнали <https://einfolib.uz/>

hayotining axborot jihati bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyat qirralaridan birini tavsiflaydi, shuning uchun, bizning fikrimizcha, “axborot madaniyati” va “mediamadaniyat” tushunchalari bir xil emas, ular ma’lum o‘xshashliklari bilan bir qatorda tub farqlarga ham ega.

Jahonda kasbiy ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish, o‘quv-metodik resurslarni yaratish, ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ta’lim tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mediakompetentlikni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda mustaqil o‘qish imkonini yaratadigan videokontentlar, audio va videomateriallar, raqamli ta’lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarning istalgan joydan masofaviy ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda axborotni tahlil etmay, o‘z holicha qabul qilish oqibatida dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo‘l urmoqda, o‘zini kino asari qahramoni sifatida his qilganlar esa, qahramon xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo‘llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo‘lishmoqda. Masalan, respublikamiz telekanallari orqali efirga uzatilgan “Jumong” serialidan so‘ng yosh bolalarning o‘zini “Jumong” his qilib, qo‘lida “qilich” bilan urisha boshlaganliklari, AQShda jangari filmlar va kompyuter o‘yinlarini ko‘rgan maktab o‘quvchilari haqiqiy qurol bilan sinfdoshlari va ko‘chadagi begunoh odamlarni otganliklari haqidagi xabarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda terrorchilik guruhlar tomonidan internet orqali jihodga chaqirgan, “jannat” va’dasini o‘zida mujassam etgan axborotlari yoshlar ongiga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish bugun zamon talabidir.

M.R.Fayzievaning fikriga ko‘ra, Rossiyada nashr etilgan “Pedagogikaning qomusiy lug‘ati”da mediata’lim quyidagicha ta’riflangan: “o‘quvchilarga ommaviy kommunikatsiyani o‘rgatishga yo‘naltirilgan pedagogikaning bir yo‘nalishi”⁴⁴. Turli ta’riflarda

⁴⁴ Fayziyeva M.R. O‘quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratish. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. ... Avtoref. – T., 2017. – 45 b.

mediata'limning mazmuni o'zgarasdan qoladi va ulardan ko'rinib turibdiki, bu sohaning asosini mediakompetentlikni shakllantirish tashkil etadi.

Hozirgi kunda Rossiya ta'lim tizimida turli bosqichlarda multimedia texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish va ulardan foydalanish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish va o'zini o'zi o'qitish mexanizmlarini tubdan yangilash zarurligini tobora teranroq anglamoqdalar.

Ta'limda multimedia texnologiyalarining imkoniyatlari kengayib borayotganini his etgan holda, ular bu vositalardan samarali va keng ko'lamda foydalanishga intilishmoqda. Albatta, bu jarayon oxir-oqibat Rossiya maktabida zamonaviy, moslashuvchan va samarali ta'lim paradigmasiga bosqichma-bosqich o'tishga xizmat qiladi.

Kelgusi yillarda Rossiya ta'lim tizimida eng talab yuqori bo'ladigan yo'nalishlardan biri – kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim berish usullari bo'ladi. Bu texnologiyalar an'anaviy ta'lim shakllarini telekommunikatsiya orqali qo'llab-quvvatlashga asoslanadi hamda o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan jamoaviy ta'lim loyihalari shaklida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, ayrim tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlarni umumlashtirish tendensiyasi tobora kengayib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, mediakompetentlikni quyidagicha ifodalash mumkin: bilimdon va ongli yoshlar axborot oqimidan o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Ular ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan materiallarni "ma'naviy filtr" – ya'ni mafkuraviy immunitet orqali qabul qilishadi. Bunday yoshlar media matnlardagi targ'ibot, bir yoqlama yondashuv va axborot tarqatuvchining maqsadini farqlay oladi.

Mediakompetentlik aynan shunday tanqidiy qarashni shakllantirish orqali insonni axborot manipulyatsiyalaridan, ya'ni aldamchilar ta'siridan asraydi.

Zamonaviy dunyo – bu jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydigan axborot olami. XXI asr odamiga har daqiqada turli ma'lumotlar kerak bo'ladi. Multimedia vositalari koinotning istalgan nuqtasidan turli xil ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Talabalarning multimedia

ustuvorliklari ularga nafaqat vaqt, pul va makonni tejash, balki yanada mustahkam bilim olish imkonini beradi. O'quvchilarning turli multimedia vositalaridan foydalangan holda axborotni tanlash, qabul qilish, uzatish ko'nikmalarini shakllantirish, olingan xabarlariga adekvat munosabatda bo'lish, zombi va keraksiz ma'lumotlardan himoyalaniish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mediata'limga ehtiyoj bor.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning multimediya sohasidagi nazariy ishlarini tahlil qilish shuni xulosa qilish imkonini beradiki, multimedia texnologiyasi ta'lim sohasida keng qo'llaniladi, chunki multimediyaga asoslangan axborotlashtirish vositalari o'rganish samaradorligini oshiradi. Ta'lim tizimidagi nisbatan yangi hodisani ifodalovchi multimedia imkoniyatlari to'liq o'rganilmagan. Hozirgacha multimediani o'rganish va o'quv jarayonida qo'llash muammosining ayrim jihatlari quyidagi asarlarda o'z aksini topgan: o'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish va hokazo.

A.A.Kozirev ilmiy izlanishlarida shunday ta'riflar keltirib o'tgan: "Axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat nomini olgan jamiyatning shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda bunyodkor g'oyalar bilan birga, insoniyat hayotini buzadigan turli vayronkor g'oyalar ham tarqalmoqda".⁴⁵

A.Jurin fikricha "Mediasavodxonlik" esa ko'proq televideniya, ijtimoiy faollik va ommaviy madaniyat bilan bog'liq holda ishlatiladi.⁴⁶

E.I.Passov fikricha, "Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas."⁴⁷

A.N.Leontevning farazlarida "axborotni eng avval bera olgan, doimo haq bo'ladi degan qarash mavjud"⁴⁸. Zero, dunyoga tarqatilayotgan 80% axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda.

⁴⁵ Козырев А.А. Информационные технологии в экономике и управлении. Из.во: Михайлова, Санкт-Петербург, 2000, -С. 57

⁴⁶ Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. С. 32.

⁴⁷ Пассов Е.И. Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. М. «Просвещение», 2000 г. - 173с

⁴⁸ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с

Bu ularning xohlagan axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi. Rus pedagogikasida multimedia tushunchasi XX asrning 90-yillarida paydo bo'lgan va o'qituvchilar tomonidan darhol qabul qilinmadi. Ta'lim va multimedia muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy bo'limlar yaratildi. O'tgan davr mobaynida multimedia tushunchasi ibtidoiy ta'lim dasturlarini yaratishdan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va yangi samarali o'quv qurollarini shakllantirishgacha rivojlandi, to'ldirildi va kengaytirildi. Sotsiologlar V.I.Siforov va A.P.Suxanovlarning ta'kidlashicha, o'rtacha hisobda hozirgi zamonda "madaniylashgan inson" 75 yil yashaydi, mana shu umrning taxminan 50 yilini esa uxlamasdan faol tarzda o'tkazadi va rosa to'qqiz yilini televizor ko'rishga sarflaydi. Demak, yoshlarda media materiallaridan foydalanish dunyoqarashini oshirish bilan birga mediamahsulotni uzatish imkoniyatiga ega bo'lgan har bir insonda mediamatn yaratish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bugungi kunda bu vazifa bilan mediata'lim shug'ullanmoqda. Zero, "Media va boshqa axborot xizmatlari (kutubxonalar, arxivlar va Internet) butun dunyoda mavjud axborotning to'laligidan kelib chiqqan holda insonlarga qaror qabul qilishga ko'mak beradi. Bundan tashqari, ular jamiyat o'zi haqidagi haqiqatni bilishi, aholi bilan bo'ladigan muloqotni qo'llab-quvvatlovchi va shu orqali u bilan birlashgan holda maqsad sari borishi mumkin bo'lgan vositadir"⁴⁹.

Shu bois jamiyatda mediata'limni rivojlantirish, bu orqali insonlarda mediasavodxonlikni shakllantirish, medianing axboriy ta'siriga tushib qolmaslikka o'rgatish, o'qitish muhim va ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlashga doir ta'limiy-tashkiliy ishlarni qayta ko'rib chiqish, yangicha kurash mexanizmlarini yaratish, o'quvchilarda va talaba-yoshlarda mediamadaniyatni shakllantirishga yangicha yondashuvni olib kirish talab etiladi.

Multimedia – bu audio, video va matnli ma'lumotlarni qayta ishlash va taqdim etishda foydalaniladigan vositalar hamda kompyuter texnologiyalaridir.

⁴⁹ Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64.

S.Novoseltsev o‘zining “Multimedia – uch elementning sintezi” asarida multimediyani “harakatsiz tasvirlar va harakatlanuvchi video, animatsion kompyuter grafikasi va matn, nutq va yuqori sifatli ovoz bilan ishlashni ta’minlaydigan interaktiv tizimlar” deb hisoblaydi. Multimedyaning ushbu ta’rifiga e’tibor qaratgan foydalanuvchi axborot bilan ishlashda o‘quvchining barcha retseptorlariga ta’sir qiluvchi hodisaning interaktiv xususiyatini ta’kidlaydi. Uch elementning sintezi ostida muallif ovoz, matn va grafika, videoning kombinatsiyasini anglatadi.

I.V.Grigoreva shunga e’tibor qaratganki⁵⁰, shaxs rivojlanishi muammosi faqat kasbiy ta’lim doirasida emas, balki insonning doimiy ijtimoiylashuvi amalga oshadigan axborot muhiti bilan o‘zaro aloqasi asosida ham qaralishi kerak. U bu masalaning ham nazariy, ham amaliy jihatdan hozirgi kunda juda dolzarb ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

N.A.Sidorinaning yondashuvi multimedia vositalarining jozibadorligi bilan nafaqat ta’lim motivatsiyasini oshiradi, balki talabalarning media kompetentligini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi,⁵¹ degan fikri o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

MDH olimlari tomonidan mediata’lim mazmuni, ustuvor tamoyillari, uzluksiz ta’limning turli bosqichlarida shaxs tomonidan media mahsulotlarni samarali o‘rganish, talabalarda mediasavodxonlikni shakllantirish, ta’lim mazmuniga media mahsulotlari g‘oyalarini singdirish masalalari L.Zaznobina⁵², G.Onkovich⁵³, Fedorov⁵⁴, Ye.Nikitina⁵⁵, A.Milyutina⁵⁶,

⁵⁰ Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиатедеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270

⁵¹ Сидорина Наталия Александровна. Социально-педагогическое сопровождение развития одаренности подростков в детском оздоровительном лагере : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 Кострома, 2006 226 с. РГБ ОД

⁵² Зазнобина Л.С. Медиаобразование в школе: как же выжить в мире СМИ. № 1, 1999 <http://vivovoco.astronet.ru/VV/PAPERS/MEN/MEDIA.HTM>

⁵³ Онкович Г. В. Векторы развития современного медиаобразования // Журналистика и медиаобразование — 2010 / Под ред. А. П. Короченского, М. Ю. Казак. Белгород: Изд-во БелГУ, 2010. С. 296—302. (рус.)

⁵⁴ Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информация для всех. 2007. – С. 616.

⁵⁵ Никитина, Е.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: монография. – М.: МАНПО, 2006. – С. 154. Никитина, Е.Ю.

A.Veryayev⁵⁷, V.Protopopovalar⁵⁸ mediata'limni tashkil etish bo'yicha katta tadqiqot ishlarini olib borgan.

Psixologlar (I.A. Zimnaya⁵⁹ va D.B. Elkonin⁶⁰) kognitiv faoliyatni tahlil qilib, uning beshta asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatganlar:

1. Bu faoliyat, avvalo, o'quv materiallarini o'zlashtirish va o'quv muammolarini hal etishga qaratilgan bo'ladi.

2. Unda bilim va faoliyatning umumiy usullarini egallash muhim o'rin tutadi.

3. Kognitiv faoliyat talabani turli faoliyat turlarini qamrab oladi. Jumladan:

- idrok (ovoz va tasvir orqali o'quv materialini qabul qilish),
- mnemonik (yodlash) faoliyat,
- aqliy jarayonlar (tahlil, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va hokazo),
- amaliy faoliyat (muammolarni hal etish, tajriba o'tkazish, grafik va hisob ishlari, kompyuterda ishlash va boshqalar).

4. Faoliyat natijalari o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga – masalan, xarakteri, qobiliyati, xotirasi, tafakkuri, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir qilib, ularda o'zgarishlar ro'y berishini ta'minlaydi.

5. Kognitiv faoliyat, shaxs rivojlanishi nuqtai nazaridan, insonning o'zi ustida ishlash va o'zini rivojlantirish jarayonini rag'batlantiradi.

D.B.Elkonin o'quv faoliyatining quyidagi ijtimoiy xususiyatini ta'kidlab o'tadi:

-mazmuni bo'yicha, chunki u insoniyat tomonidan to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zlashtirishga qaratilgan;

Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: перспективные подходы: монография. – М.: МАНПО, 2006. – С. 154.

⁵⁶ Милютин А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка. Монография. – М., 2015. 202 С.

⁵⁷ Веряев А.А. Семиотический подход к образованию в информационном обществе: Монография – Барнаул, 2000. 298 С.

⁵⁸ Протопопова, В.В. Медиакомпетентность современного педагога [Текст] / В.В. Протопопова // Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы и перспективы: В 2-х т. Т.1.

⁵⁹ Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. — Издание второе, дополненное, исправленное и переработанное. — М.: Издательская корпорация "Логос", 2000. — 384 с. — URL: <https://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=9945>.

⁶⁰ Эльконин Д. Б. Э-53 Избранные психологические труды. — М.: Педагогика, 1989. 560 с.: ил. — (Труды д. чл. и чл.-кор. АПН СССР)...." [Источник: [https://psychlib.ru/mgppu/eit/EIT-001-.HTM#\\$p1](https://psychlib.ru/mgppu/eit/EIT-001-.HTM#$p1)].

-ma'nosi bo'yicha, chunki u ijtimoiy ahamiyatga ega va baholanadi;

-shakli bo'yicha, chunki u ijtimoiy rivojlangan aloqa standartlariga mos keladi va ta'lim muassasalarida (maktablar, kollejlari, universitetlar va boshqalar) amalga oshiriladi.

Aynan talabalik davrida nafaqat jismoniy, balki psixologik xususiyatlar va aqliy funksiyalar: idrok, e'tibor, xotira, fikrlash, nutq va his-tuyg'ular rivojlanishida maksimal darajaga yetadi.

"Mediata'lim" so'zi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari hududiga o'tgan asrning 80-yillarida kirib keldi. Inglizcha "media education" so'zini shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish yaramaydi. U matndagi o'rniga ko'ra turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Shunga qaramay, mediata'limning tayanch tushunchasini aniqlab olishimiz kerak.

A.A.Jurin ularni uch turga bo'lgan. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat a'zolariga ta'sirini o'rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan.⁶¹

Tadqiqotchi olim A.V.Sharikov mediata'lim masalasida quyidagi savollarni o'rta tashlaydi va o'zining munosabatini bildiradi: "Dunyo axboriy jarayonida muhim o'rin tutayotgan media nima? Uning qanday nazariy asoslari mavjud? Zero, istalgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslari bor. Bugungi kunda mediata'lim bo'yicha o'ndan ortiq konsepsiyalar yaratilgan bo'lsa-da, uning turli yo'nalishdagi pedagogik tajriba to'planmasini yaxlit holga keltiruvchi yagona nazariyasi mavjud emas"⁶² Lekin shu bilan birga, mediata'lim nima uchun kerakligiga aniqlik kiritish, uning ko'ptarmoqli pedagogik faoliyatdagi o'rnini ko'rsatish, maqsadi, vazifalari, konseptual asoslarini aniqlash bo'yicha ko'plab izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Rus tadqiqotchisi A.V.Bolotnov o'zining "Информационные волны и их типы в современном медиадискурсе: к постановке

⁶¹ Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. С. 32.

⁶² Sharikov A.V.. CLEMI (1996). L'Actualite' et les medias ` a l'ecole primaire, au college et au licee. Paris: CLEMI, 120 p p.12.

проблемы”⁶³ deb nomlangan maqolasida axborot to‘lqinlarining uch turini farqlaydi:

1. Jamiyatga ta’sir darajasiga ko‘ra, *kuchli va kuchsiz to‘lqinlar* farqlanadi. Kuchli axborot to‘lqinlari amaliy yechimlarga olib keladi.

2. Media makonida ularning mavjudligi davomiyligiga asoslanib esa, *uzoq va qisqa to‘lqinlarga ham ajratiladi*.

3. Axborot to‘lqinlarining uchinchi turi *kumulyativ rezonans, kaskad, voronka, prizma* kabi tarzda tarqalish shakliga ega va tabiati jihatidan boshqalaridan ajralib turadi.

Ukrainalik pedagog olim S.M.Sterdenko mediamadaniyati yuqori kishini mana shunday tasvirlaydi: “Uning mediabog‘lanishlari soni va davomiyligi rejalashtirilgan bo‘ladi. O‘ziga kerakli axborotni to‘g‘ri tanlay oladi. Axborotga tanqidiy yondashadi, chunki u medianing zararli ta’sirlarini biladi, qarshisida ochilgan mediamatnni o‘z filtridan o‘tkazib, keyin qabul qiladi. Mediamahsulotdan foydalanishda axloq me’yorlariga amal qiladi” va o‘zining hayot tarzini uning ta’siriga tushib qolmagan holda yarata oladi.

Media xurujlari vaziyatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z-o‘zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish lozim:

Birinchidan, har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mustaqil fikrga ega bo‘lishi muhim. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan talabagina o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

Ikkinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini turli yot va bemaza media xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g‘ururni tarbiyalashimiz va bunda fanlararo hamkorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Milliy g‘urur – talabaning yoshiga mos ravishda o‘z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma’naviyati, iqtisodiyotida qo‘lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo‘lishga, ularni boyitishga intilishini

⁶³ Болотнов А. В. Информационные волны и их типы в современном медиадискурсе: к постановке проблемы.: к постановке проблемы // Вестник ТГПУ. 2015. № 6 (159). 102-106 с. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-volny-i-ih-tipy-v-sovremennom-mediadiskurse-k-postanovke-problemy/viewer>

o‘z ichiga oladi. Milliy g‘ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega talaba noto‘g‘ri g‘oyalarga, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo‘lmaydi.

Uchinchidan, milliy g‘ururi bor insonda iymon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog‘liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o‘ynaydi. “Internet shunday o‘rmonki, unda kompassiz yurib bo‘lmaydi”. Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to‘plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Media rivoji hozirgi davrdagi yuksak salohiyatli kadrlarni tarbiyalashdagi g‘oyaviy kurashga o‘ziga xoslik bag‘ishlamoqda. Bu, jumladan, ma’lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtayi nazaridan yetkazilishida yoki ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma’lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlarning ma’naviy idrokini susayishtirishga intilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga bu o‘ziga xoslik jamiyat a’zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirishga, ularning muhokama obyektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko‘rinadi. Medianing mafkuraviy jarayonlar rivojiga o‘ziga xos va kuchli ta’sir o‘tkazayotganini quyidagi misolda ham ko‘rish mumkin. Ma’lumki, bugungi kunda internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo‘g‘ini hisoblanadi.

Bugungi kunda aksariyat yoshlar bo‘sh vaqtlarini internet-klublarda o‘tkazib, u yerdan rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Bu esa bir tomondan yoshlarning ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlarni yaratsa, ikkinchi tomondan bu tizim orqali kirib kelayotgan milliy mafkuramizga yot bo‘lgan g‘oyalar ular ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.⁶⁴ Bugun telefon orqali kompyuterga ulanib dunyoning xohlagan burchagidagi insonlar bilan muloqotda bo‘lish va o‘ziga kerakli axborotni olish mumkin.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo‘lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan media faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi.

⁶⁴ Джалилова С.Х. Психологические особенности личностной профессионализации студентов педагогического вуза: Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 1994. – 134с

Mediata'lim asosida talabalarni tarbiyalab voyaga yetkazish targ'iboti haqida gap ketar ekan, eng avvalo, g'araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirlar, mamlakatimiz hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga xolis yondashuv bayrog'i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi obyektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish masalasi dolzarb bo'lib turganini alohida qayd etish zarur. Shunday vaziyatda har xil shakl-u shamoyilda chiqayotgan bunday urinishlarga qarshi fuqarolarimiz hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini zamonaviy bilim olishlariga, dunyo madaniyati va ma'naviyatining sarchashmalaridan bahramand bo'lishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, T.Yaglom fikricha, "Bugungi axborot xurujlari avj olgan davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, ming yillar davomida yuksak qadriyatga aylangan, mehr-oqibat, ibo-hayo, kattaga hurmat-kichikka izzat kabi an'analarimizdan yoshlarni og'diruvchi ayrim noxush holatlar ham ko'zga tashlanmoqda"⁶⁵.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o'z iqtisodiy manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar. Afsuski, aksariyat hollarda yoshlarni bosqichma-bosqich milliy o'zligidan ayirish, milliy an'analari va urf-odatlariga zarba berib, tarixiy xotirasini qirqish, shu orqali millatlar ustidan hukmronlikka erishish tamoyili kuchaymoqda. Bugungi kunda axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqalmoqda. Darhaqiqat, M.A.Usmanova qarashlarida, internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri, o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini beruvchi katta informatsion magistral hisoblanadi.⁶⁶ Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Axborot inson hayotiga turli yo'nalishlar orqali ta'sir o'tkazadi. Axborot asrida "mavhumlashuv" yuz bermoqda, ya'ni axborot -

⁶⁵ Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. – СПб(6): Питер, 2000. – 190 с

⁶⁶ Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Т.: Университет, 1997. – 48

qudratli vositaga aylanib butun dunyoni tashvishlantiradigan muammolarni kelib chiqishiga turtki bo‘lmoqda.⁶⁷

Axborot asrida internetdan axborot tarqatish va qabul qilish oddiy hol bo‘lib qoldi. Internetda “kiberterrorizm” vujudga kelgan. Bu esa ayrim shaxslar o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda agressiv maqsadda axborot xurujini uyushtiradi. O‘z navbatida bu globallashuv sharoitida turli axborot tizimlari va texnologiyalari orqali axborot xuruji va ommaviy madaniyat tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.⁶⁸

Internet orqali tarqalayotgan axborot xuruji ajdodlarimizdan meros bo‘lgan milliy qadriyatimizga ham ta’sir ko‘rsatadi. Milliyligimizni saqlab kelayotganimiz uchun, mustaqil davlat bo‘lib dunyoga tanilayotganimiz sababli ayrim davlatlar global tarmoq orqali axborot xurujini uyushtirishga harakat qiladi.

I bob bo‘yicha xulosa

Insoniyatning bugungi avlodi bugun dunyoda globallashuv jarayonlari tig‘izlashgan, axborot almashinuvi jadallashgan, uning mazmuni tinimsiz yangilanib va ko‘lami jadal kengayib borayotgan davrda yashamoqda. Aksariyat olimlar zamonaviy globallashuv jarayonini axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bog‘lashmoqda. Mediata’lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatish, talabalarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Mediata’limni rivojlantirish — ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mediata’lim pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o‘rin tutadi.

Bugun talabalarni axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalana olish kompetentligini rivojlantirishimiz shu bilan birga turli xil viruslardan yani noto‘g‘i ma’lumotlardan foydalanishdan olib chiqishimiz zarur. Bu viruslar odamlar ongini zaharlab ularda shahvoniy nafsni uyg‘otadi. Mazkur holatlar bugungi kunda ba’zi

⁶⁷ Omonov B. Globallashuv va siyosiy yangilanish//. – Tafakkur-2012. 3-son B. 112

⁶⁸ <https://president.uz/oz/lists/view/856>. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi

yoshlarning qiziqqonligi va internetda ko'p ishlashi ularning tarbiyasiga va ma'naviyatiga juda katta ta'sir etishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlarimiz qalbida va ongida milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini o'zida mujassam etgan, xalqimizning erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi maqsad va muddaolarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish yo'lida uyushtiradigan ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'usini shakllantirish lozim. Shu bilan birga ta'lim jarayonida mediata'limdan foydalanish kompetentligini oshirishda ularning zamonaviy ta'limning yondashuvlariga xos tarzda shakllantirish talab etiladi.

II BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA‘LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

II.1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata‘lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish omillari

Buguni kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat media muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hodisalar telekommunikatsiya vositalari hamda axborot texnologiyalari tizimlarining jadal rivojlanishi sharoitida yuz berib, bu jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruv sohasida axborot-telekommunikatsiya jarayonlari va turli darajadagi axborot omillari yig‘indisini tayanch nuqtaga chiqarmoqda. Bunday vaziyatda talaba-yoshlarda mediamadaniyatni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Ularda mediamakonga moslashish, mediasavodxonlikni oshirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta‘lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi kognitiv (bilish) ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, bu jarayonda muhim o‘rin tutadigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z kasbiy tayyorgarligi mobaynida bu kompetensiyalarni chuqur egallashi va ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq eta olishi zarur.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda didaktik imkoniyatlar – ya‘ni ta‘lim mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari va o‘qituvchining pedagogik yondashuvi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy didaktik yondashuvlardan samarali foydalanish, ularning kognitiv salohiyatini oshirish bilan birga, boshlang‘ich ta‘lim sifatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

Hozirgi zamon ta‘lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilar ekan, ayniqsa boshlang‘ich ta‘lim bosqichida ta‘lim sifati va samaradorligi o‘qituvchining bilim

darajasi, pedagogik mahorati hamda kognitiv (bilish) faoliyatining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv faoliyat kategoriyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ta‘lim tizimi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yuqori darajadagi kasbiy va intellektual tayyorgarlikni talab etadi. Bu tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri – kognitiv faoliyatni rivojlantirishdir. Kognitiv faoliyat – bu shaxsning bilim olish, anglash, xotirada saqlash va ularni qayta ishlash jarayonidir. Bo‘lajak pedagoglar uchun bu jarayonlarni chuqur anglash va o‘z faoliyatlarida samarali qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Didaktika” so‘zi yunoncha “didaktikos” so‘zidan olingan bo‘lib, bu so‘z “o‘rgatuvchi”, “ta‘lim beruvchi” degan ma‘noni anglatadi. Didaktika – bu o‘qitish va o‘rganish jarayonlari haqidagi ilmiy ta‘limot, ya‘ni ta‘lim mazmuni, shakli, metodlari va prinsiplarini o‘rganuvchi pedagogikaning muhim bo‘limi. U “o‘qituvchi nima o‘rgatadi?”, “qanday o‘rgatadi?”, “o‘quvchi qanday o‘rganadi?” kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktik imkoniyatlar – bu ta‘lim jarayonida muayyan material, usul, texnologiya yoki vositaning o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning fikrlash, tushunish, tahlil qilish kabi aqliy (kognitiv) faoliyatini rivojlantirish borasidagi pedagogik salohiyatidir. Shuningdek, u ma‘lum bir ta‘limiy vosita yoki usul “nimani o‘rgatishi mumkin?”, “qanday natija berishi mumkin?”, “qanday bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi?” va “qanday tarzda o‘quvchining faolligini oshiradi?” – degan savollarga javob beradigan o‘qitish potensialidir.

Mediata‘lim – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, audiovizual vositalar, raqamli platformalar va internet manbalaridan foydalangan holda ta‘lim berish usulidir. U an‘anaviy ta‘limni to‘ldiribgina qolmay, uni interaktiv, multimodal va talabalarining faol ishtirokini ta‘minlovchi jarayonga aylantiradi. Mediata‘lim vositasi sifatida quyidagilar xizmat qiladi:

1. Videodarslar (YouTube, Khan Academy, Coursera va b.).
2. Interaktiv platformalar (Moodle, Google Classroom, Edmodo).

3. Onlayn testlar va viktorinalar (Kahoot, Quizizz).
4. Multimedia qurilmalari (audio, infografika, animatsiya).
5. Podkastlar, vebinarlar, AR/VR texnologiyalari.

Media ta'limning ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari nihoyatda keng:

Ko'p kanalli o'rgatish imkoniyati – mediata'lim bir vaqtning o'zida audio, video va visual axborotni yetkazish imkonini beradi. Bu esa ma'lumotni eslatish, tushunish va qayta ishlash qobiliyatini oshiradi. Individual va moslashuvchan o'rganish – mediata'lim vositalari (mobil ilovalar, onlayn platformalar) orqali har bir talaba o'z individual tempida bilim olishi mumkin.

Teskari aloqa (feedback) imkoniyati – onlayn testlar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, guruhli muhokamalar orqali talabalar o'z bilimini mustaqil baholaydi, muallimdan tez fikr oladi. Real vaqtda interaktivlik – vebinarlar, video konferensiyalar, onlayn darslar orqali talabalar real vaqtda savol berish, muhokama qilish va izohlash imkoniga ega bo'ladi. Bilimni vizual va kontekstual tarzda yetkazish – multimedia va animatsiya orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirib, vizual misollar asosida o'rgatish osonlashadi.

Mediata'lim orqali talabalarning kognitiv faoliyati quyidagi jihatlar orqali faollashadi: Qabul qilish va diqqat – animatsiya, videokontent va infografikalar diqqatni tortadi, e'tiborni jamlaydi. Eslab qolish – audio-video materiallar orqali eshitish va ko'rish xotirasi mustahkamlanadi. Tushunish va tahlil qilish – interaktiv slaydlar, infografikalar ma'lumotni tartibga solishga yordam beradi. Muammo yechish – simulyatsiyalar, case-metod va interaktiv topshiriqlar orqali mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Ijodiy fikrlash – media kontent yaratish (video, infografika, prezentatsiya) orqali ijodkorlik faoliyatlari rivojlanadi.

Mediata'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mediata'limning asosiy vazifasi – o'zini mustaqil rivojlantira oladigan va shaxsan mustaqil harakat qiladigan shaxs sifatida ularning mediakompetentligini rivojlantirishga imkoniyat yaratishdir. Mediata'lim - odamlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami hisoblanadi. Mediata'lim iste'molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, mediata'lim - bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llay olish qobiliyatidir.⁶⁹

Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda mediata'lim ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi professor-o'qituvchi va talabaning birgalikdagi amaliy faoliyati sanaladi. Ta'limning ommaviy axborot vositalarining madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi va media axborotlari bilan samarali ishlash ko'nikmasini shakllantiruvchi qismi hisoblanadi.

“Ommaviy kommunikatsiya va axborot kanallari insonning hayoti davomida bilim olishga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham nafaqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar, balki barcha

⁶⁹ Cynthia Vinney. “Very well mind”. What Is Media Literacy? (2022-yil 12-yanvar).

fuqarolar ham media va boshqa axborot xizmatlari bilan qay tarzda ishlashni va ularni qay tarzda to'g'ri baholash lozimligini bilishi zarur. Media va axborot savodxonligining vazifasi esa aynan ushbu bilimlarni foydalanuvchilarga yetkazib berishdan iboratdir". Shubhasiz, mediata'lim OAV va kommunikatsiyaning pedagogik aspektidagi bir qismi sanaladi. Uning nazariy asoslarini pedagogika va media haqidagi fanlar majmuasi tashkil etadi. Amaliy jihatdan esa uning asosida pedagog va talaba faoliyati natijasida medialashgan dunyoga insonni tayyorlash majburiyati yotibdi.

Mediata'lim nafaqat pedagogika va badiiy tarbiya bilan, balki bir nechta gumanitar bilim sohalari, masalan, san'atshunoslik (kinoshunoslik, teatrshunoslik), adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix (dunyo madaniyat va san'ati tarixi), psixologiya (san'at, badiiy tarbiya, ijodkorlik psixologiyasi) bilan chambarchas bog'langan.

Hozirgi vaqtda global kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini, shu jumladan, ilm-fan hamda oliy ta'lim sohasini ham qamrab olgan. Internetning rivojlanishi va o'quv jarayonini soddalashtiradigan ko'plab kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalaridan foydalanishni sezilarli darajada o'zgartirib, haqiqiy manbalarni izlash va tahlil qilishni tezlashtirdi.

Tadqiqot ishining mazkur qismida mediata'lim orqali mediamadaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, uni rivojlantirish vazifalari, maktab va oliy ta'limda mediasavodxonlikni oshirish, uning salbiy ta'siriga qarshi kurashish, media vositasida kirib kelayotgan turli yot g'oyalar, madaniy o'ziga xosliklar va odatlarga ongli munosabatni yuzaga keltirish masalalari tadqiq etilgan. Shu bilan birga oliy ta'limda mediamadaniyatni shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish, axborot xavfsizligiga qarshi kurashish, g'oyaviy tahdidlarni oldini olishga doir tahlillar keltirilgan.

Shaxs faoliyatining barcha jabhalarida xalqaro aloqalarning kengayishi, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlardan avvalgiga nisbatan erkinroq foydalanish, axborot-kommunikatsiya vositalarining barcha sohalarga keng joriy etilishi har bir insondan faoliyati jarayonida mediata'limdan foydalanishni talab etadi. O'quv jarayonida mediata'limdan amaliy foydalanish bizning davrimizda nafaqat yaxshi ta'lim belgisi, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma‘lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi media savodxonlikka ega bo‘lish zaruratini yanada oshirdi. An‘anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan.

Bugun mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o‘ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko‘rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko‘rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir.

Respublikamizda ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta‘lim, jumladan, oliy ta‘lim tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish talaba-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mediakompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta‘minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. (II.1. 1-jadvalga qarang).

Kasbiy kompetentlik	Mafkuraviy kompetentlik	Boshqaruv kompetentlik	Mediakompetentlik
Kasbiy kompetentlik muayyan fan bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakaga	Mafkuraviy kompetentlik – g‘oyaviy jihatdan aniq maqsadi bor, o‘z irodasi, iymon-e‘tiqodi,	Boshqaruv kompetentligi – o‘qituvchining darsni boshqarishi, sinf jamoasini boshqarish	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi (pedagog) mediakompetentligi – matbuot vakolatlari, uning

egaligi	vijdoni, qarashlariga egaligi, yot mafkuralarga qarshi kurasha olishi	uchun didaktik, psixologik, metodik, texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishi	sabablari, bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga mediata'lim bilimlarini targ'ib qilishi
---------	--	--	---

II.1.1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentlik turlari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, pedagogik-psixologik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. Agarda "medikompetentlik" tushunchasining kelib chiqishga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Ma'lum bir mediakompetentlikni o'zlashtirgan shaxs deganda o'z sohasiga loyiq bilim va malakasi shakllangan, ijobiy fikr va samarali harakat qila oladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur nazar tashlasak, "mediakompetenlik" – shaxsning ma'lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan harakatlarning o'zaro bog'liq sifatleri yig'indisi, "mediakompentetililik" insoning harakatiga mos kompetentlikni o'zlashtirish.

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilayotgan kurslar kun sayin takomillashib bormoqda. Bu holatda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va uning dasturiy ta'minotini yaratish hamda mazmun bilan to'ldirish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi aniqlandi:

1. Raqamli texnologiyalar va mediata'lim uyg'unligini ta'minlash, bunda androgog ta'lim beruvchi o'zining o'quv faoliyati davomida ta'lim oluvchilar uchun raqamli texnologiyalar asosida

media muhitni yaratishi, ularning mediasavodxonligini oshirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni joriy qilishi, raqamli texnologiyalar yutuqlaridan ta'lim berish jarayonida samarali foydalanishiga e'tibor qaratish zarur.

2. Global internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish va axborotlarni farqlay olish – bunda mediakompetentlikning ushbu tuzilmasi ta'lim beruvchi tomonidan global tarmoqda mavjud axborotlarni qidirish, topish va ularni sintez qila olish, topilgan axborotlarni farqlay olish hamda ta'lim oluvchilarga to'g'ri yetkazib berishga e'tibor qaratiladi.

3. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirish – bunda ta'lim beruvchi media ta'lim berish sharoitida kreativlik, ijodkorlik va novatorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ta'lim berish jarayonida yangi texnika va texnologiyalarni har qanday auditoriyaga moslashi va ulardan oqilona foydalana olishi muhim sanaladi.

4. Mediakompetensiyalarni rivojlanganligini darajalarga ajratish – bunda mediata'lim jarayonida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini aniqlashga qaratiladi. Chunki ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning mediakompetensiyalarni rivojlanganlik darajalariga qarab ta'lim jarayonini tashkil etadi.

5. Ilm-fan taraqqiyoti strategiyasidan boxabar bo'lish – bunda mediata'lim muhitida faoliyat yuritayotgan har qanday ta'lim beruvchi sohada yuz berayotgan ilm-fan yangiliklari, kashfiyotlar hamda yutuqlaridan boxabar bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatiga joriy eta olishiga harakat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati bo'yicha televideniye birinchi, internet ikkinchi, radio va matbuot nashrlari uchinchi o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniya, jamoatchilik onggi hamda shaxsning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Raqamli teleradio xabarlari, internet amalda qo'llanila boshlagach, bozorning bu tomonida ham raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Yoshlar elektron pochtdan foydalanib, salomatlik, ruhiy rivojlanish va shaxsning taraqqiy etishiga ta'sir etadigan zararli axborotga ega turli saytlarga erkin murojaat etadilar. Kompyuter texnikasining takomillashuviga ko'ra, elektron pochta bo'yicha multimedia mahsulotini ko'rib chiqish, yaratish va uzatish yanada

qulaylashadi. Axborot maydoni shunchalik kengayib bormoqda va boshqaruv hamda nazorat doirasidan chiqib ketmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining kishilar ongi, ruhiyatiga ta'sir etish va ongni boshqarishdagi imkoniyati juda katta. Shuning uchun uni bejizga to'rtinchi hokimiyat deyilmaydi. Bu mutlaqo texnik nayranglar emas. Hatto, to'liq ishonchlidek ko'ringan axborot ichida yashirin tahdid yotishi mumkin. Shu bois, mediamadaniyatni shakllantirish orqali targ'ibotning salbiy ta'siridan aziyat chekish holatlarini oldini olish mumkin bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kognitiv faoliyatga tayyorlash media, mediatexnologiyalar, mediata'lim bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bu jihatlar davlat ta'lim standartlari mazmunida ham o'z ifodasini topgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kognitiv faoliyatga tayyorlash doirasida media, mediamanbalar, media vositalardan ta'lim natijalariga erishish uchun didaktik vosita sifatida qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Har bir media vositasining didaktik imkoniyatlari hamda ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini bilishi hamda faoliyati doirasida maqsadli foydalana olishi lozim bo'ladi.

Mediata'limning imkoniyatlari va uni pedagogik amaliyotga tadbiq etish zarurati ortib bormoqda. Fanning mazmuni, mashg'ulot turi, shaklidan kelib chiqqan holda mediata'limning funksional imkoniyatlaridan foydalana olish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kognitiv faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kognitiv faoliyatga tayyorlash doirasida ta'lim oluvchilarning mediata'limini rivojlantirishda uning mazmuni, mohiyati hamda amaliy texnologiyalarini bilishi kerak.

Mediadan, media manbalardan, media vositalardan o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy mas'uliyatni his etgan holda foydalanish talabalardan bilim, ijtimoiy tajriba, tahliliy fikrlashni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya, dam olish, hordiq chiqarish, ijtimoiy muloqotda mediadan foydalanishda ijtimoiy me'yorlarni bilishi, amal qilishi shaxsda mediata'limning rivojlanganligi ko'rsatkichlaridan biridir. Medianing shaxsiy rivojlanishidagi o'rnini sifatida o'z shaxsiy qobiliyati va istedodini rivojlantirishdagi vosita ekanligini keltirish mumkin.

Insonni axborot jamiyatida yashashga axborot orqali tayyorlash muammosi an'anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat va eng avvalo, xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turadi. YUNESKO media va axborot savodxonligi rivojlanishiga ko'maklashadi va uni "inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun zamin" deb hisoblaydi. Media va axborot savodxonligi – bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir. Xo'sh, mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo:

- huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;

- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;

- axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;

- insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni "o'qiy olish";

- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

- axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir⁷⁰.

Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi

⁷⁰ N.Qosimova. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan.

Bugungi axborot bilan to'yingan jamiyat va chegarasiz axborot almashinuvi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilimliligi va mediasavodxonligi masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini yanada oshirdi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim va ayniqsa mediata'lim butun dunyo miqyosida keng qo'llanilayotganligi bois ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bunday ta'lim turlaridan barcha sohalarda samarali foydalanishga qaratilgan bir qator say'i-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Mediata'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Mediata'lim – bu insonlarni mediamahsulotlar bilan to'g'ri va ongli muomala qilishga o'rgatuvchi ta'limiy jarayon bo'lib, u quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1. Muloqot madaniyatini shakllantirish;
2. Kommunikativ imkoniyatlarni rivojlantirish;
3. Tanqidiy tafakkurni o'stirish;
4. Mediamatnni to'liq qabul qilish, tushunish va talqin etish (interpretatsiya);
5. Mediamatnni tahlil qilish va unga baho berish qobiliyatini rivojlantirish.

Mediasavodxonlik insonga ekranli san'atni: televideniya, radio, video, kinomotograf, pressa, matbuot, internet va boshqalarni taqdim etadi.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi.

Mediata'lim sohasida faoliyat yuritish uchun shaxs quyidagi muhim ko'nikma va salohiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. **Nazariy bilimlar va axborotlardan xabardorligi:**
 - maxsus ravishda yo'naltirilgan mediata'lim sohasida chuqur nazoriy bilimlarga ega bo'lish;

- zamonaviy axborot vositalari, trendlar va texnologiyalar bo'yicha eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish;
- ta'lim jarayonida yuqori darajada motivatsiyalanganlik.

2. Faoliyat turlari bo'yicha ko'nikmalar. Talaba yoki o'qituvchi quyidagi faoliyat turlarida samarali harakat qila olishi kerak:

- aqliy faoliyat – tahlil qilish, baholash, tanqidiy fikrlash;
- vizual faoliyat – tasviriy axborotni qabul qilish va talqin etish;
- sensor faoliyat – his etish, tajriba orqali qabul qilish qobiliyati;
- audio faoliyat – eshitish orqali axborotni anglash va qayta ishlash qobiliyati.

3. Metodik ko'nikmalar va media axborotga ijodiy yondashish:

- media manbalarni tanlash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalari;
- media axborotni ijodiy yondashuv asosida qabul qilish;
- axborot manbalarining kelib chiqish sabablari, sharoitlari va ta'sir mexanizmlarini o'rganish va tahlil qilish;
- media sohasidagi **tashviqot va ta'sir o'tkazish** usullarini bilish va ulardan foydalanish;
- turli yechimlardan eng optimal natijani tanlay olish qobiliyati.

4. Kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyati. *Mediata'lim faoliyatida shaxs quyidagi ijodiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:*

- mobillik – tez o'zgaruvchi sharoitlarga moslasha olish;
- kommunikativlik – turli auditoriyalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati;
- o'ziga xoslik – standart bo'lmagan, noan'anaviy yondashuvlarni ishlab chiqish;
- tasavvur va fantaziya – media mahsulotlar yaratishda kreativ g'oyalarni ilgari surish.

Samarali mediata'lim faoliyati nafaqat axborotni qabul qilish va tarqatish bilan cheklanadi, balki uni chuqur anglash, tahlil qilish, ijodiy qayta ishlash, tanqidiy baholash va ta'sirli muloqot qilish salohiyatini talab qiladi. Shu sababli, mediata'lim sohasidagi mutaxassis barcha yuqorida keltirilgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Hozirgi vaqtda ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar maktablarda ona tilini o'qitishga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, o'quv jarayoniga internet resurslari, o'quv kompyuter dasturlari kabi yangi

axborot texnologiyalari jadal joriy etila boshlandi. Bizning zamonamizda AKTdan foydalanishning dolzarbligini ta'kidlash kerak, chunki biz 80-yillarning o'rtalarida boshlangan va hali ham o'sish sur'atida davom etayotgan axborot, kompyuter inqilobi asrida yashayapmiz. AKT – bu axborotni to'plash, qayta ishlash va ulardan foydalanish uchun birlashtirilgan usullar va dasturiy ta'minot va texnik vositalar to'plami. AKT hayotimizga va ona tilini o'rgatish jarayoniga jadallik bilan kiritilmoqda. Hukumat siyosati yaqinda maktablarda axborot texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida kompyuter mexanik o'qituvchi emas, o'qituvchining o'rnini bosuvchi yoki analogi emas, balki bolalarni o'qitish, uning kognitiv faoliyati imkoniyatlarini oshirish va kengaytirish vositasidir. Kompyuter o'qituvchining kundalik ishlarida asosiy ulushini oladi va unga vaqt ajratadi. Kompyuterdan foydalanishning afzalligi shundaki, u o'qituvchining kasbiy saviyasini oshirish imkonini beradi. Yangi leksik birliklarni o'zlashtirish, o'qish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, obyektiv nazorat qilish uchun imkoniyatlar yaratish, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda u yoki bu tarzda yuzaga keladigan psixologik qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishda kompyuterning yordami katta. Yuqorida aytilganlarning barchasi ona tilini o'rganishga qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi, shuningdek, boshlang'ich sinfda o'rganilgan materialni mustahkamlash, o'qitish uchun me'yordan ortiq har qanday vazifalarni bajarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

“2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-sonli Farmonida, Xalq ta'limi vazirligiga multimedia ilovalarini ishlab chiqish talabi qo'yilgan, unga ko'ra maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali multimedialar berib borilishi aytib o'tilgan. 2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan. Mutaxassislar tomonidan tayyorlangan elektron resurslar o'quvchilarning bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Mavzular yuzasidan shakllantirilgan multimedia mahsulotlari, o'qituvchiga ko'makchi, ota-onalarga yo'l ko'rsatuvchi, o'quvchiga esa bilimlarni mukammal o'zlashtirish imkonini beradi.

Multimedialar orqali o‘quvchilar o‘zlariga mediata’lim beradilar. Turli mamlakatlarning ko‘plab olimlari “media muhiti”, “media madaniyati”, “media ta’limi”, “media savodxonlik” kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o‘tishgan.

Mediata’lim doirasi keng va xilma-xil bo‘lishi mumkin. Mediata’lim turli darajalarda targ‘ib qilinishi, o‘rgatilishi, rivojlantirilishi va amalga oshirilishi mumkin. Umumiy ta’lim tizimi mediata’lim uchun asos yaratadi, chunki u barchaga bu bilimlardan teng foydalanish imkoniyatini beradi. Mediata’lim ta’lim va madaniyat, transport va kommunikatsiyalar, ijtimoiy muammolar va sog‘liqni saqlash kabi ma’muriy sohalarni qamrab oladi. Mediasavodxonlik siyosatini amalga oshirishda asosiy e’tibor odamlarning turli ehtiyojlariga qaratiladi, ularni qondirish uchun eng zarur va maqbul tadbir va harakatlar tanlanadi.

Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan (ya’ni, keng ommaga qiziq va kerak bo‘lgan) axborotga ega bo‘lgan shaxs yoki axborot tashuvchisi hisoblanadi.

Mediasavodxonlik siyosatini ishlab chiqishda uning ko‘lami, maqsadlari va istiqboli turlicha bo‘lishini yodda tutish kerak. Masalan, mediasavodxonlik siyosati xalqaro va milliy shakllarda uchraydi. Mediasavodxonlik siyosati o‘quv rejasining, shuningdek, davlat dasturining bir qismi ham bo‘lishi mumkin. Mediasavodxonlikni sohalar kesimida ko‘rsa bo‘ladi, masalan, kutubxonalar, ta’lim va yoshlar bilan ishlashdagi mediasavodxonlik kabi. Bundan tashqari, hududiy darajadagi mediasavodxonlik siyosati ham bo‘lishi mumkin.

Demak, mediasavodxonlik, jumladan, munitsipalitetlar darajasida turli shakllarda, ya’ni tadqiqotlar, so‘rovlar, intervyular, saytlarni ishlab chiqish, maslahatlar shakllarida ham targ‘ib qilinadi.



[//https://youtu.be/iwIOZ22kxIk?si=10NUMvKeVmkIJAVR](https://youtu.be/iwIOZ22kxIk?si=10NUMvKeVmkIJAVR)

Q.R-kod orqali multserial bir qismini tomosha qilib unda yashirin motivlarni payqab guruh bilan muhokama qilish.

Axborot tarqatish texnologiyalarini o'rganishda **“axborot to'liqini”** tushunchasi muhim hisoblanadi. “Axborot to'liqini – bu axborotni tarqatish demakdir. Bu ommaviy axborot vositalarining maqsadli auditoriyasi bilan munosabatiga bog'liq. Agar voqelikka nisabatan jamiyatning munosabati bo'lmasa, unda axborot to'liqini ham bo'lmaydi”⁷¹.

Jamiyatni raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish sharoitida yoshlar va kattalarning har tomonlama xavfsizligini ta'minlashga, feyk ma'lumotlarga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ma'muriy jihatdan ushbu masala allaqachon tegishli qonunlarni joriy etish va huquqni muhofaza qilish organlarining ishi orqali hal qilinib kelinmoqda.

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga boshlang'ich ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.⁷²

O'quv jarayoni tashkilotchilari oldida nokasbiy mediata'limning fanlar zamonaviy tasnifidagi o'rni ham jumboq bo'lib turibdi. Masalan, mediata'limni oliy ta'lim o'quv rejasining qaysi blogiga qo'shish kerak? Uni ko'pchilik umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga, bir nechta jurnalistika yoki jamoatchilik bilan aloqalarga qo'shish kerak, degan fikrni bildirishadi. Shu bilan birga, uni tabiiy fanlarga, informatika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari fanlari blogiga qo'shib bo'lmaydi. Fikrimizcha, mediata'lim tamoyillaridan kelib chiqqan holda, uni ijtimoiy fanlar sirasiga kiritish to'g'ri bo'ladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimidagi islohotlar negizida axborot texnologiyalarini o'qitishni ham tubdan

⁷¹ М.О.Зырянова. – Текст : непосредственный // Общество, социология, психология, педагогика. – 2020. – № 6 (74). – С. 80. – ISSN 2221- 2795. – eISSN 2223-6430.

⁷² N.Qosimova. <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

takomillashtirishga doir ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali mediata'limni puxta egallagan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini yaratish maqsad qilinmoqda. Shu bilan birga xorijiy tajribalar bilan tanishish, o'rganish va milliy xususiyatlarga moslay oladigan keng dunyoqarashli o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlash tizimini rivojlantirish maqsadi ham axborot texnologiyalarini o'qitish ko'lamini kengaytirish uchun asos bo'ldi. Bunday vaziyatda mediata'limni o'rganuvchi insonlar uchun yangicha talablar va mas'uliyat yuklanadi. Chunki mediata'limni o'rganishda axboriy xurujlarga duch kelish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ayniqsa axborot texnologiyalarini o'rganuvchilar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari media mahsulotlaridan ko'p foydalanishlari bu jarayonni tezlashtirib yuboradi. Shu bois, talaba-yoshlarda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediamadaniyatni shakllantirish orqali informatsion tahdidlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini isloh qilishda axborot texnologiyalarini o'rganish borasida ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda talabalarning mediata'lim bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimi zamonaviy talablarga javob bermay qolayotganligi, o'qitish asosan an'anaviy metodlar bilan olib borilayotganligi kuzatilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ta'limining izchilligi va tizimlilikini ta'minlash, o'quv jarayoniga va bugungi kun talablariga javob beradigan pedagogik, metodik hamda axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z ustida muntazam ishlashi natijasida kasbiy malakalarini doimiy takomillashtirib borish, kasbiy faoliyatlarida zamonaviy asbob uskunalarni bilishlari axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lish kerakligini talab etadi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelmoqda. Bu jarayon nafaqat texnik bilimlarga, balki ularga yangicha, chuqur va zamonaviy yondashuv talab etilishiga olib kelmoqda. Shu bois, jamiyatimiz a'zolari, ayniqsa, yosh avlod axborot texnologiyalarini nafaqat foydalanish, balki ularning mohiyatini anglash, tahlil qilish va undan samarali foydalanishga tayyor bo'lishi lozim.

Axborot texnologiyalarini bilishning ustunliklari:

1. Bozor iqtisodiga mo'ljallangan tez o'zgaruvchan ochiq jamiyat sharoitiga integratsiyalashuv imkoniyatlari.

Axborot texnologiyalari insonga globallashuv sharoitida faol ishtirok etish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlariga tez moslashish imkonini beradi. Bu esa raqobatbardosh va ochiq jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun muhim omil hisoblanadi.

2. Jahon sivilizatsiyasi va madaniyati bilan birlamchi manbalar asosida tanishish imkoniyati.

Axborot texnologiyalari orqali inson turli davlatlar, madaniyatlar va xalqlar tarixi, adabiyoti, san'ati va fan yutuqlari bilan asl, ishonchli manbalar orqali bevosita tanisha oladi. Bu esa uning bilim doirasini kengaytiradi va dunyoqarashini boyitadi.

3. Xalqaro mehnat bozorida ish topish imkoniyati.

Zamonaviy raqamlashgan dunyoda axborot texnologiyalarini bilgan mutaxassislariga talab ortib bormoqda. Bu bilim va ko'nikmalarga ega inson nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham o'z o'rnini topishi mumkin. Masofaviy ishlash, xalqaro frilans loyihalar va onlayn ta'lim – bularning barchasi yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

4. Dunyodagi o'zgarishlarni kengroq anglash imkoniyati.

Axborot texnologiyalari insonga jahonda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'zgarishlarni tezkor va xolis axborotlar orqali kuzatish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy jamiyat a'zosi sifatida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalarini bilish bugungi kunda oddiy texnik malaka emas, balki jamiyatda faol, tafakkurga ega, dunyoqarashi keng inson sifatida yashashning asosiy shartiga aylangan. Shu bois, ushbu sohani chuqur o'zlashtirish va unga zamonaviy, innovatsion yondashish har bir shaxs uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kognitiv faoliyatiga nostandart muammolarni hal qilish, laboratoriya eksperimentini o'tkazish, o'quv va tadqiqot ishlari, texnik mahsulotlarni loyihalash va boshqalarni misol sifatida keltirish mumkin. B.G.Ananiyevning ta'kidlashicha, hayotning ushbu davri o'qitish va kasbiy tayyorgarlik uchun imkon qadar qulaydir. Ushbu davrda

individual faoliyat faol shakllanadi⁷³. Kognitiv faoliyatda abstrakt fikrlash ustunlik qila boshlaydi, dunyoni anglash boshlanadi, o'rganilayotgan voqelikning turli sohalari o'rtasida munosabatlar o'rnatiladi.

Mediata'limning umumiy mohiyati yosh avlodni uning hayotida tobora mustahkam o'rin egallab, unga keng ko'lamli axborot muhitini taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalari materiallari yordamida tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda: o'quvchining media vositalari orqali boshqa subyektlar bilan muloqotini tashkil etish, media vositalaridan keng ko'lamli foydalanish katta hajmdagi axborotlarning uzatilishi: media tomonidan uzatilayotgan axborotlarning o'quvchi tomonidan ijodiy, tanqidiy baholashga erishish o'quvchining mediamatnlarni sharxlay olish, tahlil qilish va sintezlash ko'nikmalarini rivojlanishi o'quvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona ongli foydalanishi o'quvchining mediamadaniyatining rivojlanganligining belgisi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish – yosh avlodda axborot xavfsizligiga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, “mediasavodxonlik”, “mediabilimdonlik”, “mediamahorat” va “mediakompetentlik” kabi tushunchalarga e'tibor qaratish zarurligini keltirib chiqaradi hamda mediamadaniyatni shakllantirish ahamiyatini yanada oshiradi.

Avvalo, “mediamadaniyat” tushunchasining mazmunini anglab olish muhimdir. Shuning uchun, “media” nima? “Madaniyat” nima? “Axborot” degani nima? kabi savollarga javob topish orqali mediasavodxonlikning asl mohiyatini tushunish mumkin. Bu esa o'quvchilarda mediamadaniyatning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda mediamadaniyatining rivojlanishi, ta'lim muassasalari va ulardan tashqarida mediata'limning maqsadli, izchil va tizimli tarzda tashkil etilishiga bog'liq ammo mediata'limning oilada tashkil etish zarur. Ota-onalarning o'zlari ham mediapedagog sifatida farzandlarida mediasavodxonlik, bilimdonlik, kompetentlik, mahorat va

⁷³ Ананев Б.Г. Избранные психологические труды: в 2 т. — М., 1980.

madaniyatini shakllantirish yo'lida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mediamadaniyatini rivojlantirishga erishishning eng samarali yo'li o'qitish tizimiga mediata'limni tatbiq etish sanaladi. Mediata'lim samaradorligini oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot muhitida "to'g'ri harakatlanish" ularning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishlarini belgilaydi.

Professiogramma–kasb xususiyatlarini ifodalovchi tavsifnomadir. U muayyan kasb egalarini tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fanlar bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishda professsiogrammalar katta ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchi uchun tuziladigan professsiogramma uning vazifa va faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab beradi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchining asosiy vazifalari va faoliyatining mazmun-mohiyati;
- o'quv faoliyat turlari (jamoatchilik ishlari va boshqalar);
- o'quv-metodik ishlar (darslar tayyorlash, o'quv qo'llanmalar tuzish);
- ilmiy-tadqiqot ishlari (tadqiqot olib borish, maqolalar yozish);
- tarbiyaviy ishlar (talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar);
- tashkiliy-metodik ishlar (fakultet yoki kafedra faoliyatini tashkil etish);
- o'qituvchi shaxsiy sifatlari va unga xos xususiyatlar;
- maxsus tayyorgarlik darajasi, ya'ni kasbiy bilim va ko'nikmalar;
- psixologik va pedagogik tayyorgarlik, bu bilimlar orasida: diagnostika (talabalarni baholash), prognostika (o'quv jarayonini oldindan rejalashtirish), loyihalash (o'quv reja va dasturlarini yaratish), konstruktivlik (darslarni samarali tuzish), kommunikativlik (talabalar bilan to'g'ri muloqot), tashkilotchilik, tahlil qilish qobiliyatlari muhim o'rin tutadi.

Professiogramma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini, albatta, ko'rsatish zarurdir. Mana shu

professiogramмага asosan bo‘lajak mutaxassis-o‘qituvchilarning sifat jihatidan o‘z kasbiga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin. Professiogramma – kasblar yoki mutaxassisliklar to‘g‘risidagi tushunchalar bir tizimga solingan, mehnatning pedagogik-psixologik tomonlarini ochib beradigan, tartiblangan va o‘zaro uzviy bog‘langan, umumiy vazifani bajarish uchun zarur bo‘ladigan shaxsiy, umuminsoniy va kasbiy sifatlarni o‘zida mujassam etgan, o‘quvchining kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishiga qaratilgan qisqa va asosli talablar majmuasi hamdir. Asosiysi, u o‘quvchi ongida muayyan bir kasbning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

O‘quvchilar professiogramma bilan tanishib chiqish asosida “Kasblar olamiga sayohat” qilishadi, ilgari bilmagan va eshitmagan kasblari haqida batafsil ma’lumot olishadi va ularga bo‘lgan qiziqishi ortadi. To‘plam kasb tavsifnomasi, ish mazmuni, bilish zarur (bilim, ko‘nikma, malakalar), muhim bo‘lgan kasbiy fazilatlar, tibbiy moneliklar (cheklovlar), kasbiy o‘sish istiqbollari, turdosh kasblar kabi ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, – deydi Alisher Safarov.

Professiogrammada turli shakllar (matn, jadval, grafik tasvirlar yoki diagramma) dan unumli foydalanilgan. Masalan, elektr jihozlari va tarmoqlarini montaj qilish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik-elektrik kasbining professiogrammasini ko‘rib chiqaylik. O‘quvchi to‘plamni ko‘zdan kechirarkan, kelgusida ushbu kasb doirasida elektr tarmoqlari va jihozlariga xizmat ko‘rsatish elektromontyori, rele himoyasi va elektr o‘lchov asboblari elektromontyori, elektr energiya iste’moli nazoratchisi, muqobil va noan’anaviy energiya manbalari qurilmalariga xizmat ko‘rsatish texnigi (mexanigi) kabi ixtisosliklarni ham egallashini bilib oladi.

Shuningdek, elektr ta’minotini yaratish, ishlatish va ekspluatatsiya qilish, tashkilotni texnik jihozlash va energiya ta’minoti tizimini yaxshilash va rivojlantirish bo‘yicha takliflar berish, shuningdek, elektr jihozlarini o‘rnatish, elektr chizmalarini chizish, rele himoyasi va elektr o‘lchov asboblari nazorat qilish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, elektr resurslariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, texnik qayta jihozlash bo‘yicha zaruriy asoslarni tayyorlash, shuningdek, elektr jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha shartnomalar tuzish, elektr jihozlari

uzluksiz ishlashini va ulardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash mazkur kasb egasi ishining mazmuni ekanini anglaydi.

Buning uchun esa ushbu mutaxassislikni tanlayotgan o'quvchi kelgusida elektr jihozlari va kommunikatsiyalarini ekspluatatsiya qilishga oid qaror, farmoyish, buyruq, uslubiy va me'yoriy ko'rsatmalar, elektr stansiya vanimstansiya tarqatish qurilmalarining elektr sxemasi, yuqori chastotali tokning qurilmasi, rele himoyasining ishlash tamoyili va sxemasi, elektr jihozlarining konstruktiv tuzilishi va ularning vazifalari, elektr energiya ishlab chiqarishning texnologik jarayoni, nazorat o'lchov asbob va vositalarining tuzilishi, metrologiyasi va ularning ishlash tamoyilini chuqur o'qib o'rganishi zarurligini his qiladi. Albatta, ushbu kasb egasi emotsional turg'unlik, texnikalar bilan ishlashga moyillik, diqqatni jamlay olish qobiliyati, jismoniy chidamlilik va toqatlilik, qo'l mehnatiga moyillik kabi muhim kasbiy fazilatlarni o'zida jamlab borgan sari uning kasbiy o'sish istiqbollari, imkoniyatlari ham kengayib boraveradi. Dastlab elektromontyor sifatida ishga qabul qilingach, kichik mutaxassis asta-sekin 6-razryadgacha borib, texnikelektrik, sex yoki bo'lim boshlig'i, bosh injener-elektrik lavozimlarini ham egallashi mumkin. Professiogramma – ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi.

II.2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish komponentlari

Bugungi kunda axborot olamida internet, internet-televideniya, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh

bo‘lmoqdamiz. Bunday axborot vositalariga asosan yoshlar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Ma’lumki, aholi o‘rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimiga yana bir muhim vazifa – bolalarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to‘g‘ri qabul qila olishga o‘rgatish vazifasi yuklatilmoqda.

Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to‘g‘ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma’lumotga tanqidiy yondashishni o‘rganishlari zarur. Shu bilan birga, internet, televideniya, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma’lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma’lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o‘zgartirib, ko‘plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o‘sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta’minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur jarayonda mediata’lim o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg‘on ma’lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do‘stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o‘rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bugun “o‘rgimchak odam”ga havas qilib, o‘zini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g‘oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor”.

Axborot sohasi liberallashtayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar, jumladan, 120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borayotgani, o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, ularning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlarini kuchaytirayotgani sir emas. Yoshlarda internetdan oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, global tarmoqda milliy axborot resurslarni ko'paytirish, yosh veb-ixtirochilarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, bu borada saytlar tomonidan turli tanlov, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, yoshlarni rag'batlantirish kabilar mazkur muammoning samarali yechimi bo'la oladi.

Mediata'lim darajasini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ham keltirib o'tish joiz:

- mahalliy internet foydalanuvchilarining o'sib borayotgan axborot va intellektual ehtiyojlarini har tomonlama qondirish, aholini, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy, interfaol internet-resurslarni yaratishni rag'batlantirishga qaratilgan dolzarb taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, Ziyonet ta'lim axborot tarmog'ini yanada takomillashtirish, milliy segment bilan boyitish, o'quvchi-yoshlarni ko'proq jalb eta oladigan manbalar joylashtirish, uning tashkiliy, texnik va interfaol imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga integratsiyalashgan zamonaviy internet-resurslarni yaratish, zamonaviy yoshlar o'rtasida ommabop bo'lgan ijtimoiy servislar hamda aqliy zakovatni yanada rivojlantiruvchi milliy o'yin ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- inson, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, aholiga elektron interfaol xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishni rag'batlantirish hamda g'oyaviy-ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy yo'naltirilgan milliy internet-resurslar, veb-servislar, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan internet tarmog'idagi milliy segmentni rivojlantirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va shu kabilar.

Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan “notoza va noxolis” axborotlarning oldini olish, aniq ma’lumotlarni topib foydalanishlari, xususan, nosog‘lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo‘ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, kerak bo‘lsa, pedagoglar o‘zlaridan boshlasalar, yana ham yaxshi kutilgan natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Aynan mana shu borada bolalar kattalarning, ayniqsa, ota-onalar va pedagoglarning ma’naviy-ruhiy ko‘magiga muhtoj. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar tomonidan o‘sib kelayotgan yosh avlodning mediasavodxonligi va internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, internetning milliy segmentini rivojlantirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va ijroga yo‘naltirish vaqti keldi.

Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Shunday ekan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarga sog‘lom axborot muhitini yaratib, ular ma’naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Ayni paytda, mediata’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasi o‘quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘la oladi.

Ushbu paragrafda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishda mediata’lim vositalari orqali amalga oshiriladigan asosiy komponentlar, ularning funksional ahamiyati, hamda bu jarayonda tayaniladigan tamoyillar tizimi chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, kognitiv jarayonlarning – e’tibor, xotira, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy fikrlash kabi jihatlarining shakllanishi va rivojlanishida mediata’lim qanday o‘rin tutishi ochib beriladi. Shuningdek, bu tamoyillarni real o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llash imkoniyatlari, ularning samaradorligini ta’minlovchi omillar ham yoritiladi.


Komponent (lot.componens, componentis – tashkil etuvchi; tarkibiy qism) biror narsaning tarkibiy qismi ma’nosini bildiradi.⁷⁴ Talabalar mediata’limini rivojlantirish mazkur jarayon komponentlarini ham aniqlashtirishni talab etadi. Mavjud tadqiqotlar tahlili asosida ta’lim oluvchilarda mediakompetentligini metodik takomillashtirishning quyidagi komponentlari yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatdi.

Faoliyat – hayotiy va kasbiy faoliyatga doir mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

Biroq mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish komponentlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni shakllantirish mazkur jarayon komponentlarini ham aniqlashtirishni talab etadi. (II.2.1-rasmga

⁷⁴O‘zbek tilining izohli lug‘ati.(A.Madaliyev tahriri ostida) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2008. B. 397, 398.

qarang).



II.2.1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish komponentlari.

Ushbu faoliyat mazmuni orqali **motivatsion** komponent – ichki ehtiyoj va kasbiy yo'nalishni mustahkamlaydi, **kognitiv** komponent – bilish jarayonlarini faollashtiradi, **ijodkorlik** komponenti – yangi g'oyalarni amalga oshirish qobiliyatini shakllantiradi, **mediata'limga yo'naltirilgan** komponent – mediasavodxonlik va raqamli kompetensiyani rivojlantiradi. Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mediata'lim sharoitida innovatsion fikrlaydigan, tahlilchi va ijodiy pedagog sifatida shakllanadi.

Motivatsion komponent. Motivatsion komponent – bu o'qituvchining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga bo'lgan ichki tayyorligi va intilishidir. Mediata'limda motivatsion komponent o'qituvchining media vositalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish istagi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga tayyorligini bildiradi. Ushbu komponent o'qituvchining o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilab borishi, talabalarning mediata'limga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish hamda mustaqil izlanish va o'rganishga undash bilan bog'liq. Yuqori motivatsiyaga ega o'qituvchi media vositalaridan foydalanib, o'qituvchilarning diqqatini yaxshi jalb qiladi hamda ularning tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini samarali rivojlantiradi.

Kognitiv komponent. Kognitiv komponent – bu bilim olish, eslab qolish, tahlil qilish, sintez qilish, xulosa chiqarish kabi bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mediata'lim asosida rivojlantirilayotgan kognitiv faoliyat o'qituvchida va talabalarda axborotni ongli qabul qilish, uni tanqidiy baholash va mantiqiy bog'lash ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu komponent orqali talaba nafaqat media materiallarini tushunibgina qolmay, balki ularni tahlil qilishi, muhim ma'lumotlarni ajratib olishi va yangi bilimlar yaratishi kerak. Shu bilan birga, kognitiv komponent talabalarning tafakkur darajasini oshirishga, ularning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodkorlik komponenti. Ijodkorlik komponenti – bu o'qituvchining yangi g'oyalar yaratish, muammolarga noodatiy

yechim topish, media vositalaridan foydalangan holda innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Mediata'limda ijodkorlik komponenti o'qituvchining o'zining dars metodikasini takomillashtirish, media texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llarini izlash, o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga undash orqali rivojlantiriladi. Bu komponent o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi hamda o'quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishni oshiradi.

Mediata'limga yo'naltirilgan komponent. Bu komponent mediata'limning o'ziga xos xususiyatlari va metodologiyasiga doir bo'lib, o'qituvchining media savodxonligi, media resurslardan foydalanish malakasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu komponent bo'yicha o'qituvchi media vositalaridan dars jarayonida maqsadli, tizimli va ongli foydalanishni egallaydi. Mediata'limga yo'naltirilgan komponent o'qituvchining zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarga axborotni yetkazish va ularni media muhitida ongli bo'lishlariga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu komponent o'quvchilarni media vositalaridan xavfsiz va samarali foydalanishga o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Komponent nomi	Amaliy misollar	Metodik tavsiyalar
Motivatsion	Darsda qiziqarli video roliklar, animatsiyalar qo'llash. Mediamahsulot asosida interaktiv savol-javob tashkil etish	O'qituvchilarda AKT vositalariga bo'lgan qiziqishni shakllantirish. Rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanish
Kognitiv	Mediamatnni tahlil qilish topshirig'i. "Haqiqiy va soxta yangilikni ajrat" mashqi	Axborotni tanqidiy tahlil qilish metodlarini o'rgatish. Kognitiv o'yinga asoslangan dars shakllarini qo'llash
Ijodkorlik	Media vositalar asosida loyiha yaratish	O'quvchilar bilan guruhlarda ijodiy

	(prezentatsiya, video lavha). Rasm yoki hikoya asosida rolik tayyorlash	topshiriqlar ishlab chiqish. Mustaqil ijodiy fikr bildirishga undovchi savollar berish
Mediata'limga yo'naltirilgan	Darsda raqamli vositalardan foydalanish (YouTube, Canva, Learning Apps). Plagiat misollarini tahlil qilish orqali mediaetikasi o'rgatish	O'qituvchilarda media savodxonlik va AKT madaniyatini shakllantirish. Internet xavfsizligi va mualliflik huquqlari haqida dars o'tkazish

II.2.2-rasm. Kognitiv faoliyat komponentlari bo'yicha misollar va metodik tavsiyalar jadvali.

Ilmiy-pedagogik tahlillar natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'limini rivojlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilishi uning samaradorligi, ta'sirchanligi va natijadorligini ta'minlaydi. Albatta, bunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'limini rivojlantirishning texnik-tashkiliy jihatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuzilmaviy jihatdan oliy ta'lim muassasalari quyidagi bo'limlarining bevosita va bilvosita mediata'limni rivojlantirishga doir funksional vazifalari mavjud:

- ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- axborot-resurs markazi;
- mediamarkaz;
- matbuot xizmati;
- talabalar uyushmalari.

Shuningdek, har bir oliy ta'lim muassasalarida media-didaktik materiallar tayyorlash uchun yetarli moddiy-texnik baza shakllantiriladi. Ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ham vazifalar ma'lum bo'limlarga taqsimlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida mediatexnologiyalarning o'quv jarayoniga yetarli darajada integratsiyalashganligi, mediatexnologiyalar talabalarning faol ta'lim olishiga texnik va tashkiliy jihatdan yetarli tadbir

etilganligi, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanishda differensial ta'lim olish imkoniyati, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirishga doir muntazam fikr almashinuvining yo'lga qo'yilganligi, mediatexnologiyalar vositasida hamkorlikda ta'lim olish hamda ta'limning yakunigicha "ekspert" darajasiga erishish imkoniyatlari OTMning texnik-tashkiliy jihatlarini indikatorlari sifatida tavsif etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda mediata'limni rivojlanganligi nuqtayi nazaridan ham ular jamiyatda boshqalarga o'rnak bo'la oladigan darajada bo'lishi uchun OTMda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmuniga singdirilishi lozim. Jumladan, hozirda medianing salbiy jihatlarini bilishi, ulardan himoyalashning amaliy chora-tadbirlari xususida ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni pedagog sifatida media, mediatexnologiya, mediata'lim xususidagi ilmiy maqolalarni tahlil qila olishi va pedagogik faoliyatiga tadbiq etish darajasida bilim va malakaga ega bo'lish kerak. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli kurslar, jumladan, onlayn kurslar mavjud. Bu kurslar mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan. OTMda ham bunday kurslarni tashkillashtirish ta'sirchan ahamiyatga ega.

OTMda mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning tashkil etilishi ham talabalarning media bilan bog'liq ijtimoiy, tibbiy, axloqiy masalalarga e'tiborini qaratishda samarali vosita hisoblanadi. Tyutorlar tomonidan talabalarning media bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarini refleksiv baholashiga qaratilgan mashg'ulotlar, tadbirlar, darslar ham ularda mediata'limning muhim tarkibiy qismi, "feedback madaniyati"ni o'zlashtirishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida shuningdek, quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar. Bu loyihalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ilmiy hamda mediasavodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar yakka tartibda yoki guruh

shaklida biror ilmiy mavzuda maqsadli, guruhga mos ravishda media vositalar yordamida mediamahsulot shakllantiradilar. Bu mahsulot videomaterial, televideniya da biror ko'rsatuv yoki gazetada maqola bo'lishi mumkin. Mavzu o'z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda, shuningdek, aynan shu mavzuning ijtimoiy ahamiyati yoritilishi, keng jamoatchilikning e'tiborini tortishi mumkin bo'ladi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarning tayyorgarlik bosqichi media loyiha ning g'oyasini shakllantirish, loyiha ning samaradorligini oldindan baholash maxsus bilim va ko'nikma talab etadi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

2. Media-Workshop. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining media madaniyati, mediasavodxonligini rivojlantirishga qaratilgan workshop bo'lib, bu talabalarning talablaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir mavzuda muntazam ravishda tashkil etib boriladi. Media-workshopda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning talablarini o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday workshoplar axborot-resurs markazi tomonidan tashkil etiladi.

3. Media haftalik. Bunday haftaliklar oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun hafta davomida ma'naviyat xonalari hamda axborot resurs markazida tashkil etiladi. Bundan maqsad zamonaviy media manbalar, mediatexnologiyalarni tanishtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni hafta davomida mediasavodxonligini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida media haftaliklarda axborot texnologiyalari, virtual texnologiyalar bilan birgalikda mediatexnologiyalar imkoniyatlarini namoyish etish va bu orqali talabalarning qiziqishlarini oshirishni maqsad qiladi. Bu haftalik davomida kichik filmlar va videoroliklar orqali talabalarga nazariy materiallarni ilyustratsiyalash, muammolarni yechish va ilmiy tadqiqot hamda loyihalar haqida xabar berish, talabalarni sifatli media mahsulotlari ishlab chiqish, maqolalar yozish, fotosuratlar va videolarni tayyorlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'plab ijtimoiy media platformalardan maqsadli foydalanish, qo'llanma va elektron kutubxonalar haqida ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

4. Mediaburchak. Oliy ta'lim muassasasining talabalar gavjum joylarida media burchaklarni tashkil etish talabalarning muntazam

ravishda media sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasasida media burchakning maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda shaxsiy rivojlanish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlashi uchun media vositasida qiziqishlarni rivojlantirishdan iborat. Bu burchak talabalarning media asoslarini o'rganish, media tajribasini oshirish, ta'lim jarayonlarini media-didaktik imkoniyatini ko'rsatish, tahlil qilish va o'z fikrini boshqalarga taqdim qilish imkonini beradi.

Media burchakning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

- medianing asosiy qonuniyatlari va texnikalarini o'rganish;
- maqolalar va yangiliklarni yozish, ishlov berish hamda taqdim etishni o'rganish;
- jamiyat, iqtisodiyot, texnika, texnologiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish.

Media burchaklar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga turli tadbir va konferensiyalar, forumlar, simpoziumlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi.

5. Mediatanlovlar. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatiga qo'shimcha ravishda mediabloglar, mediajurnalistika, mediadidaktika, mediavaxfsizlik, mediaetikaga doir tanlovlar o'tkazish orqali ularda media sohasidagi yangi bilimlarni oshirish uchun imkoniyat hamda mustaqil ta'lim sharoitida o'z qiziqishlarini rivojlantirayotganini qo'llab-quvvatlash uchun media tanlovlar katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida media tanlovlar o'tkazishning maqsadlari quyidagilar:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy media tajribasini oshirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va taqdimot qobiliyatini rivojlantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediamahsulotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Media tanlovlarning maqsadi – obyektiv va keng qamrovli axborotni tarqatish va jamoat bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiziqishlarini aniqlashtirish uchun samarali

imkoniyat yaratib beradi. Bunday tanlovlarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarga oid mavzularni ajratish, ijtimoiy muhitda g‘oyani o‘rgatish va qo‘shimcha mavzulardan suhbatlashish imkonini berish mumkin.

6. Ijtimoiy media loyihalar. Ijtimoiy media loyihalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda jamiyat hayotida ijtimoiy faollik hamda mas‘uliyatlilikni rivojlantirishga yo‘nalgan bo‘ladi. Bu loyihalar media vositasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihani amalga oshirishni maqsad qiladi. Loyiha g‘oyasi asosan ijtimoiy mavzuni media vositasida rivojlantirish, shakllantirish va tarqatish, natijada ijtimoiy mavzuga keng jamoatchilik e‘tiborini qaratishni maqsad qiladi.

Ijtimoiy media loyihalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning televideniya dasturlari, radiolar, internet portallari, ijtimoiy tarmoq saytlari, ijtimoiy tarmoqdan foydalanadigan mobil ilovalar, YouTube kanallari, bloglar va boshqa media vositalardan unumli va maqsadli foydalanishini qo‘llab-quvvatlaydi.


Quyida tadqiqot ishi doirasida taklif etilgan oliy ta‘lim muassasasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan guruhlarda mediata‘limni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o‘tiladi:

FAOLIYAT TURLARI	MAZMUNI
Mediata‘limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kurslar	Mediata‘limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kurslar real vaziyatdan kelib chiqqan holda dolzarb masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan mediata‘limni rivojlantirish bilan bog‘liq mavzularga doir kurslarni tashkil etish. Oliy ta‘lim muassasasida tashkil etiladigan bunday kurslar talabalarning dolzarb mavzularni baholash, o‘z munosabatlarini shakllantirish, tanqidiy baholash hamda mas‘uliyatli yondashuvni professional darajada yetkazishga xizmat qiladi. Bunday kurslarning afzalligi talabalarda norasmiy shakllangan mediata‘lim mazmunini mutaxassis ishtirokida yana birma-bir mustahkam fikr sifatida shakllantirish yoki o‘z fikrini o‘zgartirishga yordam beradi.
Mediaetika	Talabalarda mediata‘limni rivojlantirish

	mediaga doir qadriyatlar, me'yorlar va etikasiga doir tamoyillarni bilish talab etiladi. Talabanning mediata'limni ongli ravishda shaxsiy hamda jamiyat uchun ta'sirini anglashi media etikasini egallagani bilan bog'liq.
Mediani tahlil qilish va mediatanqid	Talabalarda media mazmunni tanqidiy tahlil qilish va savollar shakllantirish, shuningdek, mazmunini takomillashtirishda manipulyatsiya texnikalari qo'llanilganligini aniqlay olish qobiliyatini shakllantirishda mazkur metod qo'l keladi.
Refleksiya va muzokara	Talabalarning mediata'limini rivojlantirishda refleksiya va munozara uchun imkoniyat yaratish eng samarali usullardan hisoblanadi. Bu orqali talabalar ma'lum bir mavzuga doir mediamateriallarni turli qarashlarda tahlil qiladilar va o'z munosabatlarini bildirishni mashq qiladilar. Bu orqali talabalar mediamaterial mazmunini interpretatsiya qilishni va ularni tanqidiy baholashni o'rganadilar.
Medialoyiha va kreativ mediafaoliyat	Talabalarning medialoyihalar shakllantirishi va kreativ media faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Bu orqali talabalar medianing mazmunini shakllantirish hamda o'zlarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishdi. Bu ularning mediakompetentligini rivojlantiradi.
Ishtirok etish va ommaviy axborot vositalarida faollikni oshirish	Talabalarning media bilan bog'liq faoliyat yoki loyihalarga jalb etish har doim samarali bo'lib, bu orqali ular o'z fikrlarini erkin bildirish hamda o'zining medialar vositasida ta'sir kuchini baholash bo'yicha ijtimoiy tajribalarga ega bo'ladilar.
Ommaviy axborot vositalarini tartibga solish va ma'lumotlarni himoya qilish	Talabalarga media iste'molchilikning huquqiy aspektlariga (ma'lumotlar xavfsizligi, mualliflik huquqi, onlayn xavfsizlik, raqamli texnologiyalardan foydalanishda mas'uliyatli munosabat) doir amaliy seminarlar tashkil etish

II.2.3-rasm. Mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'limni rivojlanganligi ularning "axborot iste'molchisi" sifatida shakllantiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotdan foydalanish samaradorligi va imkoniyati quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi: (II.2.4-rasmga qarang)



II. 2.4-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborotdan foydalanish samaradorligi va imkoniyati sifat ko'rsatkichlari

Axborotning sifat ko'rsatkichlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'limni rivojlantirishda tayanch tushunchalarni shakllanishiga asos bo'ladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy faoliyatining mazmuni ham fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi jarayonlarda o'quvchilarni tayyorlash mazmuniga pedagogik yondashib, ularga kognitiv bilimlarini yetkazishni maqsad qiladi.

Media va axborot savodxonligi – bu yangi axborot, raqamli va kommunikatsiya landshaftlarida odamlarga afzalliklarni maksimal darajada oshirish va zararni minimallashtirishga yordam beradigan o‘zaro bog‘liq vakolatlar to‘plami. Media va axborot savodxonligi odamlarga axborot, kontentning boshqa shakllari, muloqotni osonlashtiradigan institutlar va turli xil kontent turlari hamda raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish bilan tanqidiy va samarali aloqada bo‘lishga imkon beruvchi vakolatlarni qamrab oladi. Ushbu sohalaridagi imkoniyatlar yoshi va kelib chiqishidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar uchun muhim hisoblanadi.

Mediasavodxonlik ko‘nikmalari ommaviy axborot vositalari va ularda e‘lon qilingan materiallar, jumladan, yangiliklar, reklamalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar orqali taqdim etilgan katta hajmdagi ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va sharhlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullar aholiga yanada aqlli iste‘molchilar va media kontentining yaratuvchisi bo‘lishga yordam beradi.

Manbani baholash. Manbalarning to‘g‘riligi va ishonchliligini baholang. Muallifning tajribasini, nashrning obro‘si va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni hisobga olish.

Faktlarni tekshirish. Ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan faktlar va ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish. Bunda bir vaqtning o‘zida bir necha manbalarni tekshirish mumkin.

Noxolislikdan saqlanish. E‘lon qilingan materialda siyosiy, madaniy va tijoriy va boshqa tomonlama manfaatlar ko‘zlanmaganiga ishonch hosil qilish.

Tanqidiy fikrlash. Tahlil qilinayotgan kontentga shubha bilan yondashing. Ma‘lumotni tarqatishdan kim manfaatdor? Qaysi jihatlarni e‘tiborsiz qoldirish mumkin va dalillar qanday taqdim etilayotganligiga e‘tibor qaratish.

Kontent mazmunini tushunish. Media kontenti yaratilgan kontekstni tushuning. Kontentning mazmuniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarni ko‘rib chiqing.

Mediadan foydalanish texnikalarini o‘zlashtirish. Kamera burchaklari, yoritish va tahrirlash kabi media texnikasini o‘zlashtirish. Ushbu bilim ommaviy axborot vositalari talqinlarni qanday boshqarishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Manipulyatsiyani aniqlash. Hissiy murojaatlar, sensatsiya va klikbeyt kabi ishontirish usullaridan xabardor bo'lish. Muayyan reaksiyalarni qo'zg'atish uchun ma'lumot qachon taqdim etilishini ko'zdan qochirmaslik.

OAVga egalik qilish va moliyalashtirish. Ommaviy axborot vositalariga kim egalik qilishini va ularni moliyalashtirishini o'rganish. Bu mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar yoki manfaatlar to'qnashuviga oydinlik kiritishi mumkin.

Qiyosiy tahlil. Muammoni to'liq tushunish uchun bir nechta manbani solishtirish. Turli manbalardagi bezaklar va nomuvofiqliklarni aniqlash.

Maxfiylik haqida xabardorlik. Shaxsiy ma'lumotlarni onlayn tarzda almashishda maxfiylik qoidalarining buzilishi oqibatlarini tushunish.

Raqamli savodxonlik. Raqamli axborot vositalarini yaratish va manipulyatsiya qilish uchun foydalaniladigan vositalar va texnologiyalar bilan tanishish. Bunga fotosuratlarini tahrirlash, video tahrirlash va grafik dizaynni tushunish kiradi.

Umumiy olib aytganda, mediasavodxonlik deganda turli shakllardagi ommaviy axborot vositalariga kirish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyati tushuniladi. Bundan anglash mumkinki, axborot va kontentni turli kanallar orqali osongina olish mumkin bo'lgan bugungi raqamli asrda mediasavodxonlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Quyida media savodxonlikning ba'zi afzalliklarini sanab o'tamiz:

Tanqidiy fikrlash. Mediasavodxonligi odamlarni duch keladigan ma'lumotlar va xabarlar haqida tanqidiy fikrlashga undaydi. Bu ularga media-kontent ortidagi ishonchlilik, noto'g'ri fikrlar va potentsial motivlarga shubha qilishda yordam beradi va ularga asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ishonchlilikni baholash. Mediasavodxonligi ko'nikmalari jamoatchilikka ishonchli va ishonchsiz ma'lumot manbalarini farqlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, soxta yangiliklar va noto'g'ri ma'lumotlar davrida juda muhim, chunki u odamlarga ma'lumotni haqiqat deb qabul qilishdan oldin tekshirish imkoniyatini oshiradi.

Vakolat va mas'uliyat. Mediasavodxonlik odamlarga passiv iste'molchilar emas, balki media landshaftining faol ishtirokchisi

bo'lish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik media xabarlar qanday tuzilganligini va ular fikrlarga qanday ta'sir qilishini tushunishi, ularga media kontentini nafaqat yaratish, balki samaraliroq boshqarish imkonini ham beradi.

Madaniy tushunchalarni shakllantirish va takomillashtirish. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha madaniy me'yorlar, qadriyatlar va istiqbollarni aks ettiradi va shakllantiradi. Mediasavodxonlik odamlarga turli nuqtayi nazarlarni tan olish va baholashga yordam beradi, madaniy tushunish va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

Manipulyatsiyadan himoyalash. Reklama beruvchilar, siyosiy tashkilotlar va boshqa guruhlar auditoriyani manipulyatsiya qilish uchun ishonitirishning bir qancha usullaridan foydalanishi mumkin. Mediasavodxonlik jamoatchilikka ushbu uslublarni anglash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijod va ifoda erkinligi. Mediasavodxonlik media-kontent yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Media xabarlar qanday tuzilganligini tushunish jamoatchilikka medianing turli shakllari, masalan, videolar, bloglar va ijtimoiy media orqali o'zlarini ijodiy tarzda ifoda etish imkonini yaratishi mumkin.

Tadqiqot ko'nikmalari. Mediasavodxonlik samarali tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, odamlarga turli manbalardan ma'lumotlarni topish va baholashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, akademik, professional va shaxsiy maqsadlar uchun juda muhimdir.

O'zgarishlarga moslashish. Media landshafti va texnologiyalari muntazam rivojlanmoqda. Mediasavodxonlik yangi media shakllari va platformalari paydo bo'lganda jamoatchilikda moslashish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, axborotni tarqatish, nutqni rag'batlantirish, ijtimoiy, siyosiy va madaniy dinamikaga ta'sir ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu borada jamoatchilik ongini samarali himoya qilish uchun ular o'rtasida mediasavodxonlikning ahamiyatini keng targ'ib qilish va tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, jamiyatda medianing roli quyidagi yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi:

Axborotni tarqatish. Mahalliy, milliy va xalqaro voqealar haqida yangiliklar, yangilanishlar va tushunchalarni taqdim etuvchi asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu odamlarga dolzarb voqealardan xabardor bo'lishga yordam beradi, bu esa fuqarolar sifatida ongli qarorlar qabul qilish uchun zarurdir.

Bu borada quyidagi jihatlar hisobga olinadi:

Yangiliklarni yig'ish. Turli manbalar, jumladan, intervyular, tadqiqotlar, press-revizlar va bevosita kuzatish orqali ma'lumot to'playdi. Keyinchalik bu ma'lumotlar yangiliklarda aks etadi.

Ma'lumotlarni tasdiqlash. Ma'lumotni tarqatishdan oldin nufuzli ommaviy axborot vositalari kontentning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlash uchun faktlarni tekshirish bilan shug'ullanadi. Bu noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishining oldini olishga yordam beradi.

Taqdimot. Axborotlarning to'g'riligi tasdiqlanganidan so'ng ma'lumotlar turli formatlarda taqdim etiladi. Bu turli xil auditoriya afzalliklariga mos keladigan yangiliklar maqolalari, video hisobotlar, podkastlar va infografika bo'lishi mumkin.

Vaqtinchalik. Ommaviy axborot vositalari axborotni zudlik bilan yetkazib berishga intiladi, bu esa talabalarga so'nggi o'zgarishlardan xabardor bo'lib turish va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Jamoatchilik kun tartibini belgilash. Kun tartibini belgilash nazariyasi ommaviy axborot vositalari nafaqat odamlar nima haqida o'ylashlari, balki ular muhim deb hisoblagan masalalarga ham ta'sir qilish qudratiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Axborotning asosiy maqsadi tinglovchilarga muayyan kontentni yetkazib berishdan iborat. Axborotlar turli faktlar va fikrlarni o'z ichiga olishi mumkin, shuningdek, mualliflar hamda ularning fikrlari ham ushbu axborotda aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak, biroq muallifning shaxsiy fikri hech qachon maqolada markaziy o'rinni egallamasligi kerak.

Mediata'lim fan yo'nalishi hali ancha yosh bo'lib, ko'pincha uni ommaviy kommunikatsiya sharoitida axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni deb nomlanadi. Mediata'limning konseptual asoslarini aniqlash bo'yicha, amaliy fanlarni o'qitish jarayonida mediata'limning pedagogik ta'sir, amaliy harakatli soha sifatida shaxsga ta'sir ko'rsatishi, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mediata'lim vazifalarini ishlab chiqish yo'nalishida,

mediata'limni pedagogik texnologiya sifatida amalga oshirishni loyihalash bosqichlarini yaratish ustida olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Shu vaqtga qadar media pedagoglar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hamda kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, dunyoda mediata'limning yagona konsepsiyasi mavjud emas.

Mediata'lim dolzarb va bugun bilan bog'liq jarayon. U o'zida keng mafkuraviy va tarixiy kontekstda "hozir va endi" iborasini mujassamlashtiradi.

Mediata'limning kalit tushunchasini katta darajada tahlil, sharh, usul va vositalar tashkil etadi. Mediata'lim mazmun, mohiyat, variantli sharhli usullarning rivojlanishini anglatadi. Mediata'limda tahsil oluvchilarni baholashning eng maqbuli – bu o'z-o'ziga baho qo'yilishi bilan belgilanadi. Mediata'lim o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini o'zgartirishga intiladi. U fikr va dialog uchun imkoniyat yaratadi.

Mediata'lim bahs-munozara jarayoniga o'xshaydi. Mediata'lim faol, demokratik pedagoglar bilan yaxshi rivojlanadi. Qisqasi, mediata'lim – bu ko'plab yangi faoliyat yo'llari va ularni qo'llovchi pedagogikaning yangi sohasi sifatida ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda. Mediata'lim guruhlarda ishlashga yo'naltirilgan. Mediata'lim "amaliy tanqid" va "tanqidiy amaliyotdan" iborat. Mediata'lim o'zida ota-onalar, media sohasidagi professionallar va pedagoglar bilan munosabatlarni mujassamlashtiradi. Mediata'lim o'zgarayotgan tamoyillar bilan bog'langan.

Mediata'lim – alohida soha. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari shunchaki bilim beradigan yoki o'quvchilarni "kashf etadigan" emas. Bu fanda tanqidiy tadqiqot va dialog jarayonida pedagog va tahsil oluvchilarga yangi bilimlar faol beriladi. Ta'lim jarayonini amalga oshirishda mediata'lim turli pedagogik vositalar va usullarni jalb etish orqali, ya'ni ta'lim jarayonida aniq vazifalarni qo'yish, o'quv materialini mazmunini tushuntirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o'qitish turlari va ta'lim oluvchilar jamoasi xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetensiyasini shakllantiradigan mediata'lim vositasi – bu xabarlarni tanlash, baholash va mustaqil ravishda yaratish qobiliyatini rivojlantiradigan, shuningdek, xotira, diqqat, tasavvur, idrok va mantiqiy fikrlash kabi

psixologik jarayonlarni shakllantiradigan samarali vositadir. O'quv jarayonini tashkil etishning yetakchi vositasi sifatida multimedidan foydalanish, bizningcha, ona tilini integrallashgan holda o'qitish va mediata'lim uchun noyob imkoniyat yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, multimedia imkoniyatlari nafaqat nutqni rivojlantirish va tuzatish, yetishmayotgan til muhitini nutq vaziyatining vizual tasviri yordamida to'ldirish va hokazolarda emas, balki juda ko'p ya'ni, mediata'lim jarayonining o'zi ona tili darsiga organik ravishda mos keladi. Bu jamiyatni axborotlashtirishning zamonaviy bosqichida universitet talabalariga ona tilini o'rgatishda multimedia vositalaridan foydalanishning tubdan yangi yondashuvidir.

Ta'limni jadal axborotlashtirish sharoitida multimedia vositalari yordamida mediata'lim jarayoni nazariy va amaliy tajribani qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

II.3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning shakl va vositalari.

Ilmiy-pedagogik tahlillar natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'limini rivojlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilishi uning samaradorligi, ta'sirchanligi va natijadorligini ta'minlaydi. Albatta, bunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'limini rivojlantirishning texnik-tashkiliy jihatlarini hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuzilmaviy jihatdan oliy ta'lim muassasalarida quyidagi bo'limlarining bevosita va bilvosita mediata'limni rivojlantirishga doir funksional vazifalari mavjud:

- 1) ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- 2) axborot-resurs markazi;
- 3) mediamarkaz;
- 4) matbuot xizmati;
- 5) talabalar uyushmalari.

Shuningdek, har bir oliy ta'lim muassasalarida mediadidaktik materiallar tayyorlash uchun yetarli moddiy-texnik baza shakllantiriladi. Ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ham vazifalar ma'lum bo'limlarga taqsimlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida mediatexnologiyalarning o'quv jarayoniga yetarli darajada integratsiyalashganligi, mediatexnologiyalar talabalarining faol ta'lim olishiga texnik va

tashkiliy jihatdan yetarli tatbiq etilganligi, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanishda differensial ta'lim olish imkoniyati, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirishga doir muntazam fikr almashinuvining yo'lga qo'yilganligi, mediatexnologiyalar vositasida hamkorlikda ta'lim olish hamda ta'limning yakunigicha "ekspert" darajasiga erishish imkoniyatlari OTMning texnik-tashkiliy jihatlarini indikatorlari sifatida tavsif etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni pedagog sifatida media, mediatexnologiya, mediata'lim xususidagi ilmiy maqolalarni tahlil qila olishi va pedagogik faoliyatiga tadbiq etish darajasida bilim va malakaga ega bo'lish kerak. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli kurslar, jumladan, onlayn kurslar mavjud. Bu kurslar mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan. OTMda ham bunday kurslarni tashkillashtirish ta'sirchan ahamiyatga ega.

OTMda mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning tashkil etilishi ham talabalarning media bilan bog'liq ijtimoiy, tibbiy, axloqiy masalalarga e'tiborini qaratishda samarali vosita hisoblanadi. Tyutorlar tomonidan talabalarning media bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarini refleksiv baholashiga qaratilgan mashg'ulotlar, tadbirlar, darslar ham ularda mediata'limning muhim tarkibiy qismi, "feedback madaniyati"ni o'zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida shuningdek, quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar. Bu loyihalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ilmiy hamda mediasavodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar yakka tartibda yoki guruh shaklida biror ilmiy mavzuda maqsadli, guruhga mos ravishda media vositalar yordamida mediamahsulot shakllantiradilar. Bu mahsulot videomaterial, televideniya da biror ko'rsatuv yoki gazetada maqola bo'lishi mumkin. Mavzu o'z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda, shuningdek, aynan shu mavzuning ijtimoiy ahamiyati yoritilishi keng jamoatchilik e'tiborini tortishi mumkin bo'ladi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarning tayyorgarlik bosqichi media loyiha ning g'oyasini shakllantirish,

loyihaning samaradorligini oldindan baholash maxsus bilim va ko'nikma talab etadi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

2. Media-Workshop. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining media madaniyati, mediasavodxonligini rivojlantirishga qaratilgan workshop bo'lib, bu talabalarning talablaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir mavzuda muntazam ravishda tashkil etib boriladi. Media-workshopda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning talablarini o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday workshoplar axborot-resurs markazi tomonidan tashkil etiladi.

3. Mediahaftalik. Bunday haftaliklar oliy ta'lim muassasasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun hafta davomida foyelarda, ma'naviyat xonalari hamda axborot resurs markazida tashkil etiladi. Bundan maqsad zamonaviy media manbalar, mediatexnologiyalarni tanishtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni hafta davomida mediasavodxonligini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida media haftaliklarda axborot texnologiyalari, virtual texnologiyalar bilan birgalikda mediatexnologiyalar imkoniyatlarini namoyish etish va bu orqali talabalarning qiziqishlarini oshirishni maqsad qiladi. Bu haftalik davomida kichik filmlar va videoroliklar orqali talabalarga nazariy materiallarni illyustratsiyalash, muammolarni yechish va ilmiy tadqiqot hamda loyihalar haqida xabar berish, talabalarni sifatli media mahsulotlari ishlab chiqish, maqolalar yozish, fotosuratlar va videolarni tayyorlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'plab ijtimoiy media platformalardan maqsadli foydalanish, qo'llanma va elektron kutubxonalar haqida ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

4. Mediaburchak. Oliy ta'lim muassasasining talabalar gavjum joylarida media burchaklarni tashkil etish talabalarning muntazam ravishda media sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasasida media burchakning maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda shaxsiy rivojlanish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlashi uchun media vositasida qiziqishlarni rivojlantirishdan iborat. Bu burchak talabalarning media asoslarini o'rganish, media tajribasini oshirish,

ta'lim jarayonlarining media-didaktik imkoniyatini ko'rsatish, tahlil qilish va o'z fikrini boshqalarga taqdim qilish imkonini beradi.

Media burchakning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

- medianing asosiy qonuniyatlari va texnikalarini o'rganish;
- maqolalar va yangiliklarni yozish, ishlov berish hamda taqdim etishni o'rganish;
- jamiyat, iqtisodiyot, texnika, texnologiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish.

Media burchaklar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga turli tadbir va konferensiyalar, forumlar, simpoziumlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi.

5. Mediatanlovlar. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatiga qo'shimcha ravishda mediabloglar, mediajurnalistika, mediadidaktika, mediaxavfsizlik, mediaetikaga doir tanlovlar o'tkazish orqali ularda media sohasidagi yangi bilimlarni oshirish uchun imkoniyat hamda mustaqil ta'lim sharoitida o'z qiziqishlarini rivojlantirayotganini qo'llab-quvvatlash uchun media tanlovlar katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida media tanlovlar o'tkazishning maqsadlari quyidagilar:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy media tajribasini oshirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va taqdimot qobiliyatini rivojlantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediamahsulotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Media tanlovlarning maqsadi – obyektiv va keng qamrovli axborotni tarqatish va jamoat bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiziqishlarini aniqlashtirish uchun samarali imkoniyat yaratib beradi. Bunday tanlovlarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarga oid mavzularni ajratish, ijtimoiy muhitda g'oyani o'rgatish va qo'shimcha mavzulardan suhbatlashish imkonini berish mumkin.

6. Ijtimoiy medialoyihalar. Ijtimoiy media loyihalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda jamiyat hayotida ijtimoiy faollik

hamda mas'uliyatlilikni rivojlantirishga yo'nalgan bo'ladi. Bu loyihalar media vositasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihani amalga oshirishni maqsad qiladi. Loyiha g'oyasi asosan ijtimoiy mavzuni media vositasida rivojlantirish, shakllantirish va tarqatish, natijada ijtimoiy mavzuga keng jamoatchilik e'tiborini qaratishni maqsad qiladi.

Ijtimoiy media loyihalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning televideniye dasturlari, radiolar, internet portallari, ijtimoiy tarmoq saytlari, ijtimoiy tarmoqdan foydalanadigan mobil ilovalar, YouTube kanallari, bloglar va boshqa media vositalardan unumli va maqsadli foydalanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning shakllarini quyidagicha belgiladik:

Ma'ruza – mavzuni nazariy jihatdan tushuntirish va asosiy tushunchalarni berish;

Seminar va muhokamalar – o'qituvchilarning fikr almashinuvi va bilimlarni chuqurlashtirish;

Amaliy mashg'ulotlar – mediata'lim vositalaridan foydalanib, kognitiv ko'nikmalarni mustahkamlash;

Loyihalar ustida ish – mustaqil va guruh bo'lib ijodiy vazifalarni bajarish;

Interaktiv darslar – ta'limda interfaol metodlarni qo'llash (masalan, o'yinlar, viktorinalar);

Muloqot va treninglar – pedagoglar o'rtasida o'zaro muloqot va ko'nikmalarni takomillashtirish uchun amaliy mashg'ulotlar;

Keys-stadi (holat tahlili) – real yoki yolg'on vaziyatlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish va fikrlashni rivojlantirish;

Multidisciplinar guruhlarda ishlash – boshqa fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlikda bilim va tajriba almashish;

Onlayn vebinarlar va master-klasslar – ekspertlar bilan bevosita aloqa orqali bilimlarni oshirish;

Refleksiya (o'z-o'zini baholash) – o'qituvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirishi uchun metodik yondashuv.

Bu shakllar mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi. Har qanday shakl yoki

usulni qo'llashda uning maqsadi va natijasini aniq belgilash muhim hisoblanadi. Biz ularni quyidagi jadvalda keltirdik.

Shakl	Maqsad	Natija
Ma'ruza	Talabalarga yangi nazariy bilimlarni taqdim etish va tushuntirish	Talabalar mavzuni tushunib, asosiy g'oyalarni eslab qolishadi
Seminar va muhokamalar	Talabalarning fikrlashini rivojlantirish va munozara olib borish	Talabalar o'z fikrlarini aniq ifoda eta olishadi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari oshadi
Amaliy mashg'ulotlar	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali kognitiv ko'nikmalarni mustahkamlash	Talabalar masalalarni mustaqil hal eta olishadi va mediata'lim vositalaridan samarali foydalanishadi
Loyihalar ustida ish	Mustaqil ijodiy faoliyat orqali bilimlarni chuqurlashtirish va hamkorlikni rivojlantirish	Talabalar mas'uliyat bilan ish olib borishadi, guruhda samarali ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishadi
Interaktiv darslar	O'quv jarayonini qiziqarli qilish va faol ishtirokni ta'minlash	Talabalar darsga faol qatnashadi, e'tibor va xotira yaxshilanadi
Muloqot va treninglar	Pedagoglar o'rtasida o'zaro tajriba almashish va ko'nikmalarni oshirish	Ishtirokchilar yangi usullarni o'rganadi, amaliy ko'nikmalar shakllanadi
Keys-stady (holat tahlili)	Real yoki simulyatsiya qilingan vaziyatlarni tahlil qilib qaror qabul	Talabalar muammolarni tahlil qilib, samarali yechimlarni topishga o'rganadi

	qilishni o'rgatish	
Multidistsiplinar guruhlarda ish	Turli fanlar o'qituvchilari bilan hamkorlikda bilim almashish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish	Hamkorlik va ijodiy fikrlash rivojlanadi, keng ko'lamda bilim olishadi
Onlayn vebinar va master-klasslar	Ekspertlar bilan interaktiv muloqot orqali bilim va ko'nikmalarni oshirish	Talabalar yangi ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtiradi, zamonaviy metodlarni o'rganadi
Refleksiya (o'z-o'zini baholash)	O'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga yo'naltirish	Talabalar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o'z ustida ishlashga intiladi

II.3.1-rasm. Mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish shakllarining maqsad va natijalarini belgilash.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning vositalari esa quyidagilardan iborat:

Multimedia ta'lim vositalari – video, audio, animatsiyalar, prezentatsiyalar;

Elektron o'quv resurslari – elektron darsliklar, ta'lim portallari, onlayn platformalar;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – kompyuter, planshet, interaktiv doska;

Internet-resurslar – onlayn ma'lumotlar bazalari, ilmiy maqolalar, elektron kutubxonalar;

Mediaprodakshn vositalari – o'quvchilarga mediamateriallarni yaratish va tahlil qilish imkonini beruvchi dasturlar (masalan, video montaj, audio yozish);

Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan kognitiv faoliyatni uch guruhga ajratish mumkin:

- mediata'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ faoliyat;
- talabalarning mediadidaktik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat;
- mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan kreativ faoliyat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'limni rivojlanganlik ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Shartli ravishda mazkur ko'rsatkichlar 5 ta darajaga bo'linadi:

1. Mediabilimdonlik – media sohasidagi bilimlarni dastlabki shakllantirish bosqichi bo'lib, bunda talabalar media haqidagi klassik axborot va innovatsion yangiliklarni bilishini qamrab oladi. Bu ko'rsatkich taqqoslash, manbalar tahlili, axborotni obyektiv va subyektiv baholash, axborotni ilmiy baholash kabilarni qamrab oladi. Bu ko'rsatkich talabalarni analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativlikni rivojlantirilganligini belgilab beradi.

2. Mediaiste'molchilik – axborotlashgan jamiyatda axborotni “iste'mol qilish” va bunda axborotning aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va manbalarga asoslanganligi nazarda tutiladi. Mediadan repsektiv foydalanishda media sohasida qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantiradi.

3. Mediatanqid – media, mediamanbalar, media resurslarni asosli tanqid qilish va qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasini tavsiflaydi. Bu talabalarning kognitiv faolligini, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativligini hamda refleksiyaning rivojlantiradi.

4. Mediaraqobat – media sohasidagi takliflar o'rtasidagi sof raqobat muhitini anglash va asosli mediamanbalarga tayangan holda ustuvorlikni belgilash ko'nikmasi. Raqobat media vositalari, resurslari o'rtasida emas, balki “iste'molchilar” o'rtasida ham vujudga keladi. Har bir shaxsning ma'lum bir mediadan foydalanish yoki foydalanmaslik qarori uning to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasi bilan asoslanadi.

5. Mediakreativlik – medialar vositasida kreativ g'oyalarni, loyihalarni amalga oshirish. Mediata'lim vositalaridan yuqori natijaga erishish uchun kreativ usullardan foydalana olishi mediakreativlikni tavsiflaydi.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'limning barcha innovatsion media texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalana

oladi hamda o‘z kreativ qobiliyati asosida yangi adaptiv metodlarni shakllantiradi. Mazkur darajalarning umumlashmasi mediamadaniyatni rivojlanganligini ko‘rsatib beradi.

Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan (ya’ni, keng ommaga qiziq va kerak bo‘lgan) axborotga ega bo‘lgan shaxs yoki axborot tashuvchisi hisoblanadi.

Mediasavodxonlik siyosatini ishlab chiqishda uning ko‘lami, maqsadlari va istiqboli turlicha bo‘lishini yodda tutish kerak. Masalan, mediasavodxonlik siyosati xalqaro va milliy shakllarda uchraydi. Mediasavodxonlik siyosati o‘quv rejasining, shuningdek, davlat dasturining bir qismi ham bo‘lishi mumkin. Mediasavodxonlikni sohalar kesimida ko‘rsa bo‘ladi, masalan, kutubxonalar, ta’lim va yoshlar bilan ishlashdagi mediasavodxonlik kabi. Bundan tashqari, hududiy darajadagi mediasavodxonlik siyosati ham bo‘lishi mumkin.

Demak, mediasavodxonlik, jumladan, munitsipalitetlar darajasida turli shakllarda, ya’ni tadqiqotlar, so‘rovlar, intervyular, saytlarni ishlab chiqish, maslahatlar shakllarida ham targ‘ib qilinadi.

Axborot tarqatish texnologiyalarini o‘rganishda **“axborot to‘lqini”** tushunchasi muhim hisoblanadi. “Axborot to‘lqini – bu axborotni tarqatish demakdir. Bu ommaviy axborot vositalarining maqsadli auditoriyasi bilan munosabatiga bog‘liq. Agar voqelikka nisbatan jamiyatning munosabati bo‘lmasa, unda axborot to‘lqini ham bo‘lmaydi”⁷⁵[246; 80-b.].



[//https://youtu.be/iwIOZ22kxIk?si=10NUMvKeVmkiJAVR](https://youtu.be/iwIOZ22kxIk?si=10NUMvKeVmkiJAVR)

Q.R-kod orqali multserial bir qismini tomosha qilib unda yashirin motivlarni payqab guruh bilan muhokama qilish.

Jamiyatni raqamlashtirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish sharoitida yoshlar va kattalarning har tomonlama

⁷⁵ Зырянова М.О. [Способы противодействия распространению фейковой информации](#) – Текст : непосредственный // Общество, социология, психология, педагогика. – 2020. – № 6 (74). – С. 80-83. – ISSN 2221- 2795. – eISSN 2223-6430.

xavfsizligini ta'minlashga, feyk ma'lumotlarga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ma'muriy jihatdan ushbu masala allaqachon tegishli qonunlarni joriy etish va huquqni muhofaza qilish organlarining ishi orqali hal qilinib kelinmoqda.

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga boshlang'ich ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.⁷⁶


O'quv jarayoni tashkilotchilari oldida nokasbiy mediata'limning fanlar zamonaviy tasnifidagi o'rni ham jumboq bo'lib turibdi. Masalan, mediata'limni oliy ta'lim o'quv rejasining qaysi blogiga qo'shish kerak? Uni ko'pchilik umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga, bir nechtasi jurnalistika yoki jamoatchilik bilan aloqalarga qo'shish kerak, degan fikrni bildirishadi. Shu bilan birga, uni tabiiy fanlarga, informatika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari fanlari blogiga qo'shib bo'lmaydi. Fikrimizcha, mediata'lim tamoyillaridan kelib chiqqan holda, uni ijtimoiy fanlar sirasiga kiritish to'g'ri bo'ladi.

Bundan tashqari, kompyuter orqali dars o'tish, kompyuter orqali mavzuda berilgan ma'lumotlarni modellashtirish dars vaqtini tejaydi, o'qituvchining darsga tayyorlanish jarayonini osonlashtiradi. Kompyuterda hodisalarni tasavvur qilishimiz va undan mediaxabar ko'rinishida foydalanishimiz mumkin. Multimedia vositalari (multimedia-ko'p vositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmui.

Mediakompetentlik yuqori darajasiga ega bo'lgan shaxs uchun quyidagi xususiyatlar xarakterlidir:

76 N.Qosimova. Mediasavodxonlik va u nima uchun kerak? -M.,Xurriyat Botlar N. OAVning ABC. Moskva: Evropa, 2011. 136 b. (Siyosiy tadqiqotlar) <https://uzhurriyat.uz/2016/04/05/mediasavodxonlik-va-u-nima-uchun-kerak/>

- yangi ma'lumotlarni olish uchun harakat qilish (intilish);
- hayotining turli sohalarida o'z shaxsiy kompetentligini va har turdagi mediamadaniyat dunyosiga intilish;
- o'qish uchun zaruriy ilmiy materiallar izlab topish;
- media mahsulotlar bilan "doimiy" muloqotda bo'lish;
- media olamida mustaqil ravishda mediamatnlarni shakllantirish va tarqatish (mustaqil yoki guruh bilan birgalikda tayyorlash) malakasiga ega bo'lish;
- mediaga bog'liq bo'lgan (o'yinbop, badiiy, tadqiqot va. h.k) yorqin faoliyat yurita olishi. (II.2.2-rasmga qarang).



II.3.2-rasm. Mediavositalar

Biz global raqobat sharoitida rivojlanayotgan milliy ta'lim tizimlarini yangilash va modernizatsiya qilish davrida yashayapmiz. Zamonaviy dunyoda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilardan yoki o'quv qo'llanmalari orqali oladigan bilimlar, ular turli xil media vositalari orqali topadigan ulkan ma'lumotlar oqimi bilan to'sib qo'yilgan sharoitdadir, shuning uchun ta'lim oluvchilarning mediamadaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning asosiy muammolaridan biriga aylanishi kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan

bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar talabalar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Bunga biz multimedia vositalari asosida ona tilini o‘rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik. Multimediali dasturiy-pedagogik vositalar quyidagi imkoniyatlarga ega:

- o‘quv jarayonini individuallashtirish va farqlash;
- xatolar tashxisi va mulohazalar bilan nazoratni amalga oshirish;
- kompyuter tomonidan oddiy hisoblash va grafik ishlarini bajarish orqali o‘qitish vaqtini tejash;
- o‘quv mashg‘ulotlarida ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim qilish;
- o‘rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni modellashtirish;
- turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish;
- ma’lum bir hodisa yuzasidan o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ta’lim olish uchun motivatsiyani kuchaytirish; kognitiv-faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Demak, ko‘rinadiki, o‘quv jarayonida kompyuter orqali boshqariladigan dasturiy pedagogik vositalardan yoki elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish fanni o‘qitishda va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bu fan haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha ishlab chiqilayotgan multimediali elektron o‘quv qo‘llanmalar quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

- ta’limning minimum mazmuniga muvofiqligi va shu bilan birga ushbu minimal darajadan yuqori bo‘lishi;
- interfaol modellar mavjudligi;
- qarama-qarshi aloqalar mavjudligi;
- o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga sharoit yaratilishi;

- o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlariga muvofiqligi va ularni individual rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati, umumiy qilib aytganda, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish – bu pirovard natijada umumlashtirilgan pedagogik qobiliyatni – kichik yoshdagi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari zamonaviy oliy ta'limni axborotlashtirish jarayonining jadallashuvi bilan tavsiflanadi, bu bir tomondan, media resurslaridan foydalanish va o'quv jarayoniga mediamadaniy texnologiyalarni joriy etish uchun yangi istiqbollarni ochadi, ikkinchi tomondan, pedagogik nazariya va amaliyotni talabalarga jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim berishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi, o'qitishni maksimal darajada individuallashtirish bilan talaba shaxsining kasbiy komponentini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Mediata'lim – bu ommaviy kommunikatsiya vositalarining (massmedia) yordami va materiallari hisobidan ular bilan muloqot qilish madaniyatini, ijodiy, kommunikativ ko'nikmalarni, tanqidiy fikrlashni, to'liq idrok etish, media matnlarni, ya'ni ommaviy media orqali tarqatiladigan turli xil asarlar tahlil qilish, talqin qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun shaxsning rivojlanish jarayonidir.

Ko'rinib turibdiki, mediata'lim (media education) barcha turdagi media (bosma va grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli xil media madaniy va axborot texnologiyalari bilan bog'liq. Bu jamiyatda ommaviy kommunikatsiyalardan qanday foydalanilishini tushunish imkonini beradi, yosh mutaxassislarni axborotga boy jamiyatda hayotga tayyorlash uchun mo'ljallangan va boshqa odamlar bilan muloqot jarayonida mediadan foydalanish qobiliyatini egallashni ta'minlaydi.

Mediata'limning yuqoridagi yo'nalishlaridagi farqlarga qaramasdan, malakaviy amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar tomonidan media ma'lumotlarni passiv idrok etish samarasizdir. Binobarin, ta'lim jarayoniga media resurslarni joriy etishda asosiy

pedagogik vazifa intellektual harakatsizlikni istisno qiluvchi tanqidiy fikrlash, ijodiy vazifalar tizimi orqali media axborotni samarali idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mediaxabarlardan oladigan ma'lumotlar, ta'lim ma'lumotlaridan farqli o'laroq, hissiy tus berish va ma'lumotlarning dolzarbligi kabi jozibali xususiyatlarga ega. Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari media bilan raqobatga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak, u avtoritarlikdan voz kechishi, iste'mol qilingan ma'lumotlardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zi nima olganiga nisbatan talaba aniq nimani olgani bilan ko'proq qiziqishi, talabalarning faoliyatini baholash mezon va usullarni qayta ko'rib chiqishi kerak. Bilimlar inflyatsiyasi holatini, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida hisobga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari OTMning mediata'lim maydoni kontentini, uni faol va zamonaviy tendensiyalarga, shuningdek, talabalar ehtiyojlariga mos keladigan qilib modifikatsiyalash maqsadida ta'limga yo'naltirilgan zamonaviy texnik vositalar va dasturiy ta'minotni tahlil qilishi zarur.

Zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim mazmuniga mos keladigan darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishga qo'yiladigan didaktik talablar o'rganildi.

Elektron darslik quyidagi talablar asosida ishlab chiqiladi:

- darslikning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi,
- taqdim qilinayotgan materialning ilmiy asoslanganligi,
- zamonaviy qarashlarga mosligi, nazariy xatolikka yo'l qo'yilmaganligi va mukammal shakllantirilganligi,
- matnning to'liqligi, grammatik va orfografik xatolardan xoliligi, darslikning uslubiy ishlab chiqilganlik darajasi,
- pedagogik texnologiyalarning qo'llanilganligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarga mosligi,
- bilimlarni mustahkamlash uchun mashqlarning mavjudligi, nazorat materiallarining (topshiriqlar, mashqlar, jumboq va o'yinlar) ishlab chiqilganligi, statik va dinamik tasvirlar, illyustrativ (foto, video, animatsiya va b.) materiallarning yetarliligi,

- o'quvchilar yoshining psixologik va pedagogik xususiyatlari hisobga olinishi. Elektron darslikning ergonometrik talablarga javob berishi,
- rang, shrift, monitor ekrani va shu kabilarga qo'yilgan talablarga mosligi,
- elektron darslikni kompyuterga o'rnatishning qulayligi, darslik bilan ishlash va boshqarishning qulayligi va boshqalar.

Elektron darslikda umumiy didaktik va metodik jihatlar ham inobatga olinadi, ya'ni: ta'lim maqsadlarini tahlil qilish asosida mazkur o'quv predmeti mazmuni aniqlanadi; o'quv predmeti axborot tuzilmasi ishlab chiqiladi va u o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalanadi; kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish hamda o'quv elementlarini o'zlashtirish darajasi avvaldan tashxislanadi.

Elektron darsliklar matnlarning bir qancha ko'rinishda bo'lishi bilan bosma matnlardan farqlanadi. Bu o'quvchilarning mavzuni samarali o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Elektron o'quv manbalar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) elektron interfaol darslik;
- 2) mustaqil ishlash uchun topshiriqlar (mustaqil ish topshiriqlari elektron interfaol doskada ishlash uchun ham mo'ljallangan);
- 3) mavzularga mos filmlardan lavhalar;
- 4) mualliflar haqida.

Bu kabi innovatsion asosga ega bo'lgan ta'limiy texnologiyalar o'quv bilish faoliyatining jadallashuvi va integratsion jarayonlarning vujudga kelishi, mediata'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Bugungi kunda elektron ma'lumotlar bazasidan ilmiy-texnik axborot muassasalari, ilmiy-ta'lim jamoalari, nashriyot va jurnallarning tahririyatlari, internet tizimidan foydalanuvchi tashkilotlar, arxivlar, muzeylar va ilmiy izlanuvchilar keng. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammom va istiqbollari ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Mediata'lim resurslaridan foydalanishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari quyidagilarni amalga oshirishiga e'tibor qaratishi lozim:

- har qanday kontekstda berilgan va turli shakldagi axborot resurslaridan foydalanish;

- izlanayotgan mediata'lim resurslarining nomi, mavzusi va darslik yo'nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo'shimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo'lish;

- mediata'lim resurslaridan olinayotgan material va manbalar, ya'ni barcha materiallarni darslikdagi mavzular bo'yicha tizimlashtirib foydalanishga o'rganish, berilayotgan verbal tarzda (matnli ko'rinishdagi) materiallarni vizual holatga o'tkazish kompetensiyasini shakllantirish, ya'ni berilgan matn asosida ko'rsatmali manbalar yaratish;

- berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko'rinishidagi) materiallarga ishlov berish kompetensiyasini shakllantirish;

- berilgan mediata'lim resursi materiallarini transformatsiya qilish, ya'ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o'zgartirish holatlariga e'tiborli bo'lish;

- berilayotgan informatsion (axborot) oqimning (yo'nalishlari)ni tahlil etish hamda kommunikatsion maqsadlarini bilish;

- mediata'lim resurslaridan olingan materiallarni o'z so'zi bilan aytib berish, asoslash (argumentlash) orqali kommunikativ kompetentligini shakllantirish.

Agar berilgan mediata'lim axborotlar resursi materiallarini argumentlash qobiliyatiga ega bo'lmasa, o'quvchi hech qachon berilgan resurs materiallarini darslik materiallariga uyg'unlashtira olmaydi.

Mediata'limning bir turi internet tarmog'idan foydalanishdir. Internet tarmog'ining ta'lim berish sohasida qo'llanilishi axborot texnologiyalaridan foydalanishning barcha imkoniyatlarini to'liq ochib beradi, sinf-dars tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar bartaraf qilinadi.

Axborot texnologiyalari – jarayonlar haqida ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, tarqatish vazifalarini bajarish, eng keng tarqalgan vositadir. Zamonaviy axborot texnologiyalari oliy ta'limda ma'lumotlarni alamashuv

muammoning yechimiga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi, bu esa inson hayotini saqlab qolish omillaridan biridir.

Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida elektron hujjatlarni yaratish va saqlash masalalarini yoritish, shu mavzuga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bu ma'lumotlar bazasidan foydalanish siyosatini ishlab chiqish zamonaviy ta'lim muassasalarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanuvchilarga zamon talablariga mos ravishda tezkorlik bilan yetkazish hamda ularni elektron ko'rinishga o'tkazish vazifasi asosiy maqsadlarimizdan biridir. Ta'lim muassasalarining keyingi faoliyati davomida ushbu ma'lumotlar bazasi elektron hujjatlarga doir ma'lumotlar bilan to'ldirib boyitilib shakllangan ko'rinishga aylanib boraveradi. Elektron hujjatlarni boshqarish tizimi bu elektron hujjatlarni yaratish, saqlash, manipulyatsiya qilish va joylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beruvchi kirilmalar va dasturlar to'plamidir. Fan va texnikaning misli ko'rinmagan yutuqlariga ega hayotning o'zi axborotlarni yangicha, ilg'or usulda tez yaratish, saqlash, uzatish va ularga ega bo'lishning qulay yo'llarini ko'rsatib bermoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etilishi, elektron axborot olish usuli bosma axborot olish usulidan anchagina qulayligini isbotlab bermoqda. Axborot makoniga kirish, axborot olish usullari osonlashgani uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

Bugungi kunda mediata'limni o'qitish O'zbekistonda keng ommalashib borishiga qaramasdan bizning auditoriyamizda bir nechta muammolar mavjud. Muammo bilan bir qatorda uning tavsiyaviy yechimiga ham to'xtalib o'tamiz.

No	Auditoriyadagi muammolar	Auditoriyadagi muammolar yechimiga tavsiyalar
1.	Oliy ta'limga qabul qilinayotgan talabalarning mediata'lim bo'yicha bilim darajasiga ega	Talabalar uchun kirishdan oldin boshlang'ich darajadagi mediamadaniyat va mediasavodxonlik kurslarini tashkil etish

	emasligi	
2.	O‘quv materialning yetishmasligi	Zamonaviy, yangilangan va interaktiv o‘quv materiallarini yaratish va ulardan erkin foydalanish imkonini yaratish
3.	Darsliklarning izchilligi yaxshi emasligi	Darslik va metodik qo‘llanmalarni standartlashtirish, pedagoglar ishtirokida yagona o‘quv dasturini ishlab chiqish
4.	Guruhda talabalar sonining oshib borishi	Amaliy mashg‘ulotlarda kichik guruhlar shaklida ishlashni yo‘lga qo‘yish, qo‘shimcha guruhlar tashkil etish
5.	Kommunikativ muhitning mavjud emasligi	Interaktiv o‘qitish uslublarini joriy etish, onlayn forumlar, muhokamalar va jamoaviy loyihalarni faollashtirish

II.3.3-rasm. Mediata’limni o‘qitishdagi muammolar.

Ayni damda, o‘qitish mazmunini tanlash va aniqlashda eng ko‘p muammo va hal etilmagan qiyinchiliklarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa butun ta’lim jarayoni natijadorligining pasayishiga olib keladi. Axborot texnologiyalarini o‘qitish muammolari va ularning sifatini oshirish uchun bir nechta majburiy shartlarga amal qilish lozim:

Birinchidan, vazifani qo‘yishda (har bir dars va mashqlar maqsadini belgilashda), axborot texnologiyalarini oliy ta’limda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, “o‘qishdagi bir qiyinchilik” tamoyiliga og‘ishmay amal qilish lozim. Bu shuni anglatadiki, o‘quv materialining yangi qismi avval o‘zlashtirilgan materialni hisobga olgan holda berilishi lozim va undan mantiqan kelib chiqishi kerak. Shundagina materialning o‘xshashligi, analogiyasi bo‘yicha, assotsiatsiyalar asosida o‘zlashtirilishini ta’minlash mumkin, bu esa oliy ta’limda mediata’limni o‘rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, mashg‘ulotning maqsadi – yangi grammatik ko‘nikmani shakllantirish bo‘lsa, unda ushbu maqsadga erishishga xizmat qiladigan butun leksika talaba tomonidan avvalroq o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, o'qitishning har bir bosqichida, har bir blokda (darsda) talaba o'z mas'uliyati hajmini aniq tasavvur qilishi kerak, bu mas'uliyat talabani o'z sohasiga doir yangi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, talaba har bir dars jarayonida nimani o'rganishi kerakligini aniq bilishi lozim (bilim, ko'nikma, malakalar).

Uchinchidan, darslik talabaga o'zini nazorat qilish, o'qituvchiga esa – berilgan vazifaning bajarilishi natijasini nazorat qilish va baholash imkoniyatini ta'minlashi lozim.

O'qitishning texnik vositalarini bir qator mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

- funksional maqsad bo'yicha;
- ta'lim turlari bo'yicha;
- qurilma va ishning fizik tamoyillari bo'yicha;
- ish mantig'iga ko'ra;
- axborotni taqdim etish xususiyatiga ko'ra;
- sezgilarga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra.

Audio va ayniqsa, kompyuter shakliga aylantirilgan video ma'lumotlar, uni saqlash uchun juda ko'p joy talab qiladi. Shuning uchun multimedia xossalariga ega bo'lgan dasturiy mahsulotlar (darsliklar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, o'quv elektron kurslari) odatda kompakt disklarda tarqatiladi. Ya'ni, ushbu mahsulotlardan foydalanish uchun DVD/CD-ROM drayveri talab qilinadi. Kompyuterda ovoz va video bilan ishlash uchun har xil turdagi qurilmalardan turli formatlarda taqdim etilgan audio va video ma'lumotlarni qayta tinglash, tahrirlash, yozib olishni ta'minlaydigan ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan.

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning bir necha xil shakllari mavjud. Shular ichida uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida qo'llanilishi.

Raqamli vositalar o'quv jarayonining barcha bosqichlarida – nazariy bilim berish (ma'ruza), amaliy mashqlarni bajarish, laboratoriya ishlarini bajarishda faol qo'llaniladi. Bu jarayonda talabalarga murakkab tushunchalarni tushuntirish uchun vizual, audio yoki interaktiv materiallar ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.

2. Sinfxonada o'qituvchi tomonidan qo'llanilishi. O'qituvchilar dars davomida multimedia resurslaridan (prezentatsiyalar, videoroliklar, interaktiv testlar) foydalanib, mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli tarzda yoritadilar. Bunda interaktiv doskalar, proyektorlar, simulyatsion dasturlar katta yordam beradi.

3. O'qituvchi va talabalar tomonidan yaratilgan yoki tayyor shaklda mavjud bo'lgan taqdimotlar. Talim jarayoniga taqdimotlar keng joriy etilgan. Bu taqdimotlar o'qituvchi tomonidan tayyorlanishi yoki talabalar tomonidan mustaqil ravishda yaratilib, auditoriyada namoyish etilishi mumkin. Bundan tashqari, internet orqali mavjud bo'lgan tayyor taqdimotlar ham o'quv jarayonini boyitadi.

Raqamli ta'lim resurslarining asosiy turlari. Quyidagi elektron ta'lim vositalari talabalarning mustaqil o'qishini qo'llab-quvvatlaydi, bilimlarni chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi:

Elektron ensiklopediyalar. Masalan, "Buyuk Kiril va Mifodiy ensiklopediyasi" singari ilmiy-ma'lumotnoma xarakteridagi raqamli manbalar talabalar uchun ishonchli axborot manbaidir.

Elektron darsliklar. Talabalar darslik asosida nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, so'ngra virtual laboratoriyalar orqali eksperimentlar bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interaktiv treninglar. Masalan, imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda yoki test topshiriqlarini mashq qilishda foydalaniladi. Bu vositalar talabaning bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Test konstruktorlari. O'qituvchilar mustaqil ravishda test savollarini tuzadi, tizim esa avtomatik tarzda baholaydi va natijalarni elektron jurnalga kiritadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan dars turlari. Zamonaviy darslarni texnologik jihatdan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Demo rejimdagi darslar (ma'ruzalar). Kompyuter va proyektor yordamida o'qituvchi mavzuni tushuntiradi, grafik va video materiallar orqali tushunishni osonlashtiradi.

2. Interaktiv doskadan foydalaniladigan darslar. O'qituvchi matn yozadi, chizmalar chizadi, videolarni ko'rsatadi, talabalar bilan jonli muloqotda bo'ladi.

3. Individual tarzda o‘qitiladigan darslar. Talabalar mustaqil tarzda internetga ulangan kompyuterlar orqali mashqlar bajaradi yoki darsliklar bilan ishlaydi. Bunday darslar, ayniqsa, mustaqil ta’lim uchun qulaydir.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilayotgan asosiy raqamli o‘quv vositalari quyidagilardir: interaktiv doskalar, ovoz berish tizimlari (auditoriyada interaktiv savollar va javoblar uchun), turli xil o‘quv dasturlari (masalan, til o‘rgatuvchi yoki fanlarga oid dasturlar), multimedia ekranlari, tarmoqqa asoslangan ta’lim platformalari (LMS, Moodle, Google Classroom), simulyatsion texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, 3D modellash), diagnostik vositalar (elektron testlar, bilim darajasini baholash tizimlari).

Zamonaviy ta’limda raqamli va multimedia vositalaridan foydalanish talabaning bilim olishini qiziqarli va interaktiv qiladi, o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etishiga yordam beradi, mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi. Shuning uchun, raqamli ta’lim vositalari – bugungi ta’limning ajralmas qismiga aylangan.

Zamonaviy ta’limda interaktiv doskalar (masalan, SMART Board) va boshqa raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish dars jarayonini samaraliroq, mazmunliroq va dinamikroq o‘tkazishga xizmat qiladi. Bu vositalar yordamida o‘quv jarayonida video, audio, matnli, vizual va interaktiv resurslardan kompleks foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Interaktiv doskalar imkoniyatlari. Interaktiv doskaning afzalliklaridan biri shuki, o‘qituvchi minimal jismoniy kuch va vaqt sarflagan holda zamonaviy axborot maydonidan samarali foydalana oladi. Ular quyidagi texnik va funksional imkoniyatlar bilan ajralib turadi:

Kompyuter bilan simsiz ulanish (Bluetooth orqali) – bu dars davomida yozilgan yoki kiritilgan ma’lumotlarni avtomatik tarzda kompyuterda saqlash imkonini beradi. Elektron markerlar yordamida matnni ajratib ko‘rsatish, tahrirlash, rang va chiziq qalinligini o‘zgartirish orqali materialni sharhlash mumkin. Virtual klaviatura orqali matn kiritish, test savollariga javob yozish va real vaqt rejimida ularni namoyish qilish imkoniyati mavjud.

Interaktiv doska ko'rgazmali test ishlash, grafik qurish, krossvord yechish, elektron taqdimotlar bilan ishlash kabi topshiriqlarni bajarishga imkon yaratadi.

Masalan, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanida talaba interaktiv doskada matndan asosiy fikrni ajratadi, boshqa talabalar esa uni tahlil qilib, elektron marker orqali to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni belgilashadi.

Interaktiv dars shakllari. Interaktiv doska yordamida darsni turlicha usullarda tashkil etish mumkin:

1. Individual topshiriqlarni bajartirish: Oldindan tayyorlangan fayl (masalan, PowerPoint) yordamida talaba grafik chizadi, tushunchalarga imzo qo'yadi yoki krossvord yechadi.
2. Talabalar javoblarini baholash: Talabaning javoblari boshqa guruhdoshlar tomonidan ko'rib chiqiladi, tuzatishlar marker bilan amalga oshiriladi.
3. Interaktiv xaritalar va modellar bilan ishlash: Vizual vositalar yordamida tushunchalarni aniq va esda qolarli ko'rinishda ifodalash imkonini beradi.
4. Videokonferensaloqa: Interaktiv doska yordamida turli hududdagi ishtirokchilar o'zaro real vaqt rejimida muloqot qilishi mumkin, bu esa masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Interaktiv so'rov tizimi (auditoriya baholash tizimi). Pedagogik amaliyotda o'quv jarayonini yanada interaktiv qilish uchun simsiz so'rov pultrlari (masalan, Clickerlar) keng qo'llaniladi. Bu tizim orqali: har bir talabaga individual savollar yuboriladi, javoblar avtomatik tarzda qayd etiladi va tahlil qilinadi, talabaning materialni qanday o'zlashtirgani aniqlanadi, o'qituvchi har bir talabaning bilim darajasini aniq nazorat qila oladi. Bu yondashuv orqali differensial yondashuv, ya'ni har bir talabaga individual yondashuv imkoniyati yaratiladi.

Elektron pochta va onlayn aloqalar. Ko'pchilik o'qituvchilar va talabalar o'zlarining elektron pochta manzillari orqali o'zaro muloqotda bo'ladilar. Elektron pochta quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: o'qituvchiga savollar yuborish (masalan, imtihonga tayyorgarlik bo'yicha), darslik, maqola, slayd yoki boshqa resurslarni elektron ko'rinishda yuborish, onlayn jurnallarga obuna bo'lish, yangilik byulletenlarini olish.

Elektron va multimedial darsliklar. Multimedia darsliklari tashkil etilishiga ko'ra uch xil shaklda bo'ladi:

1. CD-ROM shaklida (bosma ilova bilan yoki ilovasiz);
2. Internet-saytlar orqali (masalan, interaktiv platformalar);
3. CD-ROM + internet havolalari kombinatsiyasida.

Elektron darsliklardan foydalanishning afzalliklari: talabaga individuallashtirilgan o'qish tezligi bilan ishlash imkonini beradi, har bir talaba ta'lim subyektiga aylanadi – ya'ni, faollik va boshqaruv o'zida bo'ladi, ta'lim jarayoni "muloqotli o'yin" xarakterini oladi, bu esa motivatsiyani oshiradi, axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlashning an'anaviy usullarini zamonaviylashtirish imkonini beradi. Masalan, elektron darslikda talabaga nazariy material, amaliy topshiriqlar, o'z-o'zini nazorat qilish va test topshiriqlari taqdim etiladi. Talaba o'z nomi bilan tizimga kiradi va faoliyatini monitoring qiladi.

Interaktiv texnologiyalar, xususan, interaktiv doskalar, elektron darsliklar, onlayn platformalar va raqamli baholash vositalari yordamida o'quv jarayoni talabalar uchun qiziqarli va ko'rgazmali bo'ladi, kognitiv (aqliy) faoliyatni rivojlantiradi, tezkor baholash va individual yondashuv imkonini beradi, o'qituvchi uchun vaqtni tejaydi, talaba uchun esa o'z ustida ishlashga rag'batlantiradi.

Shu bois, bunday vositalardan foydalanish bugungi ta'limda nafaqat dolzarb, balki zarur hisoblanadi.

II bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarida innovatsion ta'lim muhit talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish asosida quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barcha toifalari kesimida mutaxassislik fanlari bo'yicha malaka talablarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish; kompetensiyaviy yondashuv asosida vujudga keltiriladigan innovatsion ta'lim muhiti talablarini e'tiborga olish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish kurslarini ehtiyojga asoslangan holda tashkil etish; malaka oshirish kurslarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

pedagogik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo'lga qo'yish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e'tiborni o'quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratish; Natijada, mediakompetentlikka ega mutaxassis o'z bilimlarini izchil boyitib, yangi axborotlarni o'zlashtirib, davr talablarini chuqur anglab, yangi bilimlarni izlab topib, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda elektron ma'lumotlar bazasidan ilmiy-texnik axborot muassasalari, ilmiy-ta'lim jamoalari, nashriyot va jurnallarning tahririyatlari, internet tizimidan foydalanuvchi tashkilotlar, arxivlar, muzeylar va ilmiy izlanuvchilar keng. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy qilish muammom va istiqbollari ko'rib chiqish favqulodda muhimdir.

Ayni paytda mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga boshlang'ich ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.

Ijodiy fikrlash, eng avvalo, tanqidiy fikrlash kabi mustaqil tafakkur yuritish shaklidir. Fikrlash mustaqil bo'lgandagina, ijodiy fikrlash bo'la oladi. Hech kim birov uchun ijodiy fikrlab bera olmaydi. O'quv jarayonida bolalar uchun mustaqil fikrlash va o'ta murakkab masalalarni ham mustaqil hal qilishga imkoniyat yaratish zarur. Olingan axborot ijodiy fikrlash uchun boshlangan nuqta bo'lib, aslo oxirgi bekat vazifasini o'tamasligi lozim. Boshqacha aytganda, ijodiy fikrlash axborot, dalillarni olishdan boshlanadi. Yangi bilimlar ijodiy fikrlash uchun intilishni paydo qiladi.

III BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA‘LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

III.1. Malaka amaliyoti davrida talabalarda mediata‘lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni⁷⁷ hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarori⁷⁸, shuningdek, ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini e‘tiborga olgan holda kadrlarni o‘qitish usul va shakllarini, fan, o‘quv jarayoni va amaliyot integratsiyasini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 202-sonli buyrug‘i⁷⁹ tasdiqlandi. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomi ushbu buyruq ilovasida tasdiqlandi. Mazkur buyruqqa muvofiq pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari kunduzgi ta‘lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot (faoliyat turlari bo‘yicha) o‘tashlari belgilandi.

Malaka amaliyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv (ishchi o‘quv) rejalariga muvofiq oliy ta‘lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qiluvchi tashkilot bilan kelishib tasdiqlanadigan malaka amaliyoti dasturi asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv (ishchi o‘quv) rejalarida keltirilgan umumkasbiy, mutaxassislik fanlari blokidagi tegishli fanlarning amaliy mashg‘ulot darslarini bevosita ishlab chiqarish sohasining yetakchi korxona, muassasa, tashkilotlarida malakali

⁷⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son

⁷⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2022 yildagi PQ-289-son

⁷⁹O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 13-iyundagi 202-sonli buyrug‘i

mutaxassislarni jalb etgan holda tasdiqlangan dars jadvali asosida tashkillashtirish hamda ushbu mashg'ulotlarni malaka amaliyotining bir qismi sifatida qabul qilish mumkin. Bunda, o'quv (ishchi o'quv) rejalarda belgilangan va taqsimlangan soatlari to'liq bajarilishini ta'minlash shart.

Malaka amaliyoti – nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitida davom ettiriladigan tarkibiy qismi;

Shu yerda “Agar kimda-kim maktab bu faqat Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, bu juda xato fikr va xato yondashuv. Butun elimiz bilan, butun jamiyatimiz bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga e'tibor bermasak, qo'ygan natijalarimiz bo'lmaydi. Bir kun emas, bir soat ham kechiksak, iqtisodiyotimizga, ertangi kunimizga, yoshlarimizga katta ziyon bo'ladi”⁸⁰, - degan edilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Yevropa tajribasiga tayangan holda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta'lim kompetensiyalarini tanlash va ularni ta'lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish maqsadida shu kompetensiyaviy tizimga qabul qilindi.

Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning

⁸⁰ <https://www.gazeta.uz> Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi bu – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallab borishdi. O‘z-o‘zini tarbiyalash – bu shaxs tomonidan shaxs sifatida uni maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan ongli faoliyat. O‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishga asoslanib, u aniq amalga oshirilgan maqsadlar, ideallar va shaxsiy ma’nolarning mavjudligini taxmin qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakaviy amaliyotni o‘tash uchun mutaxassislikka kirish, pedagoglik kasbiga kirish, boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani, umumiy psixologiya, ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi, matematika va uni o‘qitish metodikasi kabi fanlarni mukammal darajada bilishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim fanlari va malakaviy amaliyot uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv tanishuv davomida biriktirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining ijtimoiy muhiti, ta’lim muhiti, muassasa subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va o‘qituvchilarning metodik usullarini o‘rganib ular haqida amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak.

Malakaviy amaliyot jarayonida ular sinf xonalarini zamonaviy talablar asosida jihozlashga, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, dars ishlanmalari, uslubiy tavsiyanomalar va boshqa kerakli materiallarni mukammal egallaydilar.

Mediata’limga yondashuvning eng oddiy usullaridan biri yoshlar bilan mediakontent, kontekst va ularni yaratish borasidagi suhbatlar hisoblanadi.⁸¹ Demak, mediata’limni rivojlantirish va bu orqali mediakompetentlikni shakllantirish yoshlarni turli zararli g‘oyalar va oqimlar ta’siriga tushib qolmasliklarining samarali ta’sir mexanizmi hisoblanadi.

⁸¹ Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.62.

“Tarbiya” darslarini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o‘quvchilarda mustaqil ishlash, shuningdek, ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda “Juftlikda ishlash”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Daraxt yechimi”, “Tugallanmagan gap mashqi”, “Charxpalak”, “Adashgan so‘zni topish”, “Chalkash ma’lumotlar”, “Alifbo”, “Tarozi”, “Loto”, “Qora quti” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchi mehnati samaradorligini ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchi va talabalarning o‘quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta’lim jarayoni yaxlitligini ta’minlaydi. O‘quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o‘quvchi ongining predmetiga aylanishidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta’lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o‘quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta’minlashi zarur.

O‘qituvchi dars vaqtida boshqa ma’lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma’lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o‘xshash mavzuga doir qo‘shimcha ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tsa, bu nafaqat o‘quvchilarning darsga bo‘lgan intilishini oshiradi, balki o‘quvchilarning erkin o‘qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to‘la o‘zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z g‘oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

“Tarbiya” darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, tahlil qilish ona tili darslarini yanada kengaytirish ushbu yo‘lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish, ta’lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda.

Yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo'llanilgan usullar o'quvchilarning intellektual faolligi, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko'nikmalarining malakaga aylana borishini ta'minlaydi. Ta'lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablarga mos holda talabalarning media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk qilib voyaga yetkazish talaba-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar mediakompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi (3.1.1-jadvalga qarang).

Kasbiy kompetentlik	Mafkuraviy kompetentlik	Boshqaruv kompetentlik	Mediakompetentlik
Kasbiy kompetentlik muayyan fan bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga egaligi	Mafkuraviy kompetentlik-g'oyaviy jihatdan aniq maqsadi bor, o'z irodasi, iymon-e'tiqodi, vijdoni, qarashlariga egaligi, yot mafkuralarga qarshi kurasha olishi	Boshqaruv kompetentligi - o'qituvchining darsni boshqarishi, sinf jamoasini boshqarish uchun didaktik, psixologik, metodik, texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishi	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi (pedagog) mediakompetentligi-matbuot vakolatlari, uning sababalari, bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga mediata'lim bilimlarini targ'ib qilishi

III.1.1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetentlik turlari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga maqsadli tayyorlashning individual ta'lim strategiyasini loyihalash o'rni va rolini aniqlash hamda didaktik jarayonini sifatli va samarali tashkil etish va o'tkazishda quyidagilar: birinchidan, mamlakatimizning chekka hududlarini ham yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulash, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish, moddiy texnik bazani yaxshilash; ikkinchidan, ta'lim samaradorligi doimo o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog'liqligini inobatga olgan holda o'quv jarayonining raqamli texnologiyalar va ta'limning integratsiyasida o'qituvchining rolini aniqlash; uchinchidan, pedagogikaning fan sifatidagi nisbiy inersiyasi raqamli texnologiyalarning tez, yashin tezligida joriy etilishiga erishish; to'rtinchidan, raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog

kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha tashkiliy sharoitlar yaratish zarurligi aniqlangan.

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar orqali tashkil etilayotgan kurslar kun sayin takomillashib bormoqda. Bu holatda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va uning dasturiy ta'minotini yaratish hamda mazmun bilan to'ldirish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi aniqlandi:

1. Raqamli texnologiyalar va mediata'lim uyg'unligini ta'minlash, bunda androgog ta'lim beruvchi o'zining o'quv faoliyati davomida ta'lim oluvchilar uchun raqamli texnologiyalar asosida media muhitni yaratishi, ularning mediasavodxonligini oshirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni joriy qilishi, raqamli texnologiyalar yutuqlaridan ta'lim berish jarayonida samarali foydalanishiga e'tibor qaratish zarur.

2. Global internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish va axborotlarni farqlay olish – bunda mediakompetentlikning ushbu tuzilmasi ta'lim beruvchi tomonidan global tarmoqda mavjud axborotlarni qidirish, topish va ularni sintez qila olish, topilgan axborotlarni farqlay olish hamda ta'lim oluvchilarga to'g'ri yetkazib berishga e'tibor qaratiladi.

3. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirish – bunda ta'lim beruvchi media ta'lim berish sharoitida kreativlik, ijodkorlik va novatorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ta'lim berish jarayonida yangi texnika va texnologiyalarni har qanday auditoriyaga moslashi va ulardan oqilona foydalana olishi muhim sanaladi.

4. Mediakompetensiyalarni rivojlanganligini darajalarga ajratish–bunda mediata'lim jarayonida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini aniqlashga qaratiladi. Chunki ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning mediakompetensiyalarni rivojlanganlik darajalariga qarab ta'lim jarayonini tashkil etadi.

5. Ilm-fan taraqqiyoti strategiyasidan boxabar bo'lish – bunda mediata'lim muhitida faoliyat yuritayotgan har qanday ta'lim beruvchi sohada yuz berayotgan ilm-fan yangiliklari, kashfiyotlar

hamda yutuqlaridan boxabar bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatiga joriy eta olishiga harakat qiladi.

Malaka amaliyoti–talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonini real sharoitda kuzatish va mustaqil faoliyat yuritishga o'rganish bosqichidir. Bu jarayon orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z mutaxassisliklariga oid pedagogik faoliyatni chuqurroq anglaydilar. Malaka amaliyoti davomida talabalar quyidagi mediata'lim elementlaridan foydalanishlari mumkin: raqamli darsliklar va multimediali materiallar, elektron test va interaktiv topshiriqlar, videodarslar va ta'limiy videoroliklar, onlayn platformalar (Google Classroom, Zoom, Quizizz, Kahoot) orqali mashg'ulotlar tashkil etish.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, pedagogik malaka amaliyoti davrida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mediata'lim vositalaridan foydalanish – nafaqat zamon talabi, balki ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida muhim strategiyadir. Malaka amaliyoti talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, pedagogik mahoratini shakllantirish bosqichi bo'lib, mediata'lim elementlari bu jarayonda kognitiv faoliyatni faollashtirishda katta ahamiyatga ega.

Malaka amaliyoti davomida quyidagi asosiy mediata'lim vositalaridan foydalaniladi:

Mediata'lim vositasi	Maqsadi va qo'llanish usuli
Animatsion videolar va multfilmli darslar	Yosh o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan ta'limiy mazmunni yetkazadi. Bu orqali e'tiborni jamlash, eslab qolish kuchayadi.
Elektron darsliklar	Talabalarga mavzuni tushuntirishda zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. O'quvchilarda mustaqil o'rganish va takrorlash ko'nikmasini shakllantiradi.
Prezentatsiyalar (PowerPoint, Canva)	Mavzuni vizual tarzda tushuntirish, diqqatni jalb qilish, asosiy tushunchalarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Animatsion videolar va multfilimli darslar	Yosh o‘quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lgan ta’limiy mazmunni yetkazadi. Bu orqali e’tiborni jamlash, eslab qolish kuchayadi.
Interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz, Wordwall)	Baholash, o‘yin orqali o‘rganish va bilimlarni mustahkamlashda foydali. O‘quvchilar faol ishtirokchi bo‘lishadi.
Audio va video yozuvlar	Matnli ma’lumotlarga alternativ sifatida eshitish orqali tushunish, talaffuz, nutq rivojlanishiga xizmat qiladi
Elektron jurnallar va testlar	O‘quvchi bilimini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan, samarali baholash vositalaridir.

III.1.2-rasm. Malaka amaliyoti davomida foydalaniladigan mediata’lim vositalari.

Malaka amaliyoti davomida talabalar mediata’lim elementlarini quyidagi usullar orqali dars jarayoniga integratsiya qilishlari mumkin:

- darslarni interaktiv tarzda rejalashtirish – har bir mavzu uchun mediaelementlar (rasm, audio, video) asosida slaydlar tayyorlash;
- mashg‘ulotlarni QR-kodlar orqali boyitish – QR orqali o‘quvchilarga onlayn manba, videodars yoki testlarni ulashish;
- guruhli ishlar va loyihaviy metodika asosida media-loyihalar tayyorlash – masalan, o‘quvchilar bilan birgalikda ekologik mavzuda video-rolik tayyorlash;
- real vaqtli baholash – Kahoot yoki Quizizz orqali dars so‘ngida o‘quvchilar bilimini baholash va tahlil qilish;
- multimedia doskalaridan foydalanish (interaktiv doskalar) – yozish, chizish, javoblar yozish orqali kognitiv faoliyatni rivojlantirish;
- Google Classroom yoki boshqa LMS tizimlarida topshiriqlarni tashkil etish – mustaqil ishlarga yo‘naltirish va onlayn nazorat.

Zamonaviy ta’lim tizimi tez sur’atlarda rivojlanmoqda va bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalarni darslarda qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, malakaviy amaliyot paytida bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o'qituvchilari uchun bu texnologiyalarni o'zlashtirish va samarali qo'llash kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyat garovi bo'ladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu o'quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va individuallashtirgan tarzda tashkil etishga qaratilgan yangi yondashuvlar va usullar majmuasidir. Ular mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikni oshirishga yordam beradi.

Amaliyot davomida quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin: Klaster (guruhlash) texnologiyasi, Insert texnologiyasi (belgilab o'qish), “Aqliy hujum” texnologiyasi, “Rol o'ynash” texnologiyasi, AKT vositalaridan foydalanish (multimedia, interaktiv doska, ilovalar) va h.k. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning darsga qiziqishi 30-40%ga oshadi, mavzuni tushunish darajasi ancha yaxshilanadi, mustaqil fikrlash va tahliliy ko'nikmalari rivojlanadi, texnologiyalardan foydalanish malakasi o'qituvchida ham, o'quvchida ham oshadi.

Amaliyotchi talabalar mediata'lim elementlari, Prezi, Kahoot, Wordwall, Quizz kabi platformalardan foydalanishadi, rolli o'yinlar, diagramma va slaydlar yordamida darsni qiziqarli va zamonaviy tashkil etishadi, audio va video materiallar asosida diktant, hikoya tuzish, test sinovlari o'tkazishadi. Ammo, ba'zi maktablarda internet yoki texnik vositalar yetarli emasligi, ayrim ustozlar yangi texnologiyalarni to'liq o'zlashtirmaganligi, talabalar o'zlari ham ba'zan AKTni yetarli darajada bilmasliklari kabi muammolar uchray turadi.

Ana shu kabi muammolarga duch kelmaslik uchun amaliyot oldidan innovatsion texnologiyalar bo'yicha qisqa kurslar tashkil etish, maktablarda raqamli sinf infratuzilmasini rivojlantirish, har bir talabaga metodik qo'llanma va tayyor resurslar bazasini yaratish kabi ishlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Amaliyot jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash va texnologik savodxonlik kabi zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga poydevor bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, amaliyot paytida mediata'lim elementlarini qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, talabalarning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini kuchaytiradi, pedagogik jarayonni samarali va zamonaviy qiladi. Malaka amaliyoti davomida mediata'lim vositalaridan oqilona va maqsadli foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'zlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu esa kelajak ta'lim tizimida raqamli pedagogikaning muhim o'ringa ega bo'lishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv metodlar soni yuzdan oshib ketgan. Ular orasida amaliyotda o'z samaradorligini isbotlagan, tajribada sinovdan o'tgan turlari keng qo'llanilmoqda. Masalan, "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabi usullar orqali darslarni qiziqarli va unumli o'tish mumkin.

Darsning har bir qismida tegishli metodlardan foydalanish tavsiya etiladi: o'tilgan mavzuni so'rashda – "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi"; yangi mavzuni tushuntirishda – "INSERT", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang"; mavzuni mustahkamlashda – "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Kontseptual jadval", "Nilufar guli", "T-shakldagi jadval", "Charxpalak", "Rezyume", "Kungaboqar"; uy vazifasini berishda – "FSMU", "Klaster", "BBB" kabilardan samarali foydalanish mumkin.

Bu kabi usullar UNESCO e'tirof etgan, Dilafruz Xidoyatovanning "Samarali interfaol metodlar" kitobida ham atroflicha yoritilgan. Ushbu kitobda taklif etilgan ayrim yangi metodlar bilan tanishamiz:

"Aktivator 3-2-1" usuli. Bu usul refleksiv metodlar qatoriga kiradi va uni darsning boshida yoki oxirida qo'llash mumkin. Unda o'quvchi o'z bilimi va hissiyotlarini quyidagi sxema asosida bayon etadi:

Esimda qoldi (3) – darsda yodida qolgan 3 ta ma'lumot;

Muhim bo‘ldi (2) – u uchun eng ahamiyatli deb topilgan 2 ta nuqta;

Qo‘llayman (1) – amaliyotda qo‘llashni rejalashtirayotgan 1 ta g‘oya yoki xulosa.

Bu yozma ravishda, yakka tartibda bajariladi. Ushbu usul orqali o‘quvchi dars mazmunini qayta ko‘rib chiqadi, kerakli ma‘lumotlarni mustahkamlaydi va boshqalar fikri orqali o‘z bilimlarini boyitishi mumkin. Bu usulni Google Forms, Mentimeter, Padlet, Jamboard kabi platformalar orqali onlayn formatda o‘tkazish mumkin. O‘quvchilar savollarga javobni smartfon yoki kompyuter orqali kiritadi, natijalar interaktiv ekranda real vaqtda aks etadi. Bu jamoaviy fikr almashishni tezlashtiradi va vizual tahlil imkonini beradi.

“Kayfiyat haqida axborot” metodi. Bu usul o‘quvchilarga o‘z kayfiyatini tabiat obrazlari orqali – masalan, ob-havo, hayvonlar yoki o‘simliklar vositasida – ifodalash imkonini beradi. Bunday ish shakli 3–5 daqiqa davom etadi va yozma shaklda amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchi shaxsiy hissiyotlarni ifodalash, fikrlash va ijodiy nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi; o‘qituvchi uchun sinfdagi ruhiy muhitni baholash imkoniyatini yaratadi; talabalarning yashirin qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlashda yordam beradi. O‘quvchilar Google Slides, Canva yoki Padlet orqali o‘z kayfiyatlarini rasm, emodji, gif yoki ovoqli xabar bilan ifodalashlari mumkin. “Wordcloud” (so‘z buluti) servislari orqali sinf kayfiyatini umumiy ko‘rinishda taqdim etish mumkin. Bu esa o‘quvchining o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatini orttiradi, o‘qituvchi darsdagi umumiy ruhiy muhitni tezda baholaydi, emotsional intellektni tarbiyalashga yordam beradi.

“3, 4, 5, 6, 7” usuli. Bu nom harflar soniga asoslangan. Ya’ni o‘quvchilar mavzuga oid 3, 4, 5, 6 va 7 harfdan iborat atamalarni, kalit so‘zlarni topishlari va daftariga yozishlari kerak. Bu darsning boshida yoki oxirida qo‘llaniladigan qiziqarli va foydali refleksiv mashqdir. Bunda o‘quvchi dars mavzusini yodda saqlaydi va mustahkamlaydi, so‘z boyligi oshadi to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi rivojlanadi. Boshqalarning javoblari orqali o‘zi yozmagan atamalarni va ma‘lumotlarni o‘zlashtiradi. Agar mavzu doirasida 3 harfli so‘zlar mavjud bo‘lmasa, usul “4-5-6-7” shaklida

moslashtirilishi mumkin. Unga dars mavzusiga qarab turlicha yondashish mumkin. O'quvchilar "Quizizz", "Kahoot", "Wordwall" kabi platformalarda harflar soniga ko'ra so'zlar tuzish bo'yicha test yoki o'yinlarni bajaradi. Shuningdek, "Padlet" yoki "Google Docs" orqali jamoaviy ish shaklida so'z topish vazifalari tayyorlash mumkin. Bunda o'quvchilar mavzuga oid atamalarni va imloni raqamli platformada o'rganadilar, masofaviy hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi, darsga qiziqish va raqobat ruhi oshadi.

Bu kabi interaktiv usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi, darsni mazmunli va qiziqarli qiladi, hamda ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nutqni ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Interaktiv metodlarni mediata'lim bilan integratsiya qilish esa, darsni raqamli, jonli va samarali tashkil etishga, o'quvchilarda raqamli kompetensiyalar, mustaqillik va ijodkorlikni shakllantirishga, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan va individuallashtirish shakliga o'tishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni takomillashtirish texnologiyalarini o'rgatish samarali natijaga olib keladi. Bugungi kunda ta'lim jarayoni raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir. Bu jarayonda talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati, axborotni tahlil qilish salohiyati va samarali o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mediata'lim texnologiyalari orqali kognitiv faoliyatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediata'lim – bu talabalarni axborot manbalarini tanqidiy baholash, ularni tahlil qilish va qayta ishlash, shuningdek, mediamateriallar yaratish kabi ko'nikmalarga o'rgatishni maqsad qilgan ta'lim usulidir. Bu texnologiya o'quvchida axborotni to'g'ri qabul qilish bilan birga, uni mustaqil ravishda tahlil qilishga ham yo'l ochadi. Kognitiv faoliyat esa insonning aqliy jarayonlarini, ya'ni diqqat, xotira, idrok, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ta'limda bu qobiliyatlarni rivojlantirish – bilimni samarali o'zlashtirish uchun zarurdir.

Mediata'lim orqali kognitiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari quyidagilardan iborat:

1. Interaktiv video darslar: Videolar orqali ma'lumot berilib, so'ng ular asosida savol-javob, tahlil va muhokamalar tashkil etiladi.

2. Keys va loyiha usuli: Real hayotga yaqin muammolarga yechim topish orqali tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

3. Onlayn testlar va mobil ilovalar: Axborotni qayd etish, eslab qolish va tekshirish jarayonlarini tezlashtiradi.


4. Media-kontent yaratish: Talabalar infografika, videorolik yoki maqola tayyorlashi orqali axborot bilan ishlash salohiyatini oshiradi.

5. Muloqot va muhokamalar: Zoom, Google Meet kabi platformalardagi jonli muhokamalar orqali tanqidiy fikrlash va bayon qilish qobiliyati rivojlanadi.

Ushbu texnologiyalar aqliy faoliyatni jonlantiradi, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi, ta'lim jarayonini faol va interaktiv qiladi, talabalarda raqamli savodxonlik va axborotni filtrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.


“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanini o'qitishda talabalar-da kognitiv faoliyatni rivojlantirish uchun mediata'lim asosida quyidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish juda samarali hisoblanadi:

Kahoot, Quizizz, Mentimeter kabi interaktiv platformalar va dasturlardan foydalanish orqali savol-javob, test, mulohaza so'rash kabi mashg'ulotlar yordamida darsni jonli va qiziqarli o'tkazish mumkin. Buning natijasida talabalarda fikrlash tezkorligi, eslab qolish, ahamiyat berish kabi kognitiv qobiliyatlar rivojlanadi.




III.1.3-rasm. Kahoot platformasi yordamida test ishlash.

Padlet, Jamboard (Google) dasturlari guruhlarda interaktiv taqdimotlar, fikrlar devori, matn tahlili uchun yordam beradi. Ogʻzaki va yozma nutqni boyitish, matndan asosiy gʻoyani ajratishni oʻrgatadi. Padlet – bu onlayn virtual devor (whiteboard) boʻlib, u orqali oʻqituvchi va talabalar matnlar, rasmlar, videolar, ssilkalar, audio fayllar, PDF yoki Word hujjatlarini birgalikda joylashtirishi va muhokama qilishi mumkin. Padlet dasturida onlayn devor (doska) yaratiladi. Hammaga havola (ssilka) orqali ulashiladi. Har kim oʻsha devorga oʻz fikrini yozadi, material qoʻshadi. Dars jarayonida ushbu dasturdan foydalanish umumiy gʻoyalar yozuvi (brainstorming) ni shakllantirishga, guruh bilan ishlashga, onlayn savol-javoblarni amalga oshirishga yordam beradi. Refleksiya (talabalar darsdan keyin fikr qoldiradi) vujudga keladi va mavzu yuzasidan umumiy axborot yigʻiladi.



III.1.4-rasm. Padlet dasturida rasm tanlash.



III.1.5-rasm. Padlet dasturlida taqdimot tayyorlash uchun chizmalar tanlash.

Masalan, “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” darsida “O‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish va jazolash metodlari” mavzusini ushbu dastur orqali o‘tkazishni ko‘rib chiqamiz.

Dars uchun quyidagi vositalar kerak bo‘ladi: kompyuter yoki smartfon, internet tarmog‘i, Padlet.com hisob (oldindan yaratilgan devor/wall), videomateriallar yoki suratlar, QR-kod orqali kirish havolasi. O‘qituvchi talabalarga dars Padlet platformasida interaktiv tarzda o‘tilishini aytadi va ularga Padlet devoriga kirish uchun QR-

kod yoki havolani beradi. Shuningdek, o'z fikrlarini yozib, misollar keltirishlarini va bir-birlarining fikrlarini baholashlarini topshiradi.

O'qituvchi devorga 1-2 ta video yoki rasm joylashtiradi: Masalan: "O'quvchini yaxshi xulqi uchun maqtash holati" yoki "Bolani sinfda jazolashga oid vaziyatli holat". So'ng savol beradi: "Qaysi holatda o'quvchi faolroq bo'ladi?", "Sizningcha, qachon tarbiya samaraliroq bo'ladi – rag'batlantirganda yoki jazolaganda?". Talabalar Padlet devorida javoblarini yozadilar yoki emoji bilan fikr bildiradilar. Talabalar 3 ta guruhga ajratiladi: 1-guruh: Rag'batlantirish usullarini, 2-guruh: Jazolash usullarini, 3-guruh: Solishtirish – Rag'batlantirish va jazolash o'rtasidagi muvozanatni aniqlaydilar.

Har bir guruhga Padlet devorida alohida ustun ajratiladi. Guruhlarga tushuncha (ta'rif) berish, kamida 3 - 4 ta usulni sanab o'tish, har bir usulga hayotiy yoki amaliy misol yozish, qisqa xulosa (afzallik va ehtiyot chorasi) berish kabi vazifalar topshiriladi. Masalan, 1-guruh uchun: Rag'batlantirish – bu o'quvchining ijobiy xatti-harakatini e'tirof etish orqali uni yanada faol bo'lishga undovchi pedagogik ta'sir. Misollar: Maqtov, rag'bat xati, qo'shimcha ball, jamoa oldida e'tirof. Afzalligi: motivatsiyani oshiradi, ijobiy muhit yaratadi. 2-guruh misoli: Jazolash – bu o'quvchining xatti-harakatini tuzatish maqsadida unga cheklov yoki tanbeh berish usuli. Misollar: Ogohlantirish, topshiriqni qayta bajarish, imtiyozdan mahrum qilish, ota-onaga xabar berish, psixologik suhbat. Shart: jazolash hech qachon tahdid, kamsitish yoki haqorat ko'rinishida bo'lmasligi kerak.

Har bir guruh vakili Padletdagi bo'limini taqdim etadi. Boshqa guruhlar "layk" yoki "kommentariya" orqali baho beradi. O'qituvchi darsni mustahkamlash uchun Padletda yangi ustun ochadi: "Holatli vaziyatlardan to'g'ri yechim toping." 3 ta holat yoziladi. Masalan: O'quvchi doim kechikadi, o'quvchi darsda faol emas. o'quvchi boshqalarni chalg'itadi. Talabalar javoban yozadilar: Rag'batlantirish kerakmi yoki jazolashmi? Qanday shaklda? Nima uchun? Bu orqali ular nazariy bilimni amaliy holat bilan bog'lashadi. Dars yakunida Padletda "Mening xulosam" deb nomlangan yangi ustun ochiladi: Unda, Men bugun nimani bildim? Qaysi usulni samarali deb o'ylayman? Jazolash har doim salbiymi?

Rag‘bat va jazoni qanday muvozanatda qo‘llash kerak? kabi savollar aks etadi. Talabalar qisqa fikr yozadilar yoki “emoji” orqali o‘z holatini bildiradilar (😊 😐 😞). O‘qituvchi talabalarni mavzuni tushunish va ta’rif berish, rag‘bat va jazolash usullarini misollar bilan izohlash, Padletda faol ishtirok etish, fikrini asoslash, xulosa chiqarish kabi mezonlar asosida baholaydi.

Dars yakunida talabalar rag‘batlantirish va jazolash tushunchalarini ajrata oladi, ularning turlarini misollar bilan tushuntira oladi, qaysi vaziyatda qaysi metodni qo‘llash to‘g‘ri bo‘lishini tahlil qiladi. Padlet orqali jamoaviy fikr yuritish, baham ko‘rish va muhokama qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Bosqich	Faoliyat mazmuni	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati (kognitiv rivojlanish bilan bog‘liq)	Metod va vositalar
Kirish qismi	Mavzuga kirish, asosiy tushunchalarni aniqlash	Mavzuni e‘lon qiladi, savollar beradi: “Rag‘bat nima? Jazolash nima?”	- Mavzuni tushunishga urinish, fikrlash jarayoni faollashadi. - Oldingi bilimlarini faollashtiradi va yangi tushunchalarni solishtiradi.	Brainstorming, savol-javob, Padletda fikr yozish
Rag‘batlantirish metodlari	Rag‘batlantirish turlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash	Guruhlarga topshiriq beradi: “Rag‘batlantirishning 3 samarali shaklini yozing”.	- Tahliliy tafakkur rivojlanadi. - Rag‘batning o‘quv jarayoniga ta’siri haqida tadqiqiy fikrlashni	Kichik guruhlar bilan ishlash, tahlil, vizual materiallar (rasm, video)

			rivojlantiradi. - Dalillar asosida fikrlashni o'rganadi.	
Jazolash metodlari	Jazolashning ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qilish	Savollar beradi: "Qanday jazolar motivatsiyani pasaytiradi?"	- Sabab-oqibat aloqalarini aniqlaydi. - Tanqidiy tafakkur (critical thinking) faollashadi. - Alternativ yechimlarni taklif qiladi.	Munozara, tahlil, izoh yozish, Padlet "Comments" funksiyasi
Yakuniy qism va refleksiya	Mavzuni umumlash tirish, rag'batlantirish va jazolash o'rtasidagi muvozanatni belgilash	Xulosalar ni umumlash tiradi, fikrlarni tahlil qiladi	- Tizimli fikrlashni rivojlantiradi. - O'z fikrini asoslay oladi. - O'z o'rganish jarayonini baholaydi (metakognitiv faoliyat).	Refleksiya, ovoz berish, yakuniy tahlil (Padlet "Reactions")

III.1.6-rasm. Padlet dasturida interaktiv faoliyat tuzilishi.

Padletdagi ushbu faoliyat natijasida talabalar quyidagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi:

Kognitiv ko'nikma turi	Rivojlanish ifodasi
<i>Tahliliy fikrlash</i>	Rag'bat va jazo usullarini tahlil qilish, ta'sirini baholash
<i>Tanqidiy tafakkur</i>	Har bir metodning ijobiy va salbiy tomonlarini tanqidiy ko'rib chiqish

<i>Ijodiy fikrlash</i>	Rag‘batlantirishning yangi, innovatsion usullarini taklif qilish
<i>Metakognitiv faoliyat</i>	O‘z o‘rganish jarayonini anglash, fikrlash usullarini baholash

III.1.7-rasm. Kognitiv rivojlanish bilan bog‘liq natijalar.

Bu dasturda ishlash jarayonida ritorik savollar, tasvirlar, tasavvuriy faoliyatlar biriktirilsa, yosh talabalarning faol ishlashi yanada qulay bo‘ladi. Media fayllar (tasvirlar, audio, videolar) qo‘shish orqali **Padlet devorini** vizual va interaktiv qilish mumkin. Javoblar va fikrlar kuchli muhokama muhiti yaratadi – bu ham kognitiv faoliyatni rivojlantiradi.

Padlet dasturini yaratishda <https://padlet.com> saytiga kiriladi va “Make a Padlet” tugmasini bosiladi va “Column” format tanlanadi.


Google Jamboard (<https://jamboard.google.com>)—bu interaktiv onlayn doska, ya’ni real vaqtda bir nechta odamlar birgalikda ishlaydigan vizual platforma. Unga qalam bilan yozish (drawing), matn bloklarini qo‘shish (text boxes), rasmlar qo‘yish, stikerlar qo‘yish, jismlarni surish, joylashtirish mumkin. Ta’limda undan mavzu yuzasidan jadval tuzish, guruhda masala yechish, muhokamalar va diagrammalarda hamda mavzuni vizual izohlashda foydalanish mumkin.

Canva (<https://www.canva.com>) esa dizayn va taqdimotlar tayyorlash uchun qulay onlayn platforma bo‘lib, u orqali siz slaydlar, plakatlarni, videolar, ijtimoiy tarmoq postlari va ko‘plab boshqa dizaynlarni yaratishingiz mumkin.

Quyida Canvada ishlash tartibi keltirilgan:

1. Ro‘yxatdan o‘tish yoki tizimga kirish.
2. Dizayn turi tanlash.
3. Shablon (template) tanlash.
4. Matn va rasmlarni tahrirlash.
5. Fon (background) o‘zgartirish.
6. Slaydlarni ko‘paytirish yoki tartiblash.
7. Dizaynni saqlash va yuklab olish.

8. Qo'shimcha imkoniyatlar. Bunda video va animatsiyalar qo'shish (Elements → Videos yoki Animate), ovoz yoki musiqa qo'shish (Audio), hamkorlikda ishlash (Share → Invite to edit) kabilardan foydalanish mumkin. Quyida biz ushbu platforma orqali mental xarita yaratdik.



III.1.7-rasm. “O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar” mavzusining Canva platformasi yordamida mental xaritada aks etishi.

Audio va video resurslar orqali audio matnlar (yozilgan hikoyalar, she‘rlar, podkastlar) tayyorlash mumkin. Bu talaffuz, eshitish, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Matnni eshitib tahlil qilish qobiliyati orqali kognitiv e’tibor va tinglovchi zehni kuchayadi.

“Tarbiya” fanidagi mavzularni audio resurslar orqali qanday yoritish mumkinligini quyidagi tavsiyalar orqali ko‘rib chiqamiz.

Family Podcast Club (Oilaviy Podcast Klubi). Ushbu audio-faoliyatda oila a‘zolari birgalikda hikoyalarni tinglaydi va keyin uni muhokama qiladi. Bu, nafaqat tinglash va nutqni rivojlantirish, balki

kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishda ham juda samarali usul hisoblanadi ([wtps.family.beable.com](https://family.beable.com)).

Bunda har hafta bir hikoya yoki qissa tanlanib, oila a'zolari tomonidan birgalikda tinglanadi. Keyin o'sha hikoya bo'yicha savollar va mulohazalar bo'lib o'tadi: "Asardagi muhim g'oya nima?", "Qaysi personaj yoqdi?" kabi.

Video resurslar – multimedia vositalar orqali kitobxonlikni rivojlantirishda BookBox (AniBooks) – Same Language Subtitles (SLS) platformasidan foydalanish mumkin.

BookBox – bolalar uchun mo'ljallangan audio-video hikoyalar platformasi bo'lib, u AniBooks (Animated Books – Animatsiyalangan kitoblar) nomli video hikoyalarni yaratadi. Bu hikoyalar animatsiya shaklida beriladi, ovozli o'qish (narration), shuningdek, bir vaqtning o'zida ekranda matn (subtitles) ham ko'rsatiladi. Same Language Subtitles (SLS) – bu ovozli hikoya aytilayotgan vaqtda o'sha so'zlar bitta tilda ekranda subtitrlar sifatida bir vaqtda chiqib boradi. Buning samarali tomoni o'qishga qiziqishni oshiradi, bolalar multimedia muhitida bilimni xohlab o'rganadi. Tinglash va talaffuzni rivojlantiradi, o'quvchi to'g'ri talaffuzni eshitib, matn bilan bog'laydi. Kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, e'tibor, xotira va tushunish rivojlanadi. Vizual-audial o'rganish, ya'ni ko'rish va tinglash bir vaqtda amalga oshadi. Afsuski, hozircha o'zbek tilida rasmiy versiyasi mavjud emas, rus va ingliz tillarida amalga oshirish mumkin.

Darsda BookBox yoki Vooks singari videomateriallardan foydalanib va undan so'ng savol-javob o'tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, oilaviy audio-klub yoki onlayn "Podcast Club" tashkil etilsa, bolalarning tinglovchanligi va kitobga qiziqishi rivojlanadi. Animatsiyalardan keyin bolalardan hikoyani o'z so'zlari bilan qisqacha yozishlarini so'rash zarur, bu diqqat va tushunishni yaxshilaydi. Badiiy yoki publitsistik matnlarning videotahlili talabalarining mulohaza qilish, xulosa chiqarish, asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli matnlar va e-resurslar. Google Docs, Canva, Wordwall dasturlaridan matn tahlili, grafik tashkil etish, esse yozish, tafakkurni vizuallashtirish uchun foydalaniladi. Talabalarga aqliy

xarita tuzish, ma'lumotni qayta ishlash, fakt va fikrni farqlashni o'rgatadi.

Google Docs – onlayn matn tahrirlovchi dastur (<https://docs.google.com>). Microsoft Wordga o'xshagan onlayn hujjat yaratish va tahrirlash xizmati hisoblanadi. Talabalar Google Docs dasturi yordamida referat yozishadi. Guruhda bir vaqtda hujjat ustida ishlash mumkin.

Canva – dizayn va vizual materiallar yaratish platformasi hisoblanadi (<https://www.canva.com>). Illyustratsiya, shrift va dizaynga juda boy bo'lib, tayyor maketlar asosida prezentatsiya, flayer, buklet, ijtimoiy tarmoq banneri va boshqa vizual materiallarni yaratish uchun ishlatiladi.

Wordwall – interaktiv o'yin va test yaratish platformasi (<https://wordwall.net>) ta'limda onlayn test, krossvord, moslash o'yini, "aylantirish" kabi interaktiv faoliyatlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Har bir topshiriqni kompyuter, planshet va telefonda bajarish mumkin. Dastur avtomatik ravishda javoblarni baholaydi.

Dastur	Asosiy vazifasi	Foydalanuvchilar uchun foyda
Google Docs	Matn hujjatlari (referat, ish)	Onlayn ishlash, sharh qoldirish
Canva	Vizual dizayn (slayd, poster)	Chiroyli ijodiy materiallar
Wordwall	Interaktiv testlar, o'yinlar	Darsni qiziqarli qilish

III.1.8-rasm. Qisqacha solishtirma jadval.

Sun'iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly, Rewordify) matnni soddalashtirish, qayta ifodalash, xatolarni tuzatish va tahlil qilishga yordam beradi. Bu vositalar talabalarning metatanqidiy fikrlashini rivojlantiradi – ya'ni, "nega shunday deb o'ylayapman?", "bu fikrni qanday dalillayman?" kabi.


"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"ni samarali o'qitishda ushbu texnologiyalar eng maqbul deb hisoblanadi. Talabalarda mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni takomillashtirish – bu zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu orqali talabalar nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va ijodiy yondoshishga o'rganadilar. Bunday yondashuv

nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki XXI asr ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

EVENT – based learning (tadbir asosida o'qitish) texnologiyasi. Event-based learning – bu o'quv jarayonini ta'limiy tadbir (ivent) shaklida tashkil etishga asoslangan ta'lim texnologiyasidir. Unda o'quvchilar ta'limni faqat nazariy emas, balki amaliyot, hissiyot va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlashgan holda o'zlashtiradilar.

O'quvchilar “o'ynagan holda o'rganish” (learning by doing and feeling) tamoyili asosida ishtirok etadilar.

E.V.E.N.T. – bu atama ko'pincha quyidagi ma'nolarni qamrab oladi:



EVENT darsi tuzilishi (texnologik tartib). Kirish qismida video, savol, tasvir orqali talabalarda darsga qiziqish uyg'otiladi, vaziyat yaratiladi. Talabalarni faol ishtirokchi bo'lishga tayyorlanadi. Asosiy qismda esa kvest, spektakl, bahs, debat, shou, forum, debat va h.k. shakllarda tadbirlar tashkil etiladi. Talabalar rol ijrosi, muammo yechimi va guruhda ishlashga tayyorlanadi. Yakuniy qism refleksiya, xulosa, mulohaza va baholashdan iborat

bo‘ladi. Talabalar darsning borishi yuzasidan fikr bildirib, xulosa chiqaradilar.

EVENT texnologiyaning afzalliklari:

- kognitiv faollikni oshiradi (eslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish);
- talabalarda ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi;
- ta’limni hayot bilan bog‘laydi (jonli, mazmunli);
- talabalar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni mustahkamlaydi;
- media va zamonaviy vositalar bilan integratsiyalashadi.

Event-based learning – bu zamonaviy, interaktiv, ijtimoiy va hissiy ta’sirga ega bo‘lgan ta’lim texnologiyasi bo‘lib, u talabalar va o‘quvchilarni faol, ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida rivojlantiradi.

EVENT texnologiyaga asoslangan dars misoli (qisqacha):

Mavzu: “Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar”

Fan: Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi.

Texnologiya: EVENT texnologiyasi (Engage – Vision – Explore – Narrate – Transform).

Mashg‘ulot turi: Amaliy (interfaol va media asosida).

Umumiy maqsad: Talabalarda Sharq mutafakkirlarining ta’limiy-axloqiy g‘oyalarini o‘rganish, ularni tahlil qilish, zamonaviy pedagogik jarayonda qo‘llash malakasini shakllantirish.

Xususiy maqsadlar: Sharq pedagogik ta’limotining mohiyatini tushuntirish; Forobiy, Ibn Sino, Navoiy kabi mutafakkirlarning ta’limiy-axloqiy qarashlarini tahlil qilish; axloqiy qadriyatlar va ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash; mediavositalar yordamida tarixiy va zamonaviy ta’limiy qadriyatlarni taqqoslash; ijodiy tafakkur, tahliliy yondashuv va axloqiy ongni rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar: Mashg‘ulot yakunida talabalar: sharq pedagogik ta’limotining asosiy g‘oyalarini tushuntira oladi; mutafakkirlar qarashlarining zamonaviy ta’lim bilan bog‘liqligini tahlil qiladi; mediavositlardan foydalangan holda taqdimot tayyorlay oladi; axloqiy qadriyatlarni o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga qo‘llash yo‘llarini taklif etadi; jamoaviy fikrlash va refleksiya ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Bosqich	Bosqich nomi	Mazmuni va talabalarning faoliyati	O‘qituvchining faoliyati va vositalar
E	Engage (Jalbetish)	Talabalar “Sharq donishmandlari kimlar edi?” degan savol asosida o‘z fikrlarini bildiradilar. “Aqliy hujum” usuli orqali Sharq allomalari nomlari (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Beruniy) aniqlanadi.	O‘qituvchi mediavideo (“Sharq allomalari merosi”)ni namoyish etadi. Qiziqarli savollar orqali talabalarni mavzuga jalb qiladi. Vositalar: video lavha, slayd, onlayn test.
V	Vision (Tasavvur hosil qilish)	Talabalar guruhlariga bo‘linadi va “Sharq pedagogik ta’limoti” deganda nimalarni tushunishlarini yozadilar. Har bir guruh “Ta’lim – Axloq – Komillik” konsepsiyasini grafik tarzda ifodalaydi.	Guruh ishini yo‘naltiradi, asosiy tushunchalarni tahlil qilishga yordam beradi. Vositalar: jamboard, mind map, markerlar, interfaol doska.
E	Explore (Izlanish va tahlil qilish)	Har bir guruhga bir mutafakkir faoliyati beriladi: 1-guruh – Forobiy, 2-guruh – Ibn Sino, 3-guruh – Alisher Navoiy, 4-guruh – Beruniy. Talabalar mutafakkirlarning ta’limiy-axloqiy qarashlarini o‘rganib, zamonaviy	O‘qituvchi har bir guruhga izlanish yo‘nalishini beradi, kerakli elektron manbalarni ko‘rsatadi. Vositalar: maqola, e-kitob, video ma’ruza, Insert texnikasi, tahliliy jadval.

		pedagogika bilan solishtiradilar.	
N	Narrate (Taqdim etish)	Har bir guruh o'z tadqiqoti asosida 3-5 daqiqalik mini-taqdimot tayyorlaydi. Media formatda (slayd, video, sahna ko'rinishi yoki podkast) ifodalaydi.	O'qituvchi guruh taqdimotlarini baholaydi, rag'batlantiradi. Vositalar: PowerPoint, Canva, video montaj dasturlari.
T	Transform (Ijodiy o'zgarish va xulosa)	Talabalar "Sharq pedagogik merosini bugungi ta'limda qanday qo'llash mumkin?" mavzusida refleksiya yozadilar. "Refleksiya daraxti" orqali o'z fikrlarini ifodalaydilar.	O'qituvchi umumiy xulosa qiladi: Sharq pedagogik merosi – ta'limiy va axloqiy qadriyatlarning poydevori ekanini ta'kidlaydi. Vositalar: Google Form, yozma tahlil, umumiy suhbat.

III.1.9-rasm. EVENT texnologiyasi bosqichlari bo'yicha dars ishlanmasi.

EVENT texnologiyasi asosida tashkil etilgan "Sharq pedagogik ta'limotida ta'limiy-axloqiy qarashlar" mavzusidagi mashg'ulot talabalarda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosiga chuqur qiziqish uyg'otadi, axloqiy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi, mediavositlardan ijodiy foydalanish va mustaqil izlanish malakasini shakllantiradi, o'z kasbiy faoliyatiga ma'naviy yondashuvni kiritishga zamin yaratadi. Natijada talabalar axloqan barkamol, fikran erkin va zamonaviy media madaniyatga ega bo'lgan pedagog sifatida shakllanadilar.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim va STEAM texnologiyasi orqali kognitiv (bilish) faoliyatni

rivojlantirish, ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlashni o‘rgatish (“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fani misolida) jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Bosqich	STEAM komponenti	Mediat a‘lim elementi	Kognitiv faoliyat (bilish jarayoni)	O‘quv faoliyati misoli (“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi”dan)	Kutilayotgan natija
Tushunish va kuzatish bosqichi	Science (Fan) – tabiiy hodisalarni o‘rganish	Video kuzatuv, interaktiv media	Diqqatni jamlash, kuzatuvchanlikni rivojlantirish	“Tabiatdagi suv aylanishi” mavzusida videorolik tomosha qilish, savol-javob	O‘quvchi asosiy tushunchani anglaydi, savol berish qobiliyati shakllanadi
Izlanish va muammoni fikrlash bosqichi	Technology (Texnologiya) – axborot vositalaridan foydalanish	Raqamli media vositalari, interaktiv doska	Muammoni aniqlash, sabab-oqibatni tushunish	O‘quvchilar “Issiqxona effekti” sabablari haqida internet manbalarini tahlil qiladi	Tahliliy tafakkur rivojlanadi, dalillarga asoslangan fikrlash shakllanadi
Amaliy tadqiqot bosqichi	Engineering (Muhandislik) – amaliy	Digital konstruktorlar (masalan, Tinkercad,	Mantiqiy fikrlash, rejalashtirish, tajriba asosida	O‘quvchi tabiatdagi suv oqimini model sifatida yasaydi (STEAM	Muammoni hal qilish ko‘nikmasi, ijodkorlik rivojlanadi

	yechim topish	Scratch)	o'rganish	loyiha)	
Ijodiy ifoda bosqichi	Art (San'at) – dizayn va ijod	Multimedia taqdimot, vizual loyihalar	Ijodiy fikrlash, obrazli tafakkur	O'quvchi "Suv hayot manbai" mavzusida plakat yoki video tayyorlaydi	Ijodiy yondashuv va estetik tafakkur shakllanadi
Integratsiya va baholash bosqichi	Mathematics (Matematika) – hisoblash, tahlil	Infografika, jadval, diagrammalar	Metakognitiv fikrlash, o'z-o'zini baholash	O'quvchi suv sarfini hisoblab, natijani diagramma orqali ifodalaydi	Tanqidiy tafakkur, tahlil va refleksiya ko'nikmalari rivojlanadi

III.1.10-rasm. STEAM + Mediata'lim + Kognitiv faoliyat modeli. ("Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fani misolida).

Faoliyat turi	Tavsif
Media-loyiha	O'quvchilarga mo'ljallangan tabiat haqidagi mavzuda video tayyorlash (masalan: "Cho'lga aylanayotgan hududlar")
STEAM mini-proekt	Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Sog'lom turmush tarzi" mavzusi asosida LEGO, rasm, sxemalar asosida dars ishlanmasi tayyorlash
Kognitiv topshiriqlar	Taqqoslash, guruhlash, tahlil qilish, savol-javob, muammo asosida fikr bildirish
Digital portfolio (raqamli	Har bir mavzudan mediata'lim va STEAMga asoslangan dars namunasi, videodarslar,

(elektron) hujjatlar to'plami)	interaktiv topshiriqlar jamlanmasi
---	------------------------------------

III.1.11-rasm. Metodik faoliyat turlari (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun).

STEAM + Mediata'lim + Kognitiv faoliyat integratsiyasi "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanini nafaqat nazariy, balki amaliy, izlanish va fikrlashga asoslangan jarayonga aylantiradi. Bu yondashuv orqali talabalarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkur tizimli rivojlanadi.

Mediata'lim va STEAM texnologiyalari ushbu jarayonda ikki asosiy omil sifatida xizmat qiladi:

1. **Mediata'lim** – media vositalar orqali axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish ko'nikmasini rivojlantiradi.
2. **STEAM texnologiyasi** – (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integrativ yondashuv asosida fikrlashni, ijodkorlikni va muammoli vaziyatlarni yechish qobiliyatini kuchaytiradi.

Jarayonning ilmiy-metodik xususiyatlari shundan iboratki, talabalar tayyor axborotni emas, balki o'z izlanishlari orqali bilimni o'zlashtiradilar. Mediata'lim –axborot madaniyatini, STEAM – mantiqiy va texnik fikrlashni uyg'unlashtiradi. Har bir bosqich yakunida talabalar o'z faoliyatini baholab, "nimalarni o'rgandim, qanday fikr o'zgardi" savollariga javob beradilar. Talaba bilimdan tashqari tahliliy, ijodiy va media savodxonlik kompetensiyalariga ega bo'ladi.

Tadqiqot ishi doirasida bir qator mualliflik variativ amaliy texnologiyalar shakllantirildi:

1. "Mediadidaktik" texnologiyasi. Ma'lumki, mediama'lumotlar jamiyatda keng jamoatchilikka, ko'plab maqsadli guruhlar uchun shakllantiriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar keng jamoatchilik uchun shakllantirilgan media ma'lumotlarni o'quv guruhlari, ta'lim yo'nalishlari hamda o'quv-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarni hisobga olgan holda didaktik material ishlab chiqadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari rasmiy media manbalardan o'quv mavzusiga mos keluvchi media ma'lumotlarni tadqiq qiladi va o'quv maqsadiga

muvofiq mediadidaktik soddalashtirish orqali didaktik material ishlab chiqadi.

2. “Mediatanqid” texnologiyasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata‘limni rivojlantirishda ularning mediamalumotlarni tanqidiy baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kundagi katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan bilim, ko‘nikma va tajribalar kerakligini taqozo etadi.

Hamkorlik ta‘lim texnologiyasini qo‘llashda talabalar quyidagi shakllarda ta‘lim oladilar:

1) jamoada; 2) kichik guruhda; 3) juftlikda

1-variant: Jamoada ta‘lim olish. Har bir talabaning yutuqlaridan jamoa xabardor bo‘ladi, chunki jamoa har bir talaba tomonidan o‘quv materialining muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishidan manfaatdor. Zero, jamoaning muvaffaqiyati har bir talaba va uning yutug‘iga, jamoa oldiga qo‘yilgan muammoning yechimiga bog‘liq.

2-variant: Kichik guruhda ta‘lim olish. Talabalar 4-5 nafardan bo‘lib, kichik guruhlariga birlashib, blok holida berilgan o‘quv materialini ustida ishlaydi. Har bir talaba material ustida alohida ishlaydi. So‘ngra bir guruhdagi talabalar boshqa guruhlariga 1 nafardan bo‘lib o‘tishadi va o‘zlari o‘rgangan material bo‘yicha ekspert sifatida tengdoshlariga ma‘lumot bergandan so‘ng o‘z guruhlariga qaytirib, tengdoshlaridan o‘zlashtirgan ma‘lumotlar bilan o‘z jamoasi a‘zolarini tanishtiradi. Bunda sheriklarni diqqat bilan tinglash, zarur ma‘lumotlarni o‘z daftarlariga qayd etib borish talab qilinadi. Mashg‘ulot so‘nggida o‘qituvchi istalgan talabadan o‘rganilgan mavzu bo‘yicha savollarga javob berishini so‘raydi.

3-variant. Juftlikda ishlash. Talabalar juftliklarga bo‘linadi. Har bir juftlik yaxlit mavzu bo‘yicha alohida topshiriq oladi. Birgalikda ishlash asosida juftlik a‘zolari o‘zlariga berilgan materialni o‘zlashtiradi. So‘ngra bu haqida jamoa oldida axborot beradi.

Hamkorlik ta‘lim texnologiyasini qo‘llashda talabalardan quyidagilar talab etiladi:

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas‘uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo‘lish;

- nafaqat o‘z yutug‘i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun

javobgarlikni his qilish;

- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas‘uliyatli mehnat ekanligini

Hamkorlik ta‘lim texnologiyasi “pedagog-talaba hamkorligi” tamoyiliga asoslanib, quyidagi shakllarda qo‘llaniladi:

- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- fan bo‘yicha tashkil etiladigan musobaqada ishtirok etish;
- fan olimpiadalariga tayyorlanish;
- hamkorlikda loyihalar tayyorlash;
- ijodiy hamkorlikda ilmiy maqolalar chop etish;
- ijodiy hamkorlikda o‘quv manbalarini yaratish.

Hamkorlik ta‘lim texnologiyasini qo‘llash tartibi:

- talabalar (4-5 kishi) kichik guruhlarda ishlaydi;
- jamoa uchun yagona o‘quv materiali taqdim etiladi;
- har bir guruh alohida savolga javob topadi;
- Ekspert guruhi shakllantiriladi;
- bu guruh har guruh ishi bilan batafsil tanishadi;
- ekspert guruhi har bir talabaning faoliyatini individual baholash imkoniyatiga ega;

Mediata‘lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar faoliyatida quyidagi natijalarni beradi: darslar samaradorligi oshadi, talabalarning kreativ yondashuvi va tashabbuskorligi ortadi, ularda axborotni izlab topish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi, o‘quv jarayonining interaktivligi kuchayadi, kognitiv faoliyat darajasi sezilarli rivojlanadi.

III.2. Multimedia – talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish omili sifatida.

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish jarayonida AKTning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta‘limni yangilashda muvaffaqiyatga erishish, nafaqat ta‘lim muassasalarini zamonaviy texnik jihozlar, balki keng ko‘lamdagi multimedia vositalari bilan ham ta‘minlashga bevosita bog‘liqdir. Oliy ta‘lim

muassasalarida axborot tizimlari jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa ushbu muassasalar faoliyatining yanada samarali va tezkor tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasini axborotlashtirish masalasiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarini axborotlashtirish keng qamrovli tushuncha bo'lib, u faqatgina ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish bilangina cheklanmay, balki mediata'lim vositalari orqali global ilmiy yangiliklar va ilg'or tajribalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu texnologiyalar yordamida kelajak pedagoglari o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi multimedia vositalarining o'quv jarayoniga faol kirib kelishiga olib keldi. Xususan, multimedia nafaqat darslarni vizual va eshitiladigan materiallar bilan boyitadi, balki talabalar ongida axborotni idrok etish, tushunish, eslab qolish, qayta ishlash va qo'llash kabi kognitiv faoliyatning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Multimedia vositalari asosida talabalarning kognitiv faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik jihatlarini o'zbekistonlik olimlar— B.Abdullayeva, N.Avliyoqulov, A.Abdugodirov, U.Begimqulov, J. Barxonov, O. Jamoliddinova, M.Aripov, B.Begalov, M.Mamajonov, F.Zakirova, K.Olimov, N.Taylaqov, S.G'ulomov hamda S.Yuldashevlarning ilmiy izlanishlarida keng o'rganilgan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) davlatlarida esa ushbu yo'nalishning nazariy va metodik asoslari A.Asmolov, Sh.Amonashvili, M.Ariarskiy, V.Afanasyev, A.Zapesotskiy, A.P.Belyayeva, T.Kiseleva, I. Lipskiy, I. Sikorskaya, A.Leontyev, E.Sokolov, A.Mudrik, A.Rean, M.Rojkov, D.Danilov, V.Davidov,

V.Zagvyazinskiy, E.Stepanov va Y.Strelsovlarning ilmiy ishlari orqali yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida esa talabalarning kognitiv faoliyatini multimedia vositalari asosida rivojlantirish masalalari Anyon, Jean, Bourdieu Pierre va Jean-Claude Passeron, T.Epstein, M.Greene, S.Fieth, N.Deason, M.Branson, Ch.Quigley, P.White va L.Jones kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

“Multimedia” atamasi tahliliga to'xtalar ekanmiz, pedagogik atamalar lug'atida ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan⁸²: Multimedia – bu kompyuter yordamida o'quv materiallarini rangli grafika, matn va grafik effektlar, tovush chiqarish va sintezlangan musiqalar, animatsiyalar, to'liq hajmdagi videokliplar hamda hatto videofilmlar kabi turli ko'rinishlarda taqdim etish imkonini beruvchi tizimdir. Ushbu atama asosan ingliz tilidagi manbalardan kirib kelgan lotinizmdir va odatda bir xil transkripsiyada qo'llaniladi.

Multimedia vositalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan. Multimedia tushunchasi XX asrning 90-yillari boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda.

S.Novoseltsev o'zining “Multimedia – uch elementning sintezi” asarida multimediani “harakatsiz tasvirlar va harakatlanuvchi video, animatsion kompyuter grafikasi va matn, nutq va yuqori sifatli ovoz bilan ishlashni ta'minlaydigan interaktiv tizimlar” deb hisoblaydi. Multimedia tushunchasiga e'tibor qaratgan foydalanuvchi, axborotni qabul qilish jarayonida o'quvchining barcha sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatadigan va interaktivlikni ta'minlovchi hodisani alohida ta'kidlaydi. Muallif bu yerda ovoz, matn, grafika hamda videoning uyg'unlashuvini nazarda tutadi.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz hordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 1981-yildagi yalpi aylanmasi 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994-yili esa 16 mlrd. AQSh

⁸² Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy ilmiy tadqiqot instituti. Pedagogik atamalar lug'ati. T.: 2008. 28-b.

dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarni XX asrning 70-yillarida ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoya ketganligi, avvalambor, ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi.

Tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tashqi omillar aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglarning zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tez va samarali tarzda joriy etishga bo'lgan munosabati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediata'limga asoslangan kognitiv jarayonlari orqali erishilishi kutilayotgan natijalar, shuningdek, yangi raqamli vositalarni pedagogik faoliyatda qo'llashdagi muammolarni bartaraf etishda mediakompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari bilan uzviy bog'liq holda, ya'ni ularning integratsiyasida amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, multimedia tushunchasi ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etib, u audio, video hamda matnli ma'lumotlarni qayta ishlash va vizual tarzda taqdim etishda foydalaniladigan texnologiyalar va kompyuter vositalarini o'z ichiga oladi.

Ta'limda multimedia texnologiyalarining imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bu holat o'qituvchilarni ushbu vositalardan yanada samarali va keng ko'lamda foydalanishga undamoqda. Natijada, bu jarayon Rossiya maktablarida zamonaviy, moslashuvchan va samarali ta'lim paradigmasiga bosqichma-bosqich o'tishga zamin yaratadi. Multimedia vositalaridan o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy usuli sifatida foydalanish ona tilini integrallashgan tarzda o'qitishda ham, mediata'limda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, multimedia faqat nutqni rivojlantirish, til muhitini to'ldirish yoki nutq vaziyatini vizual ko'rsatish bilan cheklanmaydi – u mediata'limni ona tili darslariga tabiiy tarzda uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa, axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida universitet talabalari uchun ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishga yangicha yondashuvni taklif etadi. Axborot oqimi tezlashgan

bugungi davrda mediata'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish, nazariy va amaliy tajribalarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

X.Ramazonov⁸³ o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning multimedia texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot yaratish hamda uni joriy etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan. U o'zining "Bo'lajak o'qituvchilarning multimedia texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot yaratish va joriy etish metodikasi" nomli dissertatsiyasida multimedia texnologiyalari asosida o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi quyidagi didaktik tamoyillarni ko'rsatib o'tadi: tizimlilik, faoliyat (mustaqillik), qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengish, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, individuallashtirish hamda samaradorlik.

Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishda ularning quyidagi funksional afzalliklari e'tiborga olinadi: katta hajmdagi axborotni markazlashgan holda saqlash imkoniyati, tasvirlarni kerakli darajada kattalashtirish yoki kichraytirish, obyektlar orasida vizual taqqoslash olib borish va dasturiy jihatdan ularni tahrirlash, matn yoki tasvir ichida alohida belgilangan elementlar orqali giperbog'lamalar yaratish, raqamli signal asosida audiofayllarni uzluksiz o'zgartirish, videomateriallarni montaj qilish, internet tarmog'iga integratsiya qilish, turli xil dasturlar bilan moslashgan holda ishlash, mavjud ma'lumotlarni ketma-ket va uzluksiz tarzda aks ettirish, hamda kontentlar orasida tez va qulay harakatlanish imkonini berishi.

N.X.Begmatovanning "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari"⁸⁴ nomli tadqiqoti ta'limiy multimedia texnologiyasi doirasida "multimediaviy hujum" usuli ishlab chiqilganligi va amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur usulning mazmuni – o'quv material bilan tanishish

⁸³ X.Ramazonov. Bo'lajak o'qituvchilarning multimedia texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantiruvchi dasturiy ta'minot yaratish va joriy etish metodikasi.P.f.b.f.d(PhD)...diss..-T.,2025.156 b.

⁸⁴ Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг илмий-методик асослари. Дисс. фан. номз. Т.: 2012. – 169 б.

jarayonida bolalarning ongiga bir vaqtning o'zida turli multimedia komponentlari orqali kompleks ta'sir o'tkazishga asoslanadi.

M.A.Fayziyevning "Multimediali elektron qo'llanmalar yaratish tajribasi"⁸⁵ nomli maqolasida uzluksiz ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan yangi avlod o'quv adabiyotlarini, xususan, multimediali elektron darsliklarni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba natijalari bayon etilgan. U ushbu maqolasida multimediali elektron darsliklarning tashqi ko'rinishi va dizayni haqida fikr yuritadi hamda ularning talaba foydalanuvchilar uchun qulay, jozibador va estetik jihatdan mukammal bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, muallif bunday darsliklarni grafik elementlar, bezaklar, video, audio, animatsiya kabi multimedia komponentalari bilan boyitish lozimligini alohida qayd etadi.

N.X.Begmatova esa "Multimedia texnologiyasining rivojlanish tendensiyalari"⁸⁶ nomli monografiyasida multimedia texnologiyalarining tarkibiy qismlari va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladi.

Umuman olganda, multimedia texnologiyalariga oid kompetentlik – bu matn, rasm, audio, video, animatsiya kabi turli axborot turlarini birlashtirgan holda, ularni interaktiv va samarali tarzda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni anglatadi. Bunday texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar axborot-kommunikatsiya va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, multimedia vositalari orqali axborot-kommunikatsiya, ijodiy fikrlash va tasavvur, texnologik tafakkur hamda samarali muloqotga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarini qo'llash an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Jumladan⁸⁷:

⁸⁵ Файзиев М.А. Мультимедиа электрон қўлланмалар яратиш тажрибаси // Ахборот-коммуникациялар технологиялари асосида электрон ўқув адабиётларини яратиш: тажриба, муаммо, истикболлар. Республика илмий-амалий анжуманининг маърузалар тўплами. Тошкент: 2004. - Б. 36-37.

⁸⁶ Бегматова Н.Х., Мультимедиа технологиясининг ривожланиш тенденцияси/Монография/ Н.Бегматова. Қарши: «Насаф» НМИУ, 2020. 176 б.

⁸⁷ Бегматова Н.Х. Мультимедиа-замонавий ахборот технологиясининг йўналиши.// "Экономика и социум". №4(119) 2024. В.1399.

- ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- o'quvchi bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali ma'lumotni qabul qiladi, bu esa miyaning ikki yarim shari faolligini oshiradi;
- an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish imkonini beradi;
- mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning charchab qolishining oldini olish maqsadida materiallar animatsiyalar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin;
- o'rganilayotgan ma'lumotni kichik qismlarga bo'lib, ularni kerakli paytda qayta namoyish etish imkonini yaratadi.

N.Begmatovanning fikriga ko'ra, ta'lim oluvchilar axborotni qabul qilish usuliga ko'ra uchta asosiy turga bo'linadi:

1. Ovozli axborot – eshitish organlari orqali qabul qilinadigan ma'lumotlar;
2. Ko'rish (vizual) axboroti – ko'z orqali qabul qilinadigan axborotlar (matn, grafik tasvirlar, rasmlar va h.k.);
3. Sensorli axborot – inson videoroliklar yoki boshqa texnik vositalar bilan ishlayotgan paytda his etiladigan axborot turi⁸⁸.

Uning ta'kidlashicha, multimedia – bu tovush, video, grafika, matn va animatsiyalar yordamida inson bilan kompyuter o'rtasida samarali muloqotni ta'minlovchi dasturiy va texnik vositalar majmuasidir.

Multimedia texnologiyasi ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or, zamonaviy texnologiya sifatida namoyon bo'ladi. N.Begmatovanning⁸⁹ ta'kidlashicha, to'liq shakldagi multimedia 1986-yilda yaratilgan bo'lib, u ta'lim oluvchiga ma'lumotni yanada ta'sirchan va samarali yetkazishga xizmat qiluvchi dasturlar, texnik vositalar hamda axborot texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

⁸⁸ Бегматова Н.Х. Мультимедиа-замонавий ахборот технологиясининг йўналиши.// “Экономика и социум”. №4(119) 2024. В.1399.

⁸⁹ Бегматова Н.Х. Мультимедиа-замонавий ахборот технологиясининг йўналиши.// “Экономика и социум”. №4(119) 2024. В.1399.

Nyu-York texnologiya instituti olimi E.I.Mashbits⁹⁰ tomonidan kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishga doir olib borilgan tahlillar natijasida ushbu yo'nalishda qo'yiladigan asosiy talablar aniqlab berilgan.

Unga ko'ra, bunday tizim quyidagi mezonlarga javob berishi lozim: didaktik asoslanganlik – kompyuter texnologiyalari ta'limning mazmuni, metodlari va vositalariga mos kelishi, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi zarur; interaktivlik – o'quvchi va ta'lim tizimi o'rtasida faol muloqot imkoniyatini ta'minlashi, o'quvchining fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak; moslashuvchanlik – o'quv tizimi turli darajadagi bilimga ega bo'lgan o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlashi, ularning ehtiyoj va qiziqishlariga moslashishi zarur; teskari aloqaning mavjudligi – o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqlar natijasini baholash va unga tezkor fikr bildirish imkoniyatini beruvchi mexanizmga ega bo'lishi lozim; axborot muhiti bilan integratsiya – kompyuter texnologiyalari mavjud ta'lim muhitiga to'liq moslashgan bo'lishi, o'quvchilarni real axborot oqimi bilan ishlashga o'rgatishi kerak; estetik va funksional dizayn – o'quv interfeysi vizual jihatdan jozibador, tushunarli va foydalanishda qulay bo'lishi muhim hisoblanadi.

Ushbu talablar kompyuterlashtirilgan o'quv tizimlarining samaradorligini ta'minlash, ta'lim sifati va o'quvchi faoliyatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlari ularni tashkil etuvchi texnik vositalar va texnologiyalarni oddiy yig'indisi sifatida baholab bo'lmaydi. Aksincha, multimedia komponentlarining o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi va bir-birini to'ldirishi natijasida ularning pedagogik samaradorligi oshadi, bu esa mavjud imkoniyatlarning miqdoriy ko'rsatkichdan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishiga sabab bo'ladi.

Multimedianing keng ko'lamli imkoniyatlari asosida ta'limning to'liq tuzilmasi – ya'ni uning metodologiyasi, mazmuni, funksiyalari va ishtirokchilari tarkibi tubdan o'zgarishi mumkin. Bu esa masofaviy ta'limning yangi shaklini yaratishga asos bo'lib

⁹⁰ Машбиц Е.И. Компьютеризация обучения: Проблемы и перспективы. - Москва : Знание, 1986. - 80 с. - //Новое в жизни, науке, технике. Педагогика и психология ; № 1.

xizmat qiladi. Mazkur yondashuv multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan innovatsion ta'lim jarayonining yorqin namunasi hisoblanadi⁹¹.

F.Rahimovaning⁹² tadqiqoti multimedia vositalari asosida talabalar ijtimoiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishni asosiy maqsad qilib olgan bo'lib, ushbu maqsadga erishish yo'lida bir qator ilmiy-amaliy vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi. U o'z tadqiqotida multimedia vositalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi quyidagi pedagogik-psixologik omillarini ajratib ko'rsatadi: intellektual, motivatsion, emotsional, irodaviy, o'z-o'zini boshqarish va predmetli-amaliy⁹³.

Xususan, multimedia vositalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik-psixologik omillarini talabaning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi yo'nalishlar asosida misollar orqali izohlash lozim.

F.Rahimova tomonidan keltirilgan pedagogik-psixologik omillar – xususan, intellektual, motivatsion, emotsional, iroda bilan bog'liq, o'z-o'zini boshqarish va predmetli-amaliy jihatlar – talabalar shaxsining ijtimoiy-pedagogik shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar talabaning nafaqat bilim olish jarayonida, balki uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida ham faol ishtirokchiga aylanishiga xizmat qiladi.

Multimedia vositalari esa bu jarayonda samarali vosita sifatida xizmat qilib, talabalarda mustaqil fikrlash, estetik did, kommunikativ ko'nikmalar va kognitiv faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida yoshlarning e'tiborini pedagogik jarayonga jalb etishda multimedia vositalarining didaktik, motivatsion va ta'sirchan xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Shu bois, talabalarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishda multimedia texnologiyalarini faqat texnik vosita

⁹¹ Мордухович А. Н., Тужикова В. И., Федянин В. И. Организация технологий дистанционного обучения с использованием сети Internet //Прикладные задачи моделирования и оптимизации: Межвузовский сборник научных трудов. Министерство общего и профессионального образования российской Федерации. Воронеж, 1998, Ст.143-151.

⁹² Раҳимова Ф.Н. Мультимедиа воситалари асосида талабаларнинг ижтимоий педагогик фаолиятини такомиллаштириш: Пед. фан. фал. док. ... дисс. Т-2022. 178 б.

⁹³ Раҳимова Ф.Н. Мультимедиа воситалари асосида талабаларнинг ижтимоий педагогик фаолиятини такомиллаштириш: Пед. фан. фал. док. ... дисс. Т-2022. 178 б.

sifatida emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik resurs sifatida qarash lozim.

Olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar multimedia vositalarining ijtimoiy-madaniy tarbiyadagi o'zni yuqoriligidan dalolat beradi. Chunki talabalarni multimedia vositalari orqali ijtimoiy tarbiyalashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar shaxsning ijtimoiy-pedagogik shakllanishida qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish muhimdir.

Bugungi kunda ustunlik qilayotgan pedagogik texnologiyalar. O'qitish nazariyasi va amaliyotida "multimedia", "multimedia texnologiyalari", "multimedia muhiti" kabi tushunchalardan foydalanish odatiy holga aylanib bormoqda. Audio va video yozuvlarni interaktiv qo'llab-quvvatlovchi kompyuter tizimlari va matn, statik va dinamik tasvirlar, videolar, nutq va ovoz hamrohligi bilan ishlashga imkon beruvchi interfaol vositalar o'quv ma'lumotlarini taqdim etish, tizimlashtirish, saqlash, uzatish va qayta ishlashning yangi murakkab usullarini olib keldi. Shuningdek, ko'plab mualliflar uchun o'quv muhitini shakllantirish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan multimedia tushunchalari bir-biriga sinonim sifatida qaraladi. Biroq, ayrim ekspertlarning fikricha, bu noaniq atamalarni oddiy tilda ifodalash amalda hech qanday aniq ma'noga ega emas.

Yangi ensiklopedik lug'atda bu tushuncha tor va keng ma'noda izohlanadi:

1. Multimedia vositalari (multimedia vositalari) – kompakt diskda (CD-ROM) yozilgan, kompyuter tarmog'i, elektron pochta, televizion eshittirish kanallari orqali olingan videoma'lumotni (ovozli) displey ekranida tinglashni ta'minlovchi dasturiy va texnik vositalar.

2. Keng ma'noda multimediya – bu kompyuter bilan aloqani turli xil ma'lumotlar oqimida – tovush, vizual, taktil va boshqalarda aks ettirilgan real dunyoni idrok etishga o'xshatishga urinishdir.

Multimedia – bu bir vaqtning o'zida bir nechta axborot shakllarini: matn, rasm, tovush, video, animatsiya va interaktiv elementlarni birlashtiruvchi texnologiyadir. U o'quv jarayonini interaktiv, ko'rgazmali va esda qolarli qilish orqali talabalarning

o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Multimedia vositalari orqali quyidagi kognitiv faoliyat turlari samarali rivojlanadi:

1. **Eshitish va ko'rish orqali idrok etish:** Video va audio materiallar talabaning mavzuni real holatlarda tasavvur qilishiga yordam beradi.
2. **Xotira va e'tiborni kuchaytirish:** Rangli grafiklar, animatsiyalar va ovozli izohlar axborotning esda qolish darajasini oshiradi.
3. **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish:** Interaktiv testlar, o'yinlar va simulyatsiyalar orqali talabalar mustaqil fikrlashga o'rganadi.
4. **Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish:** Multimedia topshiriqlari, masalan, video yaratuvchilik, taqdimotlar tayyorlash orqali talaba o'z fikrini ifoda etishni o'rganadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari – multimedia vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini egallab, ularni o'z amaliy faoliyatida tatbiq etishga tayyor bo'lishi lozim. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari mavzuni ko'proq tasviriy, eshitiladigan, harakatdagi ko'rinishlarda idrok etadilar. Multimedia vositalari o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga undaydi. Interaktiv darslar orqali bolalarda e'tibor, xotira, tafakkur kabi kognitiv jarayonlar tezroq shakllanadi.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fani doirasida multimediali o'qitish texnologiyalari asosida “Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy pedagogik qarashlari” mavzusini o'qitish metodikasi. Multimediali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar ongida Sharq mutafakkirlari – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy pedagogik merosining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ularning ta'limiy, axloqiy, insonparvarlik g'oyalarini zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish vazifalari amalga oshiriladi. Multimediali o'qitish texnologiyasi – bu yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quv jarayonida matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya va interaktiv elementlarni birgalikda qo'llash orqali bilimni samarali yetkazish va o'quvchini faol o'rganishga jalb etish usulidir. Uning pedagogik mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: Talabaning idrok, xotira, tafakkur jarayonlarini faollashtiradi

(kognitiv ta'sir); Bilimni ko'rish, eshitish, amalda bajarish orqali yaxlit qabul qilish imkonini beradi; O'quv jarayonini emotsional va interfaol qiladi; Madaniy merosni virtual shaklda jonlantirish imkonini beradi.

Faoliyat mazmuni	Multimediali o'qitish texnologiyasi vositalari	Rivojlanadigan kompetensiyalar
Kirish (motivatsion bosqich). Talabalarga "Sharq donishmandlari kimlar edi?" deb savol beriladi. "Aqliy hujum" usuli yordamida Navoiy va Jomiyning insonparvarlik, axloq va komillik haqidagi fikrlarini eslash so'raladi.	- Multimedia prezentatsiya (Alisher Navoiy va Jomiy hayoti, asarlari, hikmatlari); - "Sharq allomalari merosi" nomli qisqa video lavha.	- Motivatsion va kognitiv faoliyat; - Qiziqish va diqqatni jamlash.
Asosiy qism (bilish bosqichi). Talabalarga ikki buyuk alloma qarashlarini tahlil etuvchi multimedia darsi namoyish etiladi. Unda: Navoiy asarlarida axloqiy komillik g'oyalari; Jomiy ta'limotida ilm va odob uyg'unligi ko'rsatiladi.	- Multimedia video-ma'ruza (rasm, matn, audio tahlil); - Infografika: "Navoiy va Jomiy pedagogik tamoyillari taqqoslamasi".	- Axborotni tahlil qilish; - Tanqidiy va mantiqiy fikrlash; - Media savodxonlik.
Interfaol bosqich (ijodiy faoliyat). Guruhlar quyidagi topshiriqlarni bajaradi: 1-guruh – Navoiy asarlarida o'qituvchi siymosi haqida video slayd tayyorlaydi; 2-guruh – Jomiy asarlaridan "axloqiy hikmatlar" audio-	- Canva, PowerPoint, Audacity yoki CapCut dasturlari; - Onlayn platformalar (Padlet,	- Ijodiy va kommunikativ kompetensiyalar; - Media mahsulot yaratish ko'nikmasi.

podkast shaklida taqdim etadi.	Jamboard).	
Tahlil va bahs (refleksiv bosqich). Har bir guruh o‘z ishlanmalarini himoya qiladi. “Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy qarashlari bugungi ta’limda qanday ahamiyatga ega?” degan savol bo’yicha bahs o‘tkaziladi.	- Interfaol bahs-munozara (Mentimeter, Kahoot orqali savollar); - “Media forum” usuli.	- Tanqidiy fikrlash; - Muloqot madaniyati; - Axloqiy qaror qabul qilish.
Yakuniy refleksiya (transformsatsiya bosqichi). Talabalar media orqali o‘rganganlarini umumlashtiradi: “Men Navoiy va Jomiydan nimani o‘rgandim?” degan savol asosida video yoki yozma refleksiya tayyorlaydi.	- Google Form refleksiya; - Qisqa video-intervyu yoki elektron esse.	- O‘zini baholash, mustaqil tahlil, ma’naviy ong.

III.2.1-rasm. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” fani misolida multimediali o‘qitish texnologiyasi.

Ushbu multimediali yondashuv orqali talabalarda: Kognitiv faoliyat: axborotni idrok qilish, tahlil etish va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi; Ijodkorlik: media vositalar yordamida yangi g‘oya va taqdimotlar yaratish malakasi rivojlanadi; Tanqidiy fikrlash: mutafakkirlar qarashlarini zamonaviy ta’lim bilan bog‘lash, baholash ko‘nikmasi mustahkamlanadi; Axloqiy-ma’naviy kompetensiya: Sharq qadriyatlarini anglash va ularni ta’limda qo‘llashga tayyorgarlik kuchayadi; Mediamadaniyat: raqamli vositalardan to‘g‘ri, estetik va maqsadli foydalanish madaniyati shakllanadi.

“Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy pedagogik qarashlari” mavzusini multimediali texnologiya asosida o‘qitish: darsni ko‘rish,

eshitish va tahlil qilish orqali chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi, emotsional ta'sir orqali talabada qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otadi, ijodiy va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi, mutafakkirlar merosini zamonaviy raqamli kontekstda o'rganishga imkon yaratadi. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi: "An'anaviy Sharq qadriyatlarini media orqali ifodalay oladigan, tahliliy, ijodiy va axloqiy fikrlovchi pedagog shaxs" sifatida shakllanadi.

Hozirgi tezkor sur'atlarda rivojlanayotgan ta'lim sohasida ayniqsa, zamonaviy Oliy ta'lim bitiruvchilarining keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini o'z oldiga qo'yimoqda va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari zamonaviy mehnat bozorida talabga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan manfaatdor.

Institut bitiruvchilari – ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari – o'qish jarayonida nafaqat kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari, balki zamonaviy pedagog uchun muhim bo'lgan yangi kasbiy fazilatlarni ham rivojlantirishlari va bu borada doimiy o'z ustida ishlashlari lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik vositalarning to'liq majmuasi qo'llaniladi. Jumladan, talabalar kasbiy malaka talablariga mos fazilatlarni o'zlashtirishlari uchun maxsus ta'lim yondashuvlari qo'llanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning bunday tizimi ularning kasbiy kompetensiyalarini, ayniqsa, pedagogik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarga ta'lim berish jarayonida pedagogika oliygohlari talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ular tomonidan o'z imkoniyatlariga, erishilgan darajaga ko'ra amalga oshirilgan kasb tanlashni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida ahamiyat beradi hamda ularning tayyorgarlik va shaxsiy motivatsiyasini oshirishga ham e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi zamonaviy oliy ta'limning pedagogik kompetensiyasi asoslarini shakllantirish masalasining dolzarbligini tekshiradi.

Zamonaviy sharoitda tabiiy va faol fikrlaydigan, o'quv jarayonini modellashtiruvchi, ta'lim va tarbiyaning yangi g'oyalari va texnologiyalarini mustaqil o'ylab topib, hayotga tadbiq etuvchi

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy malaka darajasini oshirish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi.

Birinchidan, kasbiy malakali o‘qituvchi o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ikkinchidan, kasbiy faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadi, uchinchidan, u o‘zining professional salohiyatini qanday amalga oshirishni biladi.

Yoshlarning ma‘naviy imunitetini shakllantirish va ularda ilmiy va dunyoviy qarashlarni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday jarayonning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lganidek, internet va axborotkommunikatsiya texnologiyalarining salbiy tomonlari ham mavjud. Tan olib aytishimiz kerakki, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanmagan vaqtlarda yoshlar ilm olishga, kitob o‘qishga, sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga oshiqishgan. Bugungi yoshlarning qiziqishi esa aksincha. Endi ularning ko‘pchiligi internet kafelari, kompyuter o‘yinlari markazlariga intilmoqdalar. Ammo ular bu yoshida bilim egallash, kasb-hunar o‘rganish, o‘zini kelajagini yaratish uchun harakat qilishlari lozim.

D.Muxiddinova o‘zining “Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta‘siri”⁹⁴ nomli tadqiqotida, bugungi kunda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, ularning mudofaa qudrati ham axborot tizimlari va texnologiyalariga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. Jamiyat hayotining kompyuterlashtirilishi, elektron kommunikatsiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan birga, axborot tizimlariga buzg‘unchilik maqsadida ta‘sir etuvchi “axborot quroli” tahdidining kuchayishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy axborot makonining kengayib borishi yoshlarning dunyoqarashi va ma‘naviy qadriyatlariga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazmoqda. D.Muxiddinovaning fikricha, axborot texnologiyalari faqatgina ijobiy imkoniyatlar bilan emas, balki axborot urushlari, g‘oyaviy tahdidlar va ma‘naviy zaifliklarni kuchaytiruvchi xavf-xatarlar bilan ham birga kelmoqda. Jumladan, axborot tizimlaridan

⁹⁴ Muxiddinova D.Sh. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarning yoshlar dunyoqarashining ta‘siri: Psi.fan.b.fal.dok. diss... Guliston-2023. 160 b.

buzg'unchilik maqsadida foydalanish holatlari ortib borayotgani milliy xavfsizlik uchun yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Muallif ikki asosiy masalaga alohida e'tibor qaratadi⁹⁵. Birinchidan, global axborot oqimlari orqali ma'lum mafkuraviy ta'sirlar jamiyatga singdirilmoqda. Bunday ta'sirlar, ayniqsa, yosh avlod ongida o'z aksini topmoqda. Ikkinchidan, shaxsning ma'naviy immuniteti – ya'ni salbiy axborotlarga qarshi turish qobiliyati – bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar yoshlar axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, yot g'oyalarni farqlash ko'nikmalariga ega bo'lmasalar, ular g'oyaviy tahdidlar oldida ojiz bo'lib qoladilar. Shuningdek, D.Muxiddinova axborot oqimlariga nisbatan milliy mafkuraviy qarashlarning yetarlicha shakllanmaganligi, o'tish davrida demokratik tajriba va mafkuraviy barqarorlikning sustligi bunday tahdidlarni kuchaytirayotganini qayd etadi. Bu esa axborot xavfsizligi, yoshlarning ruhiy va ma'naviy himoyasini ta'minlash borasida tizimli yondashuvni talab etadi.

Globallashuv jarayonining kuchayib borayotgani yoshlarning ongi va tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan zararli g'oyalar va axborotlarning internet orqali keng tarqalishiga zamin yaratmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni mafkuraviy jihatdan himoyalash, ularning g'oyaviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikdan yanada hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Bugungi kunda internetda tarqalayotgan axborot oqimini to'liq nazorat qilish yoki filtrlash texnik jihatdan qiyin va ko'pincha vaqtinchalik choralar bilan cheklanadi. Yoshlarning bir qismi g'arbona madaniy oqimlarga qiziqish bildirayotgan bir vaqtda, milliy ma'naviy qadriyatlarga e'tibor sustlashmoqda. Bu holat ularning kiyinish madaniyati, muomala va hayotiy qarashlarida o'z aksini topmoqda. Shu boisdan, axborot xurujlariga qarshi kurashda yoshlarning ma'naviy-axloqiy immunitetini oshirish, ularga tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

⁹⁵ Muxiddinova D.Sh. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri: Psi.fan.b.fal.dok. diss... Guliston-2023. 51-b.

A.Axmedovning ta'kidlashicha, internetda yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan axborotlarni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin⁹⁶. Birinchi guruhga ekstremistik, terrorchilik, millatchilik, irqchilik kabi buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallar kiradi. Ikkinchi turdagi axborotlar esa G'arb madaniyatiga xos, milliy qadriyatlarimizga zid turmush tarzini targ'ib etadi. Bu turdagi kontent, asosan, g'arb yoshlarining kiyinish uslubi, xatti-harakati va hayotiy qarashlarini targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalarida – maqola, klip va filmlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uchinchi toifadagi axborotlar pornografik mazmundagi materiallardir. To'rtinchi guruhga esa tekshirilmagan, ilmiy asosga ega bo'lmagan, ishonchsiz va salbiy kayfiyat uyg'otuvchi turli xabarlar kiradi.

Internetda keng tarqalayotgan ana shunday zararli axborotlarning yoshlar tomonidan hech qanday tanqidiy fikrsiz qabul qilinayotgani ko'plab mamlakatlar jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Ayniqsa, hayotiy tajribasi kam bo'lgan yosh avlod yaxshi bilan yomonni farqlashda qiynalib, har qanday axborotni haqiqat sifatida qabul qilishi jiddiy ijtimoiy xavf tug'diradi. Shu bois, yoshlarni internetdagi ma'lumotlarning ishonchliligini baholashga, tanqidiy fikrlashga o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, kognitiv jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishida kompyuterlardan foydalanishning ijobiy ta'siri ham ko'plab olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Jumladan, B.F.Lomov, O.K.Tixomirov, V.Y.Lyaudis, R.Xess va L.Mak Garvilar o'z tadqiqotlarida kompyuterlarning inson tafakkuri va bilish faoliyatiga ta'sirini yoritganlar. N.N.Poddyakov esa kompyuter o'yinlari bolalarda atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan yangi munosabat va idrokni shakllantirishini ta'kidlaydi. T.P.Xrizman tomonidan miya faoliyati va tuzilmasidagi o'zgarishlar asosida olib borilgan tadqiqotlar, kompyuterli faoliyatning aqliy funksiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shuningdek, L.A.Paramonova va P.Mak Klargning fikricha, kompyuterlar bolalarda fazoviy tasavvurlar asosida fikrlash, konstruktiv faoliyat muammolarini hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat

⁹⁶ A.Axmedov. Globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat va Internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy ta'siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. P.f.b.f.d(PhD)...diss..-T.,2023. (79-b)166 b.

qiladi. T.York esa kompyuterdan foydalanish orqali vizual-obraziy fikrlash, motorika va og‘zaki muloqot malakalarining shakllanishi uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta’kidlaydi⁹⁷.

X.Najmiddinova⁹⁸ning tadqiqotida ta’kidlanishicha, bolaning yoshi, qiziqishlari va intellektual salohiyatiga mos tanlangan kompyuter o‘yinlari uning fikrlash qobiliyati va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kompyuter orqali bolalar nafaqat kerakli bilimlarni egallashi, balki mantiqiy mushohada yuritish, til o‘rganish, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, musobaqalarda qatnashish kabi foydali mashg‘ulotlar bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor – me’yorni buzmaslikka qaratilishi lozim. Farzandlar axborot makonidan faqat foydali ma’lumotlarni ajrata olishni, mediavositalardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishi muhim. Kompyuterlar bilim olish va intellektual o‘sish vositasiga aylanishi uchun oila muhitining roli katta. Shu bois, bolalarning gadjetlardan foydalanishini nazorat qilish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish birinchi navbatda ota-onalar zimmasiga yuklatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalar hatto 6 oylikligidanoq gadjetlardan foydalanishni boshlamoqda, u esa mas’uliyatli yondashuvni yanada erta bosqichda yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishishda ko‘rgazmali vositalar muhim ma’no va mazmun kasb etadi. Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali darslar samaradorligini oshirish hamda soha bo‘yicha ta’lim oluvchilarga batafsil ma’lumot berish imkoniyati hosil bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarga o‘quv materiali mazmuni turli vositalar orqali yetkaziladi. Dars jarayonida foydalaniladigan o‘qitish vositalarini tanlashga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, muqobil energiya manbalaridan foydalanish mumkin bo‘lgan o‘qitish vositalari aniqlandi.

Ta’lim jarayonlarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish quyidagi shart-sharoitlarning mavjud bo‘lishini talab etadi⁹⁹: ta’limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va aloqa

⁹⁷ Йорк Т. ЭВМ в детском саду // Перспективы. вопросы образования. 1987. № 4. ЮНЕСКО. - С.96-102.

⁹⁸ X.Нажмиддинова. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик тасаввурларини шакллантиришда мультимедиа технологияларидан фойдаланиш методикаси. П.ф.д. (DSc)...дисс. Наманган, 2021. 354 б. (123-б)

⁹⁹ X.Нажмиддинова. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик тасаввурларини шакллантиришда мультимедиа технологияларидан фойдаланиш методикаси. П.ф.д. (DSc)...дисс. Наманган, 2021. 354 б.

vositalaridan foydalanish; ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun unga mos tizimli hamda amaliy dasturiy ta'minot mavjud bo'lishi; ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi o'quv-texnika vositalarini joriy etish bo'yicha tegishli metodik ishlanmalar ishlab chiqilishi.

O'qituvchi o'quv mashg'ulotlarida yangi material mazmunini tushuntirishda, dars samaradorligini oshirish hamda ko'zlangan maqsadga erishish maqsadida turli chizma, jadval, diagrammmalar, turli muqobil energiya manbalari, qurilmalarning maket va modellaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchi darsni qiziqarli o'tishi, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, darsda ularni faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadida muqobil energiya manbalari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berishda turli xildagi yangi vositalarni tayyorlash va ulardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda, barcha ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovatsion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. Innovatsion ta'lim texnologiyasining maqsadi o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarini o'qitish jarayonida mediata'limdan foydalanish masalasi muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Zamonaviy dasturlar, o'qitish usullari, metodlari, telekommunikatsiya vositalari hamda OAV jadal tezlikda rivojlanmoqda. Shu sababli barcha

o'qitish metodikalari sohasidagi mediama'lumotlar, dasturiy-pedagogik vositalar va multimediali o'quv qo'llanmalarni ta'limga integratsiya qilishning didaktik talablarini aniqlash, kognitiv faoliyat jarayonida mediata'lim va axborot texnologiyalarini qo'llash usullarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Suyarova¹⁰⁰ning tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini multimedia ta'lim resurslari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda multimedia elektron vositalarining pedagogik imkoniyatlari asosida o'qish savodxonligini baholash, xalqaro mezonlar (PIRLS) bilan uyg'unlashtirish, interaktiv va innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarning matn mazmunini tushunish, lug'atdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha taklif va uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotda o'quvchilarda o'qish savodxonligini multimedia orqali rivojlantirishning tomonlar tengligi, ishonchlilik, qayta aloqa va tadqiqot pozitsiyasi kabi asosiy tamoyillarini ko'rsatib o'tadi¹⁰¹.

Tarbiya fanini o'qitishda media ta'lim va zamonaviy dasturiy-pedagogik vositalardan keng foydalanilmoqda. Xususan, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi natijasida darslarning sifati va samaradorligi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yangi avlod darsliklarining joriy etilishi, ularda QR-kod orqali mavzuga oid videodarslardan foydalanish imkoniyati fanni nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham zamonaviy tarzda o'zlashtirish imkonini bermoqda.

Bunda multimedia vositalarining – audio, video, animatsiya, grafika va interaktiv dasturlarning – o'рни beqiyos. Ular orqali darslar jonli, qiziqarli va bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tashkil etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasavvur, his qilish va diqqat kabi kognitiv jarayonlar faol bo'lgani bois, vizual va eshitiladigan axborotni o'zlashtirish ancha samarali kechadi.

¹⁰⁰ Suyarova A.X. Multimedia ta'lim resurslari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped.fan.dok...diss.avto-ref. – T., 2022. - 45 b.

¹⁰¹ Suyarova A.X. Multimedia ta'lim resurslari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped.fan.dok...diss.avto-ref. – T., 2022. - 45 b.

Eng muhimi, bu tendensiya nafaqat amalga oshirilayotgan darslarda, balki bo‘lajak o‘qituvchilar – ya’ni pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni tayyorlash jarayonida ham o‘z aksini topmoqda. Ular ta’limda multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘rganishi, bu vositalar yordamida darslar ssenariylari tuzishi, interaktiv materiallar yaratishi orqali o‘z kasbiy salohiyatini oshiradi. Boshqacha aytganda, multimedia texnologiyalari talabalarni pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular talabalar nafaqat dars mazmunini yaxshi yetkazishni, balki axborotni tanlash, qayta ishlash, vizuallashtirish, hamkorlikda faoliyat yuritish va ijodiy yondashish salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Shu tariqa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari multimedia vositalarini o‘rganar ekan, ular nafaqat texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlangan darslar o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ladi, balki ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va ijodiy ruhda tashkil qilishga qodir bo‘lgan zamonaviy mutaxassis sifatida shakllanadi.

Quyida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maktab yangi avlod darsliklaridan 3-sinf Tarbiya¹⁰² kitobidan QR-kodli mavzulardan misollar to‘pladik. Mualliflar: O.V.Usmonova, Y.V.Risyukova. Novda nashriyoti, Toshkent – 2023. B.104.

№	Mavzu nomi	Audio mavzu	Bet	Audio shtrix kod	Video shtrix kod
1	O‘zbekiston xalqi-Vatanimiz faxri	O‘zbekiston xalqi-Vatanimiz faxri	8-bet		
2	Men yashayotgan olam	Men yashayotgan olam	12-bet		

¹⁰² O.V.Usmonova, Y.V.Risyukova. Tarbiya, 3-sinf. Novda nashriyoti, Toshkent – 2023. B.114.

3	Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?	Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?	16-bet		
4	Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?	Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?	25-bet		
5	Tenglik nima?	Tenglik nima?	26-bet		
6	Men hayotni sevaman	Men hayotni sevaman	46-bet		
7	His-tuyg'ularimiz	His-tuyg'ularimiz	47-bet		
8	O'zimni boshqaraman	O'zimni boshqaraman	60-bet		
9	O'zbekiston xalqlari madaniyati	O'zbekiston xalqlari madaniyati	74-bet		

III.2.2-rasm. 3- sinf Tarbiya kitobidagi QR- kodli mavzular.

Multimediali o'qitish texnologiyalari – bu o'qitishda qo'llaniladigan texnik vositalar hamda didaktik vositalar, ya'ni axborot tashuvchilarning uyg'unlashgan tizimidir. Ushbu texnologiyalarning texnik jihatlari tovush va tasvir ko'rinishidagi axborotni saqlash, uni qayta ishlash va kerakli formatga o'zgartirish orqali taqdim etishga xizmat qiladi. Bunda axborot dastlab analog

(uzluksiz) shakldan raqamli (diskret) ko‘rinishga o‘tkaziladi va foydalanuvchi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi uchun qayta konvertatsiya qilinadi.

Multimedia texnologiyasining mohiyati, aslida, kompyuter yordamida ta‘lim berish jarayoni bilan bog‘liq. Bu turdagi mashg‘ulotlar ham kompyuter asosida tashkil etiladi. Shu sababli, multimedia texnologiyasi ta‘lim jarayonlarini kompyuter vositalari orqali amalga oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Biroq bunday texnologiya samarali ishlashi uchun ham kompyuter, ham multimedia ilovalari ma‘lum texnik talablarga mos bo‘lishi lozim.

Multimedia kompyuteri deganda shunday turdagi kompyuter tushuniladiki, u multimedia dasturlarining barcha imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga qodir bo‘ladi. Bunday kompyuter monitor orqali grafik va video ma‘lumotlarni hamda animatsiyalarni aniq va ravshan ko‘rsata oladi, turli xil ovoz effektlari va musiqani yuqori sifatda qayta ishlab beradi, kompakt-disklarni o‘qish va boshqa qator multimedia vazifalarini bajara oladi. Qisqacha aytganda, zamonaviy kompyuter – bu ma‘lumotlarni qayta ishlash bilan birga, ta‘lim jarayonida yuqori samara beradigan kuchli texnik vosita hisoblanadi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib bilim oladi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bu usul orqali ma‘lumotni o‘zlashtirish samaradorligi ancha yuqori bo‘ladi. Psixologlar ham ko‘rish va eshitish hissi orqali bilim berish inson xotirasida ma‘lumotni uzoq muddat saqlab qolishga yordam berishini ta‘kidlaydilar. S.S.G‘ulomov va hammualliflar olib borgan tadqiqotlarga ko‘ra, agar o‘quvchi ma‘lumotni video ko‘rinishida qabul qilsa, uning yodda saqlash darajasi taxminan 25–30 foizga oshadi. Agar o‘quv materiallari audio, video va grafik elementlar bilan boyitilgan holda taqdim etilsa, axborotni esda saqlab qolish ko‘rsatkichi 75 foizgacha ortishi mumkin¹⁰³.

Multimedia texnologiyalaridan ilk bor foydalanilgan dasturlar sifatida kompyuter o‘yinlari qayd etiladi. Ushbu o‘yinlar dasturiy

¹⁰³ X.Нажмиддинова. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик тасаввурларини шакллантиришда мультимедиа технологияларидан фойдаланиш методикаси. П.ф.д. (DSc)...дисс. Наманган, 2021. 354 б.

mahsulotlar ichida eng keng tarqalgan turlardan biri bo'lib, ularda multimedia imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi. Zamonaviy kompyuter o'yinlari yuqori sifatli grafika, animatsiya, turli ovoz va musiqa effektlari hamda tovush samaralarini o'z ichiga oladi. Shu orqali ular multimedia texnologiyasining barcha asosiy xususiyatlarini amaliy ravishda ifodalaydi.

Multimedia – bu foydalanuvchiga yagona axborot muhiti doirasida turli xil (geterogen) ma'lumotlar bilan samarali ishlash imkonini beruvchi apparat va dasturiy vositalarning majmuasidir. Bu tizimlar ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini faollashtirish, axborotni ko'rgazmali va esda qoladigan shaklda yetkazish imkonini yaratadi.

Multimedia vositalari zamonaviy ta'limda nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantiruvchi kuchli omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu texnologiyalar yordamida talabalarda mustaqil o'rganish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash va o'z fikrini aniq bayon qilish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Ayniqsa, pedagogika sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuv dars samaradorligini oshirish va zamonaviy o'qituvchi sifatida shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta'lim muhitida moslashuvchan web tizimlaridan foydalanish ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. M.R.Fayziyeva moslashuvchi web tizimlarning pedagogik va texnologik imkoniyatlarini asoslab bergan bo'lib, ushbu yondashuv mediata'lim platformalarini ishlab chiqishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, raqamlashtirilgan ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Multimedia vositalari zamonaviy ta'limda nafaqat axborot uzatish vositasi, balki talabalarining kognitiv faoliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalarda mustaqil o'rganish, tahlil qilish, mediatanqidiy fikrlash va ijodiy

yondashuv ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagog sifatida kasbiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mediata'lim asosida multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish, mediatanqidiy tafakkurini shakllantirish va raqamli pedagogik kompetentligini takomillashtirishning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo'ldi. Multimedia vositalarining interaktiv, refleksiv va mediatahliliy imkoniyatlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

III bob bo'yicha xulosalar

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mediata'lim asosida kognitiv faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining nazariy va amaliy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik, ularning ta'lim sifatini oshirishning eng muhim shartidir, chunki amaliyot kelajakdagi kasbiy faoliyatiga imkon qadar yaqin sharoitlarda amalga oshiriladi, bunda kasbiy malakani shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliyot o'tash jarayonida bir qator muhim ko'nikmalarni shakllantirishlari zarur. Bu jarayonda ularga auditoriya bilan ishlash, pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish, o'qitish usullari va metodikasi bo'yicha amaliy tajriba orqali bilim berish vazifasi yuklanadi. Amaliyot vaqtida o'qituvchilarning o'quvchilar bilan mo'ljallangan ishlash tajribasi, ularning bilimni baholash, axborotni tahlil qilish va pedagogik yondashuvlarni samarali joriy qilish qobiliyatlari shakllanishi aniqlandi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakaviy amaliyotga jalb etilishida birinchi kundan boshlab o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish muhimdir. Amaliyotning asosiy maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni umumiy va maktabgacha ta'lim tizimiga tanishtirish, pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish va amaliy faoliyatga tayyorlashdir. Bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifatini va samaradorligini oshirib, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarni qo'yib, ularning faoliyatini samarali tashkil etadi. O'quv faoliyatini yuqori darajada tashkil qilish uchun o'qituvchi to'g'ri texnologiyalarni tanlab, o'quv jarayonining yaxlitligini ta'minlashi zarur. Bu esa o'quvchilarning irodasi va faoliyatini rivojlantiradi, ta'lim tizimining samarali ishlashiga xizmat qiladi.

“Tarbiya” darsliklarida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Interaktiv darslar, audiovizual materiallar, animatsiyalar va elektron resurslar orqali o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish ortadi, eslab qolish, tushunish, tahlil qilish va fikr yuritish kabi aqliy jarayonlar faollashadi. Mazkur vositalar darslik mazmunini boyitib, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, muloqotga kirishishga va o'z fikrini erkin ifodalashga undaydi. Natijada, multimedia vositalari yordamida ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'rganish samaradorligi ortadi, hamda kognitiv faoliyat bosqichma-bosqich, tizimli ravishda shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy tashqi omillar aniqlandi. Jumladan, pedagogning raqamli texnologiyalarga bo'lgan munosabati, mediata'lim asosida kognitiv jarayondan kutilayotgan natijalar hamda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashdagi muammolarni hal etish orqali mediakompetentlik va kasbiy kompetensiyalar o'zaro integratsiyada qo'llanilishi mumkinligi belgilandi. Bu esa, kognitiv faoliyatni rivojlantirishda samarali omil sifatida xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mediata'lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridandir. Interaktiv video darslar, keys va loyiha usullari, onlayn testlar, media-kontent yaratish va jonli muhokamalar kabi texnologiyalar o'qituvchi-talaba faoliyatiga yangicha yondashuv olib kiradi. Ular orqali talabalar axborotni chuqur anglash, tahlil qilish, muammo yechimini topish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bu jarayonda mediata'limning innovatsion texnologiyalari – mediadidaktik soddalashtirish, mediatanqid, EVENT, STEAM, GROW kabi modellarning qo'llanilishi o'quv jarayonining interaktiv, amaliy va natijador bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi” fanini o'qitishda Kahoot, Quizizz, Mentimeter, audio-video resurslar, raqamli matnlar va sun'iy intellekt vositalari orqali ta'lim sifati yanada oshadi. Bu esa pedagogik jarayonda mediata'limni samarali integratsiyalash orqali kognitiv faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA

Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida elektron hujjatlarni yaratish va saqlash masalalarini yoritish, shu mavzuga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bu ma'lumotlar bazasidan foydalanish siyosatini ishlab chiqish zamonaviy ta'lim muassasalarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari media xabarlardan oladigan ma'lumotlar, ta'lim ma'lumotlaridan farqli o'laroq, hissiy tus berish va ma'lumotlarning dolzarbligi kabi jozibali xususiyatlarga ega. Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari media bilan raqobatga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak, u avtoritarlikdan voz kechishi, iste'mol qilingan ma'lumotlardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zi nima olganiga nisbatan talaba aniq nimani olgani bilan ko'proq qiziqishi, talabalarning faoliyatini baholash mezon va usullarni qayta ko'rib chiqishi kerak. Bilimlar inflyatsiyasi holatini, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida hisobga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari OTMning mediata'lim maydoni kontentini, uni faol va zamonaviy tendensiyalarga, shuningdek, talabalar ehtiyojlariga mos keladigan qilib modifikatsiyalash maqsadida ta'limga yo'naltirilgan zamonaviy texnik vositalar va dasturiy ta'minotni tahlil qilishi zarur.

Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning metodik ta'minoti, zamonaviy texnologiya bosqichlarida virtual laboratoriyalar, o'quv videomuloqot – videokonferensiyalarni tashkil etish o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarning ta'limiy dasturiy vositalar bilan ishlash layoqatini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarda fanga oid (xususiy) kompetensiyalarni shakllantirish bevosita fanga oid obyekt, hodisa va jarayonlarni tushunish, tanish va izohlash, ular ustida kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'qitish shakllari (dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar) ni uzviy tizimlashtirish, o'qitish vositalari va metodlarini o'zaro integratsiyalash, sog'lom turmush tarzi va ekologik bilimlarni egallash orqali amalga oshadi.

Mediata'lim resurslaridan foydalanishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari quyidagilarni amalga oshirishiga e'tibor qaratishi lozim:

- har qanday kontekstda berilgan va turli shakldagi axborot resurslaridan foydalanish;

- izlanayotgan mediata'lim resurslarining nomi, mavzusi va darslik yo'nalishiga mos kelish yoki kelmasligi, bularga berilgan izoh, tavsif va qo'shimcha didaktik materiallardan foydalana olish kompetensiyasiga ega bo'lish;

- mediata'lim resurslaridan olinayotgan material va manbalar, ya'ni barcha materiallarni darslikdagi mavzular bo'yicha tizimlashtirib foydalanishga o'rganish, berilayotgan verbal tarzdagi (matnli ko'rinishdagi) materiallarni vizual holatga o'tkazish kompetensiyasini shakllantirish, ya'ni berilgan matn asosida ko'rsatmali manbalar yaratish;

- berilayotgan vizual (chizma, surat, rasm ko'rinishidagi) materiallarga ishlov berish kompetensiyasini shakllantirish;

- berilgan mediata'lim resursi materiallarini transformatsiya qilish, ya'ni berilgan materiallarning hajmi, mazmuni va shaklini darslik materialiga moslashtirish, qisqartirish yoki o'zgartirish holatlariga e'tiborli bo'lish;

- berilayotgan informatsion axborotni tahlil etish hamda kommunikatsion maqsadlarini bilish;

- mediata'lim resurslaridan olingan materiallarni o'z so'zi bilan aytib berish, asoslash (argumentlash) orqali kommunikativ kompetentligini shakllantirish.

Agar berilgan mediata'lim axborotlar resursi materiallarini argumentlash qobiliyatiga ega bo'lmasa, o'quvchi hech qachon berilgan resurs materiallarini darslik materiallariga uyg'unlashtira olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi qonun. O'RQ-576-son, 2019-yil 29-oktabr. – [Elektron resurs]. <https://www.lex.uz/docs/4571490>
2. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risidagi qonun. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Magistratura to'g'risidagi nizom. 2015-yil 2-mart, 36-son qarori. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-2579469?ONDATE=11.08.2018>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish to'g'risida. 133-son qaror, 2020-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/ru/docs/-4759202>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish to'g'risida. 824-son qaror, 2020-yil 31-dekabr. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-5193564>
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Ta'lim oluvchilarning bilimini baholash mezonlari to'g'risidagi nizom. 3173-raqam, 2019-yil 15-iyul. – [Elektron resurs]. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4420039>
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 69 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – 230 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: O'zbekiston, 2024. – 560 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi PF-5847-son farmoni. – 2019-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-4545884>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tayyorlash tizimini tashkil etish to'g'risidagi PQ-4306-son qarori. – 2019-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/ru/docs/-4320713>

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish to‘g‘risidagi PQ-4433-son qarori. – 2019-yil. – [Elektron resurs]. Rejim kirish: <https://lex.uz/docs/-4494504>

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi PF-6097-sonli farmoni. – 2020-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish to‘g‘risidagi PQ-61-son qarori. – 2021-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-5793251>

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha PF-6198-son farmoni. – 2021-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-5352267>

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha PF-134-son farmoni. – 2022-yil. – [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/6008663>

18. Amirova M. Ona tili o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari // *Ta’limning Zamonaviy Transformatsiyasi*. – 2024. – Vol. 7, no. 2. – P. 219–223. – URL: <https://pedagoglar.org/03/article/view/2156> (accessed: 25.07.2025).

19.A’zamov A. Talabalarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent, 2004.

20.Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: в 2 т. – М., 1980. С.288.

21.Бекназарова С.С. Моделирование основных характеристик экспертной медиаобразовательной системы / С.С.Бекназарова. — Текст: непосредственный //Институты развития человеческого потенциала в условиях современных вызовов. — Том II. — Екатеринбург, 2020, - С. 17-27.

22.Baran S.J. (2002). Introduction to Mass Communication. – Boston-New York: McGraw Hill. – 535p

23.Bell, Martin, and Keith Pavitt. "The development of technological capabilities." *Trade, technology and international competitiveness* 22.4831 (1995): 69-101.

24.Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi

(«Informatika va axborot texnologiyalari» o‘quv fani misolida): p.f.b.f.d (PhD) diss. Toshkent, 2018. – B. 24-25.

25.Болотнов А.В. Информационные волны и их типы в современном медиадискурсе: к постановке проблемы.: к постановке проблемы // Вестник ТГПУ. 2015. № 6 (159). 102-106 с. URL:

26.Веряев А.А. Семиотический подход к образованию в информационном обществе: Монография – Барнаул, 2000. 298 С.

27.<https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-volny-i-ih-tipy-v-sovremennom-mediadiskurse-k-postanovke-problemy/viewer>

28.Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиатеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270

29.Джалилова С.Х. Психологические особенности личностной профессионализации студентов педагогического вуза: Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 1994. – 134с

30.Zhang, Qingyu, Mark A. Vonderembse, and Mei Cao. “Achieving flexible manufacturing competence: the roles of advanced manufacturing technology and operations improvement practices”. *International Journal of Operations & Production Management* 26.6 (2006): 580-599.

31.Зазнобина Л.С. Медиаобразование в школе: как же выжить в мире СМИ. № 1, 1999.

<http://vivovoco.astronet.ru/VV/PAPERS/MEN/MEDIA.HTM>

32.Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. — Издание второе, дополненное, исправленное и переработанное. — М.: Издательская корпорация "Логос", 2000. — 384 с. — URL: <https://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=9945>.

33.Зырянова, М. О. Способы противодействия распространению фейковой информации / М. О. Зырянова. — Текст : непосредственный // Общество, социология, психология, педагогика. — 2020. —№ 6 (74). — С. 80. — ISSN 2221-2795. — eISSN 2223-6430.

34.Ergasheva R.Y. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. *PEDAGOGS* jurnali, 2023, 35(3), 139–141 b.

35. "Framework for Information Literacy" (PDF). Association of College & Research Libraries. 2016. p. 8. Retrieved May 1, 2022.

36. "Framework for Information Literacy" (PDF). Association of College & Research Libraries. 2016. p. 8. Retrieved May 1, 2022.

37. Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиадеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казан: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270.

38. Hakimova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash // Текст научной статьи по специальности. Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 .«Фундаментальная медицина» 145-бет.

39. Holikulova H. va boshq. Boshlang'ich ta'limda Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. Toshkent: Paoer Book 4, 2022. 256-b.

40. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. С. 32.

41. Karimova Q., Matchonova S. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Nosir, 2009, 124 b.

42. Клустер Д. Что такое критическое мышление? [Электронный ресурс] / Режим доступа: <http://testolog.narod.ru/Other15.html>

43. Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.2.

44. Козырев А.А. Информационные технологии в экономике и управлении. Из.во: Михайлова, Санкт-Петербург, 2000, -С. 57

45. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с

46. Madraximova F.R. Mediasavodxonlikni rivojlantirish asoslari. Monografiya. – T.: ILM ZIYO ZAKOVAT, 2022. – 156 b.

47. Madraximova F.R., Raximov G.B., Samanova Sh.B. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Darslik. Toshkent-2025. - 296 b.

48. Matchanov S., Qosimova K., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Nosir, 2009. 116-b.

49.Muxammadiyev J.O'. Axborot xavfsizligi: muammo va yeshimlar. – T., 2011. – 167 b.

50.Masterman L. Teaching the Media. London: Comedia Publishing Group, 1985. 341p.

51.Mavlonova R., Rahmanqulov N. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash. - Toshkent, 2011.

52.Mamatova Ya., Sulaymanova S., O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–T.: «Extremum-press», 2015. – 94 b.

53.Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60r.

54.Никитина Е.Ю., Милютин А.А. Формирование медиакомпетенции младших школьников на уроках русского языка.Монография.–М.,2016.–С.202.

55.Nesterenko F.P., Imnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug'atma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. - T., Zar qalam, 2003. 48-b.

56.Ноберт Винер. Принципы международной журналистики и международный обмен информацией. –М., 1999. С.5.

57.Никитина, Э.Ю. Педагогическое управление коммуникативным образованием студентов вузов: Перспективные подходы: монография. – М.: МАНПО, 2006. – С. 154.

58.Omonov B. Globallashuv va siyosiy yangilanish//. – Tafakkur-2012. 3-son B. 112.

59.Онкович Г.В. Векторы развития современного медиаобразования // Журналистика и медиаобразование — 2010 / Под ред. А. П. Короченского, М. Ю. Казак. Белгород: Изд-во БелГУ, 2010. С. 296—302. (рус.)

60.Пассов Е.И. Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. М. «Просвещение», 2000 г. - 173с

61.Протопопова, В.В. Медиакомпетентность современного педагога//Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы и перспективы: в 2-х т. Т.1. Педагогика. Психология. - Самара: ПГСГА, 2009. - 285-288с.

62.Федоров А.В. Развитие медиакомпетенности и критического мышления студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информация для всех. 2007. – С. 616.

63.Qosimova Z.Q. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o‘quv yurtlari ma’naviy-ma’rifiy ishlari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2004. – 26 b.

64.Rahimova Sh. Yoshlarda axborot almashinuvi madaniyatini rivojlantirish istiqbollari// INFOLIB, №1, 2020. Axborot-kutubxona jurnali <https://einfo.lib.uz/>.

65.Roco, Mihail C., and William Sims Bainbridge. "Converging technologies for improving human performance: Integrating from the nanoscale." *Journal of nanoparticle research* 4 (2002): 281-295.

66.Stavroulakis Peter, Stamp Mark. Handbook of Information and Sommunisation Sesurity. – 2010. – 178 p.

67.S.Fayrstoun. The Women’s Rights Movement in the U.S. : A New View, an article first appearing in *Notes from the First Year* (New York: The New York Radical Women, 1968).

68.Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.- М.: Знание, 1997. –С.64.

69.Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: Science and innovation, 2023. – 190 b.

70.Saidova N.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish. Monografiya. Farg‘ona–2024. –120 b.

71.Сидорина Наталия Александровна. Социально-педагогическое сопровождение развития одаренности подростков в детском оздоровительном лагере : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 Кострома, 2006 226 с. РГБ ОД

72.Cynthia Vinney. “Very well mind”. What Is Media Literacy? (2022-yil 12-yanvar).

73.Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya muammolari. -T.: “Akademiya”, 2011. 156-b.

74.Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Т.: Университет, 1997. – 48

75. Usmonova O.V., Risyukova Y.V.. “Tarbiya”. 1-sinf. Novda nashriyoti. Toshkent–2023. – 119 b.
76. Usmonova O.V., Risyukova Y.V.. “Tarbiya”. 2-sinf. Novda nashriyoti. Toshkent–2023. – 112 b.
77. Usmonova O.V., Risyukova Y.V.. “Tarbiya”. 3-sinf. Novda nashriyoti. Toshkent–2023. – 104 b.
78. Usmonova O.V., Risyukova Y.V.. “Tarbiya”. 4-sinf. Novda nashriyoti. Toshkent–2023. – 82 b.
79. Umataliev Z. Mediaxavfsizlik yoshlarimiz kelajagining poydevori sifatida. — Ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm|| respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – T.: 2017. 223 b.
80. Эльконин Д. Б. Э-53 Избранные психологические труды. — М.: Педагогика, 1989. 560 с.: ил. — (Труды д. чл. и чл.-кор. АПН СССР)...." [Источник: <https://psychlib.ru/mgppu/eit/EIT-001-HTML#p1>].
81. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. –T.: Sharq, 2000. 46 b.
82. Sharipov Sh. O‘quvshilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. – T., 2012. – 46 b.
83. Sharikov A.V. SLEMI (1996). L’Astualite’ et les medias` a l’esole primaire, au college et au lisee. Paris: SLEMI, 120 p p.12.
84. Яглом Т. Массовые коммуникации в современном мире: методология анализа и практика исследования. – СП(б).: Питер, 2000. – 190 с
85. Абдуллаева Б.С. Академик лицей бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурларини ривожлантириш (умумлаштирувчи дарслар мисолида): дисс... П.ф.н. – Тошкент: ТДПУ, 2002. 146 б.
86. Alimbayeva O.I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari: Ped. fan. fal. dok. diss... T-2024. 190 b.
87. Axmedov A.D. Globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat va Internet tahdidlarining yoshlar ongiga salbiy

- ta'siri va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: P.f.b.f.d (PhD) diss. – T.: 2023. – 166 b.
88. Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланишнинг илмий-методик асослари: Дисс. фан. номз. – Т.: 2012. – 169 б.
89. Бабаджанов С.С. Педагог олий таълим муассасалари талабаларини медиакомпетентлигини ривожлантириш технологиялари: Пед. фан. фал. док. дисс. автореф. – Т.: 2019. – 45 б
90. Ботирова Н.Дж. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш. П. ф. н. дисс. Фарғона-2022. – 152 б.
91. Бегимқулов Ҳ.Ш. Малака ошириш тизимида профессионал таълим педагог кадрларининг медиакомпетентлигини рақамли технологиялар воситасида такомиллаштириш: Пед. фан. Док. дисс. автореф. – Т.: 2023. – 53 б.
92. Эшонқулова Ш.Э. Мустақил таълим жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ўқув-билиш компетенциясини ривожлантириш: П.ф.ф.д (Doctor of Philosophy) дисс. Т.: 2022. – 182 б.
93. Fayziyeva M.R. O'quv jarayoniga moslashuvchi Web tizimlarni yaratish. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoref. – T.: 2017. – 45 b.
94. Ismoilova K.V. Talabalar mediasavodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari: Psixologiya fan. dok. diss. avtoref. – T.: 2025. - 47 b.
95. Мадрахимова Ф.Р. Олий таълим ташкилотлари талабаларида медиасаводхонликни ривожлантириш: Пед. фан. док. дисс. автореф. – Чирчиқ–2022. – 58 б.
96. Мамаражабов М.Э. Рақамлаштирилган таълим шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик тайёргарлигини такомиллаштириш: Пед. фан. док. дисс. – Т.: 2022. – 310 б.
97. Мамутова Г.Ш. Рақамли технологиялар асосида бўлажак ўқитувчиларнинг ахборот-коммуникатив

- компетенцияларини ривожлантириш. П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т.: 2022. – 153 б.
98. Mahmudova M.H. Mediasavodxonlik – internet OAVdagi feyk va dezinformatsiyalardan himoya qilish vositasi sifatida. F.f.b.f.d. (PhD) дисс. автореф. – Т.: 2024. – 59 б.
99. Muxiddinova D.Sh. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarning yoshlar dunyoqarashning ta'siri: Psi. fan. b. fal. dok. diss. Guliston-2023. – 160 б.
100. Мирзакамолова Д.М. Миллий ўйинларда бола шахси шаклланишининг психологик асослари: псих. фан. номз. дисс. –Тошкент, 1996. – 155 б.
101. Nabijanov Y.I. Ona tili ta'limida grafik organayzerlardan foydalanish texnologiyalari: Ped. fan. Dok. diss. avtoref. – Namangan. 2024. – 57 б.
102. Нажмиддинова Х. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик тасаввурларини шакллантиришда мультимедиа технологияларидан фойдаланиш методикаси. П.ф.д. (DSc)...дисс. Наманган, 2021. – 354 б.
103. Нафасов Ғ.А. Олий таълим муассасалари талабаларининг когнитив компетенцияларини ривожлантириш: П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т.: 2021. – 163 б.
104. Нуруллаева Ш. Бошланғич синф она тили дарсларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш: пед. фан. ном. дисс. –Т.: 2005. – 175 б.
105. Nizamov G'.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish: ped. fan. fal. dok. diss. T.: 2023. – 160 б.
106. Нишонова З.Т. Мустақил ижодий фикрлашни шакллантиришнинг психологик асослари: псих. фанл. д-ри. дисс. – Т.: 2005. – 391 б.
107. Qosimova Z.Q. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy ishlari misolida): P.f.n. diss. avtoref. – Т.: 2004. – 26 б.
108. Раҳимова Ф.Н. Мультимедиа воситалари асосида талабаларнинг ижтимоий педагогик фаолиятини

- такомиллаштириш: Пед. фан. фал. док. дисс. Т.: 2022. – 178 б.
109. Садикова Д.Х. Инновацион таълим технологиялари асосида талабаларнинг касбий сифатларини ривожлантириш. П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т.: 2022. – 161 б.
110. Saidova N.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot- kommunikativ kompetentligini rivojlantirish: P.f.b.f.d (PhD) diss. T.: 2023. – 132 b.
111. Солиев И.С. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини ривожлантириш. Педагогика йуналиши буйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2020. – 53 б.
112. Suyarova A.X. Multimedia ta'lim resurslari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. avtoref. – T.: 2022. – 45 b.
113. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. dis. avtoref. – T.: 2012. – 46 b.
114. Тайлакова Ш.Н. Ўқувчи – ёшлар маънавиятини оммавий ахборот воситалари асосида такомиллаштириш (телекўрсатувлар, радиоэшиттиришлар ва интернет хабарлари мисолида). П.ф.б.ф.д (PhD) ... дисс. автореф. – Т.: 2018. – 51 б.
115. Umarova G.B. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirishning elektron didaktik ta‘minotini takomillashtirish metodikasi. P.f.b.f.d(PhD) diss. – T.: 2025. – 150 b.
116. Umarov A.V. “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fani asosida talabalarning mediakompotentligini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. dok. diss. avtoref. – Andijon-2025. – 60 b.
117. Usarova M.N. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida kognitiv faollikni oshirish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. dok. diss. avtoref. Qarshi–2024. – 24 b.
118. Уразметова Ш.А. Рақамли ресурсларни моделлаштириш асосида талабаларнинг ахборот

компетентлигини ривожлантириш. П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. автореф. – Т.: 2022. – 45 б.

119. Уразметова Ш.А. Рақамли ресурсларни моделлаштириш асосида талабаларнинг ахборот компетентлигини ривожлантириш. П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т.: 2022. – 140 б.

120. Валиханова Н.А. Малака ошириш жараниёда бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот-коммуникацион компетентлигини ривожлантириш. П.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т.: 2022. – 174 б.

121. Yakubjonova M.I. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish: Ped. fan. dok. diss. avtoref. – Chirchiq–2023. –56 b.

122. Yuldasheva M.E. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish: P.f.b.f.d (Doctor of Philosophy) diss. – Т.: 2023. – 155 b.

123. Зарипов О.К. Электрон таълим мухитида интерактив таълим ресурсларини яратиш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. фал. док. дисс. – Т.: 2022. – 150 б.

124. Яминова С. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантиришда сценарийли ўқитиш усулидан фойдаланиш: пед. фан. номз ... дисс. – Т.: 1997. – Б 168.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA’LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	5
I.1. Mediata’lim va kognitiv faoliyat kategoriyalarining kontekstual tahlili.....	5
I.2. Mediata’lim xorijiy ilmiy tadqiqotlarda – pedagogik muammo sifatida	24
I.3. Mediata’lim asosida talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish zamon talabi	43
I bob bo‘yicha xulosa.....	63
II BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA’LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	65
II.1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish omillari	65
II.2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish komponentlari	85
II.3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirishning shakl va vositalari.....	105
II bob bo‘yicha xulosa	1277
III BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIATA’LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI	129
III.1. Malaka amaliyoti davrida talabalarda mediata’lim asosida kognitiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari.....	129
III.2. Multimedia – talabalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish omili sifatida.....	161
III bob bo‘yicha xulosa	185
XULOSA.....	188
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	190

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna

**MEDIATA'LIM ASOSIDA
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI
O'QITUVCHILARIDA KOGNITIV
FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH**

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.

Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligiga, hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.

